

74  
All

**M.M. Axmedjanov, B.Q. Xo`jaev,  
Z.D. Hasanova**

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**M.M. Axmedjanov, B.Q. Xo`jayev, Z.D. Hasanova**

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim  
vazirligi tomonidan oliy o`quv yurtlari talabalarini, maktab va kasb-  
hunar ta`limi o`qituvchi-tarbiyachilapiga uchun  
o`quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

**Toshkent - 2010**

- Taqrizchilar:** Adizov B.R. - Buxoro Davlat universiteti Ma`naviy va ma`rifiy ishlari bo'yicha prorektor, p.f.d., prof.
- Olimov Sh.Sh. - Buxoro viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshharmasi bo'limi boshliqi, pedagogika fanlari nomzodi


#### ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanmada mualliflar hozirgi zamon pedagogika va psixologiya fanlarining yutuqlari hamda uzoq yillar olib borilgan kuzatishlari va mazkur fanni o'qitishdagi tajribalariga tayanib, pedagogik mahoratning ilmiy - nazariy va amaliy - metodik asoslari xususida fikr yuritadilar. O'quv qo'llanmada pedagogik mahorat fanining nazariy - metodologik asoslari, mazmuni, funktsiyasi, tarkibiy hismlari hamda pedagogik mahoratning vazifalari, uning o'quv - tarbiya jarayonini boshharishdagi o'mini, o'qituvchi va tarbiyachi mahoratini aniq dalillar orqali yoritilgan.

O'quv qo'llanma o'qituvchilarga, xususan, pedagogik faoliyatni endigina boshlagan va boshlayotgan o'qituvchi - tarbiyachilar, pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, kasbiy pedagogik mahoratni egallash hamda takomillashtirish haqida ma'lumot beradi.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>I. BOB. PEDAGOGIK MAHORATNING NAZARIY - METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>	<b>7</b>
1.1. "Pedagogik mahorat" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va nazariy - metodologik asoslari.....	7
1.2. Pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirish.....	16
1.3. Pedagogik faoliyat - ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida.....	28
1.4. Pedagogik texnika -pedagogik mahoratning tarkibiy hismi sifatida.....	33
<b>II. BOB. O'QITUVCHI VA TALABA MUOMALASIDA PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI.....</b>	<b>49</b>
2.1. Pedagogik hamkorlik mahorati. O'qituvchi va talabaning muomala madaniyati.....	49
2.2. O'qituvchi - muomala sub`ekti sifatida.....	51
2.3. Kayfiyatni boshharishda pedagogik mahorat. Pedagogning muomala jarayonidagi ruhiy holati va uni boshharish yo'llari.....	55
2.4. Pedagogik muomala madaniyati. Pedagogik muomala usullari.....	59
2.5. Pedagogik mahorat tizimida ishontirish va ta'sir ko'rsatish usullari.....	62
<b>III. BOB. O'QUV - TARBIYA JARAYONINI BOSHHARISHDA PEDAGOGIK MAHORAT.....</b>	<b>73</b>
3.1. O'qituvchining darsni tayyorlash va o'tkazishdagi mahorati.....	73
3.2. O'qitish jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishda pedagogik mahorat.....	90
3.3. O'quv - tarbiya ishlarini boshharishda o'qituvchining notiqlik mahorati.....	110
<b>IV. BOB. TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORAT.....</b>	<b>119</b>
4.1. Tarbiyachi mahorati.....	119
4.2. Tarbiyaviy ish jarayonida tarbiyachining o'z ruhiy holatini tartibga solish mahorati.....	124
4.3. Sinfda o'quv - tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishda tarbiyachi mahorati.....	130
4.4. Tarbiyachi - murabbiyining faoliyat mahorati va pedagogik odobi.....	137
<b>O'QITUVCHI UCHUN USLUBIY TAVSIYALAR.....</b>	<b>144</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>150</b>
<b>IZOHLI LUG'AT.....</b>	<b>151</b>
<b>ADABIYOTLAR.....</b>	<b>164</b>



## KIRISH

Milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish sharoitida respublikamizning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy - madaniy va ma`naviy hayotida ro`y berayotgan hodisalar, uni jahon hamjihatligiga tezkor kirishini, hamda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida olib borayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda. Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri mamlakat mehnatkashlarining, xususan yoshlar ta`lim - tarbiyasi bilan shug`ullanuvchilarning kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug`dirdi. Zero, bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko`payishi, rivojlanishi, ilmiy - texnikaviy taraqqiyotning jadallahuviga, mavjud pedagogik - psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma`lum darajada "eskirishi"ga olib keldi va bu o`z navbatida pedagogik mehnat bilan shug`ullanuvchilarning kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko`proq haratish lozimligini taqozo etdi. Bu e'tibor va talabni amalga oshirishning muhim omillaridan biri, kasbiy mahoratni takomillashtirish texnologiyasini joriy etish. Buning uchun esa kasbiy pedagogik tayyorgarlik, ta`lim yo`nalishida pedagogik mahorat asoslari fanini o`qitishni mukammallashtirish demakdir.

"Pedagogik mahorat" fani bo`lajak pedagoglarda kasbiy mohirlik, ijod, ko`nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o`qituvchilik, tarbiyachilik mahoratining dastlabki malakalarini tarkib toplishni asosiy maqsad qilib belgilaydi.

"Pedagogik mahorat" fanini o`rganish jarayonida talabalar pedagogik kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg`or pedagogik tajribalarni mustaqil o`zlashtirishga o`rgatiladilar. O`hish, o`qitish, tarbiyalash jarayonida diqqatlarini aniq taqsimlash, bilim, ko`nikmalari, psixik holatlarini boshhara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o`zlashtirish malakalarini shakllantirishga e'tibor haratilmog'i darkor.

Albatta, bu malakalarni shakllantirishda uzlusiz ta`lim tizimining turlari, ayniqsa, oliv ta`lim muassasalarining o`rnı beqiyos. Chunonchi, ushbu ilm dargohida bilim olib, egallanajak kasb-korga tayyorlanayotgan har bir mutaxassis nasaqat o`z ixtisosligi bo`yicha ma`lumotlarga ega bo`ladi, balki pedagogik - psixologik tayyorgarlikni qo`lga kiritib, ma`naviy va jismoniy jihatdan kamol topadi, ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotda faol ishtirokchi bo`lib voyaga yetadi. O`zining aql - zakovati, ilmiy salohiyati, ma`naviyati, madaniyati bilan milliy istiqlol g`oyalarini mustahkamlashda, ozod va obod Vatanni qurishda yonib yashaydigan shaxs bo`lib shakllanadi va ta`lim isloqotlari hujjatlarida belgilangan vazifalarini bajarishga o`z hissasini qo`shadi.

Shunday qilib, insonning ma`naviy yuksalishi, hayotiy tajribasi, bilimi, hatti - harakati, odob - axloqi, kasb mahorati, uning mazmundorligi va niroyat uni qanchalik takomillashtirib borishi bilan farqlanib turadi.

Darhaqiqat, biz hayotda bir xil gurunchdan turli ko`rinish va ta`mdagi palov pishiruvchi oshpazlarni, bir xil undan turli ko`rinish va ta`mga ega bo`lgan non tayyorlaydigan nonvoylarni ko`p uchratamiz. Doimo mazali va shirin taom

pishiruvchi oshpaz, mazali va yumshoqqina non pishiruvchi nonvoy mahsulotlarini tanovvul qilishga, kiyimlar tikuvchi ustalarga murojaat etishga intilishimiz ko'pchilikka sir emas. Bu intilishning mazmunida kasb mahorati, mehnat unumdorligi va mohirlig yotadi. Binobarin qadimgi yunon faylasufi Falesga "qanday inson baxtli insondir?", - deb savol bergenlarida, u: "...tanasi sog'lom, ko'ngli xotirjam va qobiliyatli, mohirligi bor odam baxtlidir", - deb javob bergen ekan.

Demak, inson faoliyatining ko'lami keng, anglash, tushunish, qo'llay olish malakasi serqirra va mahoratlari inson baxtli ekan, avvalo, uning mohirligini takomillashtirish uchun kasbiy mahoratni tarbiyalashni to'g'ri tashkil etmoq talab qilinadi. Shuningdek, eramizdan oldingi 551 - 479 yillarda yashab o'tgan Xitoy faylasufi va davlat arbobi Konfutsiy ham "**Men eshitaman va men esdan chiharaman. Men ko'raman va men eslab holaman. Men bajaraman va men tushunaman!!!**" deganida, mahoratni, bajarish mahoratini nazarda tutgan edi.

Ma'lumki, umumi mehnat bilan kasb ixtisosligi o'tasida bevosita bog'liqlik mavjud. Chinakam kasbiy mohirlilik darajasi shaxsning umumi rivojlanishi bilan to'g'ridan - to'g'ri bog'liqlikda, aloqada bo'ladi. Zero, kasbni aniq tanlash, unga bo'lgan qizihishni orttirish, mahoratlari bo'lismi uyg'otadi. Mahoratli kasb egasining ma'naviy dunyosi boy, ishlash qobiliyati teran bo'ladi va u o'z kasbi yordamida o'ziga ham, boshqalarga ham katta foyda keltiradi. Shuning uchun kasbiy mahoratni shakllantirish, tarbiyalashga va nihoyat uni takomillashtirishga intilish, uni kerakli ma'lumotlar, axborot(bilim)lar, malakalar bilan to'ldirib borish shu kunning, holaversa ta'lif islohotlarining dolzarb masalasidir.

Mazkur masalaning dolzarbligini pedagogik nazariya va tajriba yana quyidagi holat bilan isbotlaydi: pedagogik izlanish, ta'limiy o'hish, o'qitishning me'yoriy hujjalari, darsliklar, qo'llanmalar, axborot vositalari, qanchalik mukammallahgan bo'lmasin, pedagogik amaliyat, ta'lim - tarbiya ishlariinr muvaffaqiyati oxir oqibatda pedagog shaxsiga, uning kasb - kor mahoratiga bog'liq. Ehtimol, shu nuqtai - nazardan ham Respublika Prezidenti Oliy majlisining birinchi chaqiriq to'qqizinchisi sessiyadari "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusidagi ma'ruzasida "Tarbiyachilarining o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumoti, malakasini oshirish (Ta'kid bizniki) kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim - tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. O'qituvchi talabalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak" - deb ta'kidlagani beziz emas. Shuning uchun ham bugungi kunda "... domlalarning saviyasi va bilimini oshirishga shart - sharoit tug'dirishimiz kerak. Domlalar, professorlar, kafedra mudirlari o'z ustida ishlamasalar, o'z sohasi bo'yicha chet mamlakatlarga ilmiy safarga borib kelmasa, tajriba almashmasa, albatta, bunday ahvol o'quv jarayoniga va uning samarasiga salbiy ta'sir qiladi....Ular chet ellarda malakasini oshirsin, dong'i chiqqan universitetlarda o'zlarini lektsiya o'hisin, tajriba orttirsin, mana shundan keyin O'zbekistonning obro'yi - nomi olamga ovoza bo'ladi, inshoolloh".

Bu haqiqat pedagoglarning kasbiy mahoratini shakllantirishning ilmiy - nazariy va amaliy asoslarini ishlab chihish, kasbiy pedagogik ta'lim yo'naliishida "**Pedagogik**

mahorat" fanini o'qitishni yanada yuksaltirish, uning samaradorligini oshirishga e'tiborni yana bir marta haratishga da'vat etadi.

Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy - nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, ko'nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash albatta oson ish emas. O'hishga ilmiy, ongli munosabat bilan haraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallahga ehtiyojli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish - muhim va davlat ahamiyatidagi vazifadir.

Buning uchun:

1. Pedagogik ishning mohiri bo'lishga intiluvchan, ya'ni kasbiy faoliyatning pedagogik yo'nalishlarini aniq belgilay oladigan shaxs bo'lish lozim. Shunga asosan O'quv qo'llanmaning biringchi bobida pedagogik mahoratning nazariy - metodologik asoslari, mohiyati, mazmuni, funktsiyasi, tarkibiy hismlari, ularning vazifalarini ochib berishga hharakat qilindi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, pedagogik mahorat asoslarining zamonaviy pedagogikaning ilg'or ideallari zaminida shaxsga insonparvarlik nuqtai - nazaridan yondoshish imkonini beradi.
2. Pedagogik mahorat - bu pedagogik jarayonni aniq tashkil qilish. boshharish, kutilayotgan natijalarni oldindan loyihalash va uni ro'yobga chiharish texnologiyasi, shuningdek, pedagogik jarayonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf etish uchun tayyor bo'lish metodikasidir. O'quv qo'llanmaning ikkinchi bobida mana shu masalalar to'g'risida so'z yuritilib, pedagogning o'quv - tarbiya jarayonidagi mahorati, ijodkorligi, tamoyilliligi, o'z hissiyotlarini tartibga solish yo'llari haqida so'z yuritiladi.
3. Pedagogik faoliyatning mohir ustasi bo'lish - bu, ilg'or tajribalarning hayotiyligi, davr bilan hamnafasligi, aniq tavsiyalarni belgilash va ularni takomillashtirish yoki rad etish demakdir. Shunga ko'ra o'quv qo'llanmaning uchinchi bobida o'quv - tarbiya jarayonini boshharish va buning uchun pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish, o'z - o'zini tarbiyalash, shaxsiy pedagogik tajriba toplash, umumlashtirish, pedagogning innovatsion faoliyatini shakkantirish texnologiyalari xususida fikr yuritiladi.

O'quv qo'llanmada talaba - yoshlarning "Pedagogika", "Pedagogik texnologiya", "Psixologiya", "Tarbiyaviy ish metodikasi", "Pedagogik etika" fanlaridan oлган ma'lumotlariga tayaniladi va ularni takomillashtirish to'g'risida so'z yuritilib, mazkur fanlardan olingan bilimlarni chuqurlashtirishga. amaliy yo'nalishini mukammallashtirishga e'tibor haratilib, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining "Pedagogika va psixologiya" yo'nalishida tahsil olayotgan mutaxassislar, bo'lajak o'qituvchi va murabbiylarning kasbiy - pedagogik tayyorgarligini oshirishga e'tibor haratiladi .

## I. BOB. PEDAGOGIK MAHORATNING NAZARIY - METODOLOGIK ASOSLARI.

### 1.1. "Pedagogik mahorat" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va nazariy - metodologik asoslari.

O'z - o'zini el ishiga bag'ishlagan,  
inson tarbiyasiga jonini tikkan  
oliyjanob o'qituvchilarini, mo``tabap  
muallimlarni bundan buyon ham  
boshimizga ko'taramiz.

J.A. Karimov.

Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek: "Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishni" - istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlар та'lim - tarbiysi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshharuvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini talab etmoqda. Chunonchi, mustaqillik sharoitida mamlakatda ta'lim tiziminинг yangilanishi, u o'z navbatida ta'lim - tarbiya mazmunining yangilanishiga olib keldi, natijada o'qitish va tarbiyalashning shakli, usullari, vositalari majmui, o'zbekona ko'rinish kasb etdi hamda milliy urf - odatlarning o'quv - tarbiya jarayoniga faol kirib borishi amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar har bir o'qituvchi - tarbiyachini yangicha fikrlashga, sharqona ish yuritishga, tadbirkorlik, ishbilarmonlik asosida ish yuritish hamda ma'naviy - ma'rifiy ishlarning faol ishtirokchisi bo'lishga da`vat etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda har davrdagidan ham ko'proq pedagogika fani oldida yangicha fikr yuritadigan yuksak ma'naviy - axloqiy salohiyat, aqliy zakovatga ega bo'lgan o'qituvchi - tarbiyachini tayyorlash, uning kasb mahorati va malakasini uzlusiz takomillashtirish uchun ta'lim va tarbiyaning zamonaviy mazmun, shakl, usul hamda vositalarini ishlab chihish muammosi dolbzarblashmoqda.

Darhaqiqat, barcha kasb - korlar tizimida o'qituvchilik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh qalblar kamolotining me'moridir. Bugun u yoshlarni g'oyaviy - siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o'rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb - hunar egallashlariga ko'maklashishi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy - iqtisodiy vazifani hal etishga chog'lamog'i darkor. Ana shu ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchi - yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qizilishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun pedagogik mahorat fani o'qituvchidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish uchun, unga turli shart - sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy - metodik yordam ko'rsatishi hamda o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko'maklashadi. Bu pedagogik mahorat fanining muhim vazifalaridan biridir.

Ma'lumki, har bir fan mustaqil o'quv maqsadi, mazmuni va o'zining o'rGANISH mavzusi (predmeti) va metodiga ega. Zero, o'quv fanining mavzusi u o'rGANADIGAN, tadqiq qiladigan masalalarning majmuidir. Shunga asosan, "Pedagogik mahorat" fani, o'qituvchi - tarbiyachining kasbiy faoliyati, mohirligini o'rganuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar beruvchi fan hisoblanadi. Pedagogik mahoratning mohiyat - mazmunini, kasb malakalarini shakllantirish va rivojlantirishning yo'llari, vositalari, shakllari tashkil etadi. Chunonchi, pedagogik mahorat mazmunidan o'qituvchi - tarbiyachiga pedagogik ijodi, pedagogik texnikasi, ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etish qobiliyati o'qituvchi - talaba hamkorligi, muomalasi, kasb madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish madaniyati va uni amalga oshirishi va bu jarayonda o'z xulq - atvorini, hissiyotini tartibga solish va rivojlantirish kabi masalalar o'rIN olgan. Shuningdek, mazkur fan tarkibida mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o'quv - tarbiya jarayonini boshharish hamda unga rahbarlik qilish, pedagogik - psixologik ta'limot nuqtai - nazaridan yondoshish, ta'lim - tarbiyani modellashtirish, o'quv - tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish to'qrisidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtiruvchi ish tizimlari mujassamlashgan.

Qo'llanmaning kirish himsida ta'kidlaganidek, "Pedagogik mahorat" fani, bo'lajak pedagoglarga kasb-kor malakalari va mohirligini egallash va shaxsiy mahoratni shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, pedagogik mahoratning, ko'nikma, malakalarini qo'rga kiritish uchun, pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokatni egallash to'qrisida atroficha ma'lumot berishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun o'quv predmeti oldida quyidagi vazifalarni yechish bosh masala qilib qo'yilgan:

1. Talaba yoshlarni pedagogik mahoratning nazariy - metodologik asoslari bilan qurollantirish.
2. Bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarga pedagogik mahoratning pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, pedagogik nazokat tarkibiy hismlari, pedagogik jarayonda tarbiyachi mahorati, o'quv - tarbiya jarayonini boshharishda pedagogik mahorat, pedagogik odob, pedagogik ijod kabi masalalari to'qrisidagi bilimlar tizimi bo'yicha tushuncha berish.
3. Pedagogik mahoratni mustaqil egallashga ehtiyoj va havasni uyg'otish.
4. Egallangan pedagogik - psixologik va metodik bilimlarini, ko'nikma va malakalarga aylantirish uchun har bir talabada shaxsiy pedagogik mahoratni shakllantirish.
5. O'quv - tarbiya jarayonini tashkil etish, boshharish va amalga oshirishning nazariy - amaliy asoslari bilan talabalarni yaqindan tanishtirish.
6. O'z kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida talabalarga shaxsiy - ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari haqida tasavvurlar qosil qilish.
7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funktsiyasi, tuzilishi to'qrisida talabalarga ma'lumot berish.

Bu maqsad va vazifalar o'qituvchi - tarbiyachini zamon bilan hamnasas bo'lish, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'rishga

o'rgatadi, har bir pedagog shaxsida jamiyatning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini tasavvur qilish, ularni vijdon elagidan o'tkazib, aniq bajarish uchun bor imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga yo'llaydi hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondoshish malakalarini qosil qiladi.

SHunday qilib, pedagogik mahorat fanining maqsad va vazifalarini to'la amalga oshirish uchun, avvalo, pedagogik mahorat tushunchasining mohiyat-mazmunini bilish, uning barcha komponentlari to'qrisida ma'lumotga ega bo'lib, ularning birligi, izchilligini ta'minlash lozim. CHunki ularning birini o'zgarishi, tabiiy holda ikkinchisining o'zgarishiga olib keladi. Natijada pedagogik mahorat to'laqonli mazmunga ega bo'lmay, uni egallash qiyin bo'lib holishi mumkin.

Xo'sh pedagogik mahoratning o'zi nima? Uni qanday egallash mumkin? **Pedagogik mahorat** - bu o'qituvchi - tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditisiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatku, u o'z o'quv sanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik - psixologik va metodik tayyorgarligida, talaba - yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlanadirishning optimal yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo'llashida namoyon bo'ladi.

SHunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini mukammal o'zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma'naviy - axloqiy fazilatlarni o'zida tarkib toptirishi lozim.


SHuni alohida qayd qilib o'tmoq zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va ma'suliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafiligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa, aqliy, ruqiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. SHuning uchun, o'quvchi bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik - psixologik va metodik tayyorgarlikni ta'minlaydi.

Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo'nga qo'yib, bo'lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi. SHuning uchun, pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi lozim. Pedagogning shaxsiy fazilatlari sirasiga imyon - e'tiqodi, dunyoharashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob - axloqi, fuharolik burchlarini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va h.k.lar kiradi. Bular o'qituvchiga kasbiy xususiyatlarni o'zida tarbiyalab borishga ko'maklashadi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan va pedagogik mahoratga berilgan ta'rif, hamda o'qituvchi-tarbiyachining professiogrammasi xususiyatlari va o'qituvchiga qo'yiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy talablardan kelib chiqib pedagogika

nazariyasi pedagogik mahoratni quyidagi asosiy komponent (tarkibiy hismlari)lardan iborat bo'lishi lozimligini ifodalaydi. (1.1 jadvalga harang).

### 1.1-jadval. Pedagogik mahoratning tarkibiy hismlari



Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda o'qituvchi-tarbiyachi(pedagog)ning kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi. Zero, pedagogik texnika - o'qitish, ta'sir ko'rsatish, ta'lif tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyqlari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalasa, pedagogik muomala - o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, ta'lif - tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o'zarlo ta'sir va hamkorligini aks ettiradi.

**Pedagogik ijod** - o'qituvchining mahorat pilapoyalaridan ko'tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo`lni, bu yo`ldagi qiyinchiliklardan qo'rmaslikni anglatadi. O'z navbatida bu soqada o'qituvchining pedagogik qobiliyatni ham muqim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda o'qituvchining aqliy, emotsional - irodaviy jihatlarini, tashkilotchilagini, bilimdonligini va ularning bir-biriga boqliqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat o'qituvchi-tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, o'qituvchining talabchanligi, adulati, komilligi, rostgo'yligi, to'qriligini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt) - o'qituvchining pedagogik maqsadga muvosiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yori va ta'sir vositasining chegarasi sisatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy hismlari o'qituvchining kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni moqirlik sari etaklaydi va o'qituvchi - tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, o'z kasbining moqir ustosi bo'lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish

tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o'ylash, pedagogik ish tutish lozim bo'ladi. Bu deganimiz, o'z faoliyatini pedagogik qodisalarни, vaziyatlarni taqlil qilish, ularning har bir boqlanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarни mustaqil ravishda taqlil qilishi va yangi ta'llim-tarbiyaga doir qoyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo'ladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni qal etishning eng qulay yo'llarini topish ustida o'ylash ham kerak.

Pedagogik mahorat tizimida uning asosiy komponentlарidan tashhari kasbiy xususiyatlar ham mavjud. Pedagoging kasbiy xususiyatlariga: o'z kasbini, talabalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik saloqiyati, tasavvuri, iqtidori, tashkilotchiligi, chuqur va keng ilmiy savyysi, kasbiy layoqatlligi, ma'naviy ehtiyoji va qizihishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga intilishi va boshqa fazilatları kiradi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib, kasbiy pedagogik mahoratni muayyan tayyorgarlik jarayonlaridan iborat deb aytish mumkin. Bu tayyorgarlikni shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

- 1) pedagogning shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
- 2) pedagogning ruqiy - pedagogik tayyorgarligi;
- 3) pedagogning ijtimoiy - pedagogik va ilmiy - nazariy tayyorgarligi;
- 4) pedagogning maxsus va ixtisosga oid uslubiy tayyorgarligi.

Ta'rifda qayd etilganidek pedagogik mahorat - o'qituvchi - tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari yiqindisi xisoblanib, u pedagogik - psixologik, metodik bilimlar majmuasidan iborat bo'ladi. Buning uchun, avvalo:

- a) ixtisoslik bo'yicha zamон, ilm - fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal ma'lumotga ega bo'lishi, o'z o'quv fanining keishadigan o'quv fanlari bilan boqliqligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;
- b) o'quv - tarbiya jarayonini aniq tashkil qila olish va buning uchun muayyan pedagogik - psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lishi;
- v) talabani, jamoani "ko'ra bilish", ularning qizihishi, intilishlarini tushuna olish va o'quvchilar faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va ularni o'z vaqtida anglay olish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini anglay bilish hamda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lish;
- g) o'z shaxsiy sifatlari (madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va q.k.) ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lish kerak.

Mustaqil Respublikamizning o'qituvchisi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da qayd etilganidek yuksak ma'naviy - axloqiy fazilat, xulq madaniyati va milliy istiqlol masjurasi mukammal egallashi kerak bo'ladi. Zero, o'qituvchi - tarbiyachi yuksak ma'naviyat, axloq - odob, xulq madaniyatiga ega bo'lsadagina, talabalarga insoniy nuqtai - nazardan meqribon, saxovatli bo'la oladi, uni hamma qurmat qiladi. Buning uchun aql - zakovatli, saxiy, qat'iy, irodali, ko'ngli ochiq bo'lishi, o'ziga va talabalarga nisbatan talabchan, meqribon va xayrixoq, o'z shaxsiga tanqidiy nuqtai nazardan yondasha oladigan bo'lishi talab etiladi.

SHu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki, pedagogik mahorat o'qituvchi - tarbiyachi kasbiy va shaxsiy fazilati to'qrisidagi fan sifatida ma'lum metodologik asosga ega. Darhaqiqat, o'qituvchi kasbiy mahoratini shakllanirishning ilmiy - nazariy, metodologik va amaliy yo'nalishlari Yu.P. Azarov, T.I. Gonobolin, A.K. Kuzmina, O.A. Abdulina, A.V. Mudrik, N.V. Kuxarev, V.A. Selastyonin, V.A. Kan - Kalik, N.D. Nikandrov, A.V. Petrovskiy, Umar az Zamashshariy, Burxoniddin Zarnudjij, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Yusuf Xos qojib, Alisher Navoiy, M.Ochilov, K.Zaripov, V.A. Krutetskiy, J.G. Yo'ldoshev, Ə. qoziev, U. Maqhamov, B. Xo'jaev va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan. Ularning ta'kidlashlaricha, o'qituvchi o'z fanining bilimdoni bo'lishi bilan birga, insonparvar, adolatli bo'lishi, milliy tarbiya tarqibotchisi hamda komil inson sifatida o'zida shaxsiy - kasbiy sifatlarni tarkib topdirgan kasb egasi bo'lishi lozim.

Ijtimoiy qiymat va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy psixologik qodisalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hozirgi davr bilan uyqunlashtirish hamda ajdodlar bilan avlodlar vorisligini o'rnatish faqatgina shu kasb egalari yordamida amalga oshiriladi.

Mashqur Naqshband tariqatida shunday qikmat bor "... Adab bu xulqni chiroyli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. Xizmat odobi uluq baxtdan yaxshiroq, uning belgisi amalning qabuli, tuqyon esa amalning buzuqligidir. Adabni saqlash - muqabbat samarasi, yana muqabbat daraxti, yana muqabbat uruqi hamdir".

Yurtdoshimiz Abu Nasr Forobi "Fozil shahar kishilarining axloqiy harashlari", "Ruh madaniyat haqida risola" kabi tarbiyaviy qudratga ega bo'lgan pedagogik asarlarni holdirgan alloma hisoblanadi. U: "... . Tabiiy boqlanqichlar ta'siri ostida komil insonga aylanishgina kisoya qilmaydi, chunki, inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash va kasb hunarga muqtojdir", - deganida qaq edi. SHuningdek, jaqon fani va madaniyatiga o'zining boy ilmiy merosi, ko'p qirrali ilmiy faoliyati bilan ma'lum va mashqur bo'lgan Abu Rayhon Beruniyning ijodida ham insonning ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan. U "O'quvchini hamma narsaga o'rgatish" nomli risolasida, ustoz shogirdni san'atga, tabiat ko'rsatmalariga asoslanishga, uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi lozim deb, ta'kidlagan. Ibn Sino "Tib qonunlari" asarining birinchi kitobida yoshlar ta'lim-tarbiyasida alohida guruhlar bilan suqbat usulini tavsiya qiladi. Ibn Sino shu va shunga o'xshash usullar haqida fikr yuritar ekan o'qituvchilik - tarbiyachilik kasbining imkoniyatlarini ochib beradi.

O'qituvchilik kasbining pedagogik, psixologik qirralarini tadqiq qilgan F.N. Gonobolin o'zining "O'qituvchi haqida hissa" risolasida o'qituvchi Vera Aleksandrovna Raush noimidan fikr yuriitib mahoratli o'qituvchini quyidagicha ta'riflaydi. "Menimcha yaxshi o'qituvchi bo'lib etishish uchun енг avval qaqiqiy hayot kechirish, muayyan maqsadga yo'naltirilgan, to'la qonli hayotga intilish kerak. Tabiatni o'rganib, uning qonuniyatlarini kuzatib borish, kitob mutoala qilish, musiqa tinglash, teatrarga borish, sayyoqatga chihish singari ishlar bilan shuqullanish kerak. Keyinchalik boshqalarga ulashish uchun pedagogning qalbi juda ko'p narsani o'zida singdirishi zarur. SHuning uchun men uzlusiz ravishda kitobga murojaat qilaman, tabiatdan o'rganaman, doimo o'qiyman, astoydil o'qiyman."

Demak, o'z kasbining moqir egasi bo'lish uchun o'qituvchi muntazam o'z ustida ishlashi, tabiatdan, san'atdan, hayotdan, fandan baqra olib, rivojlanib, mukammallashib borgandagina maqsadga erishadi. Inson psixologiyasining moqir ustasi F.N. Gonobolin ta'kidlaganidek, o'qituvchi o'zining butun kuch - quvvatini, irodasini, bilimini, o'zida bor hamma yaxshi narsalarini o'z shogirdlariga, xalqqa beradi. Ammo, u o'zida bor narsalarning hammاسini bugun, ertaga, indinga bersa-yu, o'z bilimini, kuchini, quvvatini yana va yana to'ldirib bormasa, u holda o'zida qech narsa holmaydi. O'qituvchi bir tomonдан o'zida borini berishi, ikkinchi tomonдан bulut singari, hayotdan, fandan, nimaiki yaxshi narsalar bo'lsa olishga odatlanmoqi, xalqning eng ilqor kishilari bilan hamkorlikda ishlamoqi lozim. Ana shunday bo'lganda, u o'z talabalariga qancha ko'p narsa bermasin, agar xalqdan, hayotdan, fandan oziqlanib, eng yaxshi xislatlarni o'qiy olsa, u holda, unda o'z talabalari uchun bunday rizqli shiralar hamisha ortiqi bilan mavjud bo'ladi. .

Binobarin, buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining muntazam ravishda fan bilan shuqullanishi haqida gapirib, shunday yozgan edi:- "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shuqullanmoqi lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab holadi. qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bu o'qituvchidan qech natija kutib bo'lmaydi".

Hozirgi fan va texnika jadal ravishda rivojlanayotgan, axborotlar keskin oshib borayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini tarbiyalash muqim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror soqasida ro'y berayotgan yirik kashfiyot hariyib o'n, o'n besh yillik samarali va kishi zo'rqa ishonadigan voqeа hisoblangan bo'lsa, hozirgi vaqida har yili, qatto har oy ichida fan, texnika soqasida shunday yangi - yangi kashfiyotlar ro'y bermoqdaki, bilimlarning ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqdaki, buning uchun har bir kasb egasi, jumladan o'qituvchi o'z mahorati ustida muntazam ishslash kerak bo'ladi. Kishilarda, eng avval yoshlarda, bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib borayotir. SHuning uchun hozir o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan soqalardagi yangiliklarni bilishi ham lozim bo'ladi. CHunki, adabiyot darslarida talabalarni - nisbiylik nazariyasi, molekulyar biologiya, kibernetikaga doir masalalar qiziqtirib holadi. qiziquvchan o'quvchi - yoshlarni fanning bu soqalari bo'yicha savollariga javob bera oladigan o'qituvchigina ularning sevimli o'qituvchisi bo'la oladi. Buning uchun mahorat zarusi. SHunday vaqtarda o'qituvchi va yosh o'qituvchilarga: "Izlaning, o'qing, iloji boricha yana ko'proq o'qing!", deging keladi. Fikrimizcha, badiiy adabiyotni eterli o'qimagan o'qituvchi tarixdan, fizikadan, matematikadan yaxshi dars bera olmaydi.

O'qituvchi faoliyatining pedagogik qobiliyatlar tizimida tadqiq qilgan N.V. Kuzmina shunday yozadi: - "Ta'lif - tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi - tarbiyachining pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishini yaxshi bilmaslik, iste'dodning o'qituvchida yo'qligidir".

O'qituvchilik ishi uchun iste'dod zarurmiq Uning o'zi nima va u qanday paydo bo'ladiq Iste'dod - insonning muayyan bir faoliyat turi bilan shuqullanib, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatidip. Faoliyatga intilish har bir kishida juda barvaqt paydo bo'ladi va hayot davomida takomillashib boradi, insonga qonihish,

mammuniyat bahishlab, kasbning qaqiqiy egasi va maftunkori bo'lishga zamin yaratadi. Iste'dodning faoliyatga bo'lgan yo'nalishi uchun motiv va maqsad zarur. Zero, iste'dod motiv va maqsad asosida shakllanadi. Motiv - insonni harakatga, intilishga undovchi holat. Maqsad esa ana shu harakat, intilish orqali erishilgan natijadir.

Motiv inson ehtiyojlari bilan boqliq bo'ladi. Əqtijoj motivning paydo bo'lishi uchun turtkidir. Ma'lumki, motivlar ehtiyojni ro'yobga chiharishga ko'mak bo'ladi. Əhtiyojlar moddiy, ma'naviy, madaniy (san'atga bo'lgan ehtiyoj) va mehnatga bo'lgan ehtiyojlar kabi turlarga ajratiladi. Mehnat ehtiyoji ma'lum faoliyat yuzasidan iste'dodni namoyish qilishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Muayyan mehnatga bo'lgan ehtiyoj asosida tarkib topgan motiv insonni o'z oldiga aniq maqsad qo'yish va unga intilishini ta'minlaydi. Masalan, o'qituvchilik kasbiga bo'lgan ehtiyoj, uni talabalar bilan ishlash uchun, muayyan ma'lumotlarni egallah maqsadi sari etaklaydi. O'qituvchi faoliyatining maqsadi shu kasb uchun zarur bo'lgan ilmiy-nazariy, amaliy - metodik, ma'lumotlarni egallah motiviga asoslanadi. Motiv, maqsad o'qituvchini mahorat sari etaklaydi.

Pedagogik mahoratni tarbiyalashning ilmiy - nazariy asoslari yana bir rus pedagogi V.A Slastyonin tomonidan tadqiq qilingan. Kasbiy - pedagogik tayyorgarlik jarayonida o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanishi yo'nalishidagi ilmiy maholalarida V.A. Slastyonin pedagogik mahorat to'grisida so'z yuritib, shunday yozadi: - "O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. CHunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar - taraqqiyotning umumiyligini qonuniyatlarini, tamoyillarini, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir. Amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat - falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezisiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul". Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lib, pedagogik amaliyotni to'qri va maqsadli tashkil qilish uchun ilmiy - nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish talab qilinar ekan, o'qituvchi doimo uni qo'lga kiritishga harakat qilmoqi darkor.

Pedagogik mahoratning ilmiy - nazariy asoslарини о'qituvchilar malakasini oshirish tizimida tadqiq qilgan pedagog K. Zaripov, kasbiy pedagogik mahoratning mazmunini "Ilqor pedagog", "Ijodkor o'qituvchi", "Novator pedagog" kesimida ko'rib chiqadi va ularning mazmun-mohiyatini shunday ta'riflaydi. "Ilqor pedagog" avvalo boshqa o'qituvchilarga haraganda o'z ishiga ma'suliyat bilan haraydi. SHu soqadagi ijobjiy tajribalarni o'rganib, o'z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashhari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. SHu orqali u o'qituvchilarning ta'lim va tarbiyasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

"Novator pedagog", bizningcha, o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. SHu bilan birga novator o'qituvchilarda ilmiy taqlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan haray bilish xususiyatlari ham bo'ladi. ularning ko'pchiligidagi qoyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigah sharoitlarda ham o'z ishlaringning to'qri ekanligiga ishonch bo'ladi.

"Ijodkor o'qituvchi"da ham "Ilqor pedagog"dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilqor pedagog mavjud manbalarni o'rghanib, shular asosida ta'lif - tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan haraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l - yo'rqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariha harab mavjud tartiblardan farqli metodik usullardan foydalanadi".

Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilqorlikni, ham novatorlikni (bunyodkorlikni), ham ijodkorlikni (tadqiqotchilikni) tarbiyalashi lozim.

O'qituvchi pedagogik mahoratini "O'qituvchining axloqiy shakllanishi" yo'nalishida tadqiq qilgan professor M. Ochilov pedagogik mahoratni egallashning muqim asosi axloq deb ta'kidlab, kasb axloqini shunday ta'riflaydi "Faoliyatning ma'lum bir soqasi bilan shuqullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. har bir jamiyatda qukmiron bo'lgan axloq bilan kasb axloqi o'tasida ma'lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylig bilan xususiylik o'tasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o'zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi".

Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muqim o'rin tutadi. O'qituvchi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtai - nazardan yondoshilganda, professor M. Ochilovning so'zları, o'qituvchi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamoqangdir.

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbiy fazilatlarining o'zaro boqliqligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'qrisida bildirilgan fikrlar misolida ham ko'rdik. Shuningdek, pedagog ixtisosligining ko'pgina xususiyatlari M. Kuronov, B. Muranov va M.Ochilovlar tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchi professiogrammasida o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, M.quronov, B. Muranovlarning o'qituvchi professiogrammasi asosan, o'qituvchini shaxsiy va kasbiy sifatlari, uning insoniy fazilatlari, bilimi, tashkilotchiligi, konstruktiv, gnostik, kommunikativ malakalari, amaliy ko'nikmalari tarzida izoqlanagan.

hususan, shaxsiy sifatlari tizimida: milliy mafkuraviy ongjilik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik va q.k.lar kabi fazilatlar misolida ifodalangan bo'lsa, kasbiy sifatlari tizimida: pedagogik ziyraklik, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining mohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining besh tamoyilini, ma'naviy - axloqiy yangilanishning negizlarini bilishi, milliy tarbiyaning mohiyati va mazmunini chuqr anglashi, mukammal ilmiy-nazariy saloqiyat, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlariidan

xabardorlik, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, O'zbekiston qukumatining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlar, urs - odatlarini yaxshi anglash, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va q.k. tarzida o'z echimini topgan .

Bo'lajak pedagoglarda qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatga tayyorlovchi yuqorida shaxsiy va kasbiy sifatlarga ega qilish, uning pedagogik mahoratini tarkib toptirishdir. Bu kadrlar tayyorlashning milliy dasturi talablarini bajarishga amaliy ko'rsatmadir.

## 1.2. Pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirish

Bilimni go'zal tarzda  
o'qitish - iloqiy san'at!

A.Frans


O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirish uchun, avvalo, pedagogik ishlari ilmiy asosda tashkil qilish lozim. Buning uchun o'qituvchining istak va qizihishlarini hisobga olish, uning intilishi va boshqa tashqi omillarini bir - biriga uyqunlashtirib, kasbi va shaxsining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faolligini oshirishni nazarda tutish kerak. Bu hol tinmay izlanishlar, kuzatishlar, tajribalarni o'rganish, taqlil qilish va xulosalar chiharish lozimligini talab qiladi. Ilmiy pedagogik ta'lilot, o'tmish ajdodlarimizning tajribasi va ta'lrim muassasasining amaliy faoliyati shundan dalolat bermoqdaki, kasbiy moqirlilik, muntazam ilm olish bilan shuqullanish, mashq qilish, takrorlash, xulosalar chiharish, chiharilgan xulosalar asosida ish olib borish orqali qo'lga kiritiladi... Pedagogik mahorat avvalo falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik bilimlar, o'quv predmeti bo'yicha keng va chuqur ma'lumotlarga ega bo'lish va ularni takomillashtirib borish orqali shakllanadi. Milliy Mustaqillik, "Ta'lrim to'qrисida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'lim - tarbiya jarayonining tashkilotchisi va ijrochisi, o'qituvchida kasb mahoratini tarbiyalash, ta'lim muassasasida ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirishning muqim sharti ekanligini ta'kidlar ekan, avvalo, o'qituvchilar kasb mahoratini shakllantirish - bu pedagogik jarayonning muqim tarkibiy hismi deb haralishi lozimligini alohida e'tirof etadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi - tarbiyachi pedagogik mahoratining shakllanishiga muayyan tarzda ta'sir etuvchi omillar mavjud. Bu omillarni e'tiborga olmaslik kasbiy pedagogik moqirlilikning tarkib topishini qiyinlashtiradi. Ularni inobatga olish esa o'qituvchi mahoratining pedagogik va psixologik funktsiyalarini rivojlanishini, uning madaniy - tarixiy xususiyatini oshirishini ta'minlaydi. Pedagogik nazariya va amaliy faoliyat natijalariga ko'ra o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillari mavjud bo'lib, ulardan eng muqimlari sisatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; "Ta'lim to'qrисida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", nazariy-usuliy bilimlar; ixtisos fanlari va pedagogik faoliyat; pedagogik turkum fanlar; psixologik muqit; madaniy-tarixiy

an'analar; urf - odatlar; diniy qadriyatlar; siyosiy voqealar; pedagogning intelektual saloqiyati, axborot - kommunikativ vositalar.

Ularni umumlashtirgan holda quyidagi jadvalda o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni keltiramiz (1.2. jadval), harang, jadvalda keltirilgan unsurlar pedagogik mahoratni shakllantirish, mustaqallik yo'lidan dadil odimlab, fuharolik jamiyatini qurishga intilayotgan mamlakat o'qituvchisini faol mehnatga tayyorlab, uning uzlusiz mahoratini oshirish ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy nazariy, amaliy -usuliy tayyorgarligini oshirish, jamiyatda, atrof-muqitda sodir bo'layotgan voqe-qodisalarga ongli munosabatini tarkib toptirish, har bir o'qituvchining individual ijodiy qobiliyatlarini mustaqkamlash uchun omil bo'lib qizmat qiladi.

### 1.2. - Pedagogik mahoratning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar



SHuningdek, bu kasbiy-shaxsiy xususiyatlar o'qituvchi - tarbiyachiga, o'quvchi yoshlarning ruqiy-jismoniy rivojlanishlari, o'quv-biluv faoliyatlarining aktivlashuvini ta'minlash kabi bir necha pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatl bajarishning tamal toshi bo'la oladi.

Qayd qilib o'tganimizdek pedagogik mahorat har bir o'qituvchi tarbiyachi uchun xos bo'lgan ta'lif - tarbiya ishlarini doimo yuksakka ko'tarishga, uni takomillashtirishga asos bo'luchchi san'atdir. By san'at o'z ishini bilish faoliyatini muntazam tartibga solib, nazorat qilib, yuksaklikka ko'tarish bilan tavsiflanadi. Unda eng asosiyi pedagogik-psixologik nazariyalarni samarali qo'llash nazarda tutilgan.

"Pedagogik mahorat" fani pedagogik fanlar tizimida kasbiy tayyorgarlikni mustaqkamlash va takomillashtirish fani sifatida maydonga keladi. Zero, "Pedagogik mahorat" - bu pedagogik faoliyatni ustalik bilan boshharishni o'rgatuvchi fandir. SHunday ekan, kasbiy - pedagogik moqirlik pedagogik - psixologik tayyorgarlikda, o'qituvchi - tarbiyachining ta'lif, tarbiya, ma'lumot tushunchalarining mohiyat - mazmunini, shaxs psixologiyasini, uning biologik shartlangan xususiyatlari (nerv tizimi, temperament, layoqat-qobiliyatini, xarakterlarini bilish jarayonlari (sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol)ni, emotsiyalri irodaviy xususiyatlari (hissiyot, emotsiya, irodalari)ni, ijtimoiy yo'nalgan xususiyatlari (ehtiyoj, qizihish)ni, ortitirilgan kasbiy xususiyatlari (bilim, ko'nikma, malaka, odatlari)ni o'rganib, anglab olish asosida shakllanib boradi. Pedagogik mahorat fani esa qayd etilgan xususiyatlarning o'z mohiyatidan kelib chiqib ularni amalda qo'llash yo'llarini o'rgatadi. SHu asosda ta'lif -tarbiya jarayonini to'qri, aniq tashkil qilish, o'zlashtirish imkoniyatlaridan aniq foydalanish, shart-sharoitlarini yaratish imkonini tuqiladi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, pedagogik mahoratni shakllantirishda mutaxassislik kasbini tez va oson egallash yo'lini anglash muqim rol o'ynaydi. Zero, pedagogik mahorat bu maqsadning aniqligi, sub'ekt va ob'ekt aloqasining uzviyligini ta'minlovchi pedagogik qosiladir. SHu o'rinda e'tirof etish joizki, uning shakllanishi va takomillashuvi, murakkab va o'zoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchi -tarbiyachidan pedagogik - psixologik, nazariy va metodik tayyorgarlikni chuqur egallash bilan birga pedagogik axborotlarni qunt bilan muntazam o'qib borishni, mavjud nazariy-amaliy pedagogik yutuqlardan o'z faoliyatida o'rinni foydalana olishga o'rganishni talab etadi.

O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishning birinchi sharti faoliyatadir. Zero, pedagogik mahoratni egallash va takomillashtirishda faoliyat etakchi omildir. Zero, mehnat, bilish, mahorat, ijod...Inson hayoti va faoliyatining bosh mezoni. Bu mezon kundalik ish, faoliyat orqali amalga oshiriladi. Mehnat qilish, izlanish jarayonida, ya'ni amaliyat jarayonida yutuqlar qo'lga kiritiladi, mahoratga erishiladi. Kasbiy mahorat sirlarini o'rganishga harakat qiluvchi har bir o'qituvchi, avvalo, egallashi lozim bo'lgan pedagogik bilim va axborotlarga ega bo'lishga intilishi, qilayotgan ishining barcha qirralarini aniq tasavvur etishga harakat qilishi va natujalarni taxsil kilib, baholah borishi, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarining mohiyatini tushunishga harakat qilishi lozim. Bu holatlar, albatta, faoliyat orqali amalga oshiriladi. Pedagogik mahoratni egallashda ham o'qituvchining pedagogik faoliyi asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik mahorat pedagogik faoliyat bilan uzviy boqliqdir. SHuning uchun pedagogik mahoratni shakllanish jarayonining mohiyatini ochib chihishdan oldin, ma'lum darajada pedagogik faoliyat xususida fikr yuritishni lozim, deb bilamiz. CHunki, o'qituvchining kasbiy mahorati mehnat orqali

qo'lga kiritiladi, mehnat esa, faoliyatning tarkibiy hismlari (o'hish, ijtimoiy ish, o'yin, sport mashqulotlari va q. k.)dan biri hisoblanadi. SHu asosda pedagogik faoliyat o'qituvchi mehnatining istiqboli, texnologiyasi, vazifalari va ta'sir ko'rsatish usullarining majmuidir.

Qayd etilganidek mahorat bu yuksak qudrat hisoblanadi. SHunga ko'ra pedagogik mahoratni shakllantirish muayyan soqani mukammal egallash, nazariy, amaliy ma'lumotlarga to'liq ega bo'lish, kasbiy tayyorgarlik ustida tinmay ishlash bilan birga kasbiy pedagogik mehnatning betakror, noyob, moqir ustasi bo'lish uchun o'qituvchi - tarbiyachiga ilqom, ijod va o'z kuchiga ishonchni tarbiyalash kerak. Mana shu ilqom, ijod va ishonchni yo'lga qo'yuvchi, uning imkoniyatlarini to'la ishga soluvchu kuch faoliyatdir. Faoliyatni aniq yo'lga qo'yish, uni boshharish, amalga oshirish, o'qitish, tarbiyalau, bilim olish savyasini yuksaltirishni, amalga oshirish ta'minlanadi. SHuning uchun pedagogik mahoratni shakllantirishda pedagogik faoliyat muqim o'rinn tutadi.

O'zbekiston Entsiklopediyasida qayd qilinishicha "Faoliyat - atrofdagi olamga nisbatan insонning o'ziga xos aktiv munosabat shakli. Olamni maqsadga muvofiq va qayta o'zgartirish faoliyatining mazmunini tashkil qiladi... har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat". Faoliyat turlari, shakllari xilma - xildir. har qanday faoliyat singari o'qituvchilik faoliyatni ham maqsad, usul, vosita, ob'ekt va sub'ektdan iborat. Pedagogik maqsad - o'qitish, tarbiyalash va shu asosda talabalar shaxsini shakllantirish demakdir iborat. Usul esa tarbiyalanuvchilar obro'sini egallash, qurmatiga sazovor bo'lish va ta'sir ko'rsatishdir. Pedagogik mehnatning ob'ekti sifatida - o'qituvchi shaxsi turadi, uning xarakteri, irodasi, ongi, aqli, odob - axloqining asosi hisoblanadi. Pedagogik faoliyat sub'ekti esa - tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi - pedagogning o'zi. CHunki, u o'quvchi - talabalarga tabiat, jamiyat, tafakkur qonunlari to'qrisida ma'lumot berish uchun, avvalo, ularni o'z faoliyatining ob'ektiiga aylantiradi. SHu tariqa bilimlar o'zlashtiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar o'quvchi - talabalarga etkaziladi. "Pedagogik faoliyat, -deb yozadi psixologiya fanlari doktori, professor A.K.Markova o'zining "O'qituvchi faoliyati, muloqoti va shaxsi" nomli maholasida, -o'qituvchi mehnatining umumiy strategiyasi, texnologiyasi, vazifalarini qal qilishga haratilgan hamda pedagogik ta'sir o'tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional aktivligidir".

Pedagogik faoliyat talaba - yoshlarga ta'lim - tarbiya berish jarayonida ularga ta'sir ko'rsatish bilan boqliq holda amalga oshiriladi. Natijada talabalarga bilim beriladi, ularning shaxsiy sifatlari tarbiyalanadi, psixologik xususiyatlari rivojlantiriladi. Bunda esa talaba etuk mutaxassis sifatida kamol topa boradi. SHuning kasbiy faoliyat jarayonida pedagog, ya'ni o'qituvchi - tarbiyachi, tashkil qiluvchi, yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi, tarqibot - tashviqot yurituvchi, ma'lumot - axborot to'plovchi va etkazuvchi, shaxsiy xususiyatlarini va kasbiy mahoratini omillashtiruvchi shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim. Bularning barchasi bevosita va bilvosita pedagogik mahoratning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik faoliyat aniq ko'rinishda bo'lsa, unda o'qituvchi o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish vazifalarini aniq ko'ra oladi va ularni qal qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda faoliyat aqlini ruqiy jihatdan tayyorlaydi, ta'sir ko'rsatish vositalarini belgilaydi,

natijalarni nazorat qiladi, taqlil qiladi, baholaydi va yangi vazifalarni belgilaydi. Bilimlarni o'zlashtirish vositasida shaxsning o'sishi ta'minlanadi, natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, vaziyatni tushunishi, har bir talabaning o'zlashtirish jarayonini, rivojlanib shaxs sifatida shakllanish darajalarining mezonini aniq ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lmoqi darkor. Bu o'z navbatida o'qituvchidan katta bilim, tajribalarni talab etadi. Bu faqat kasbiy faoliyatni to'qri belgilash orqali amalga oshadi. SHunga ko'ra ta'lim muassasasi oldidagi muqim vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchiga pedagogik faoliyatni loyiqlash zarurdip.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib, pedagogik mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi deb aytish mumkin. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zeqn vositasida taraqiy etadi. SHunga asoslanib, "Faoliyat dunyonи o'zlashtirishning birinchi shartidir", -deb aytish mumkin. Ko'rib o'tganimizdek pedagogik mahoratning asosiy ob'ekti - inson, uning aql - idroki, irodasi, ishonchi, tafakkuri, shuuridir. Bular yuksak darajada bo'lishi, ilmga, uni egallaganlik darajasiga boqliq. Ilm esa tinimsiz mehnat, mashaqqat va azob - uqubatlar orqali qo'lga kiritiladi. SHuningdek pedagogik mahorat ham faoliyat, mehnat, o'z malakasi ustida muttasil ishlash yordamida shakllanadi. SHunday ekan, "Pedagogik mahorat" fanining pedagogik - psixologik fanlar tizimida mavqeい baland. Zero, pedagogik mahoratsiz ta'lim - tarbiya, ya'ni pedagogik jarayon muvaffaqiyatini ta'minlab bo'lmaydi. Bu esa pedagogik mahoratni egallah, har bir talaba, o'qituvchi, tarbiyachi uchun zaruriy shart degani demakdir.

O'qituvchilik kasbidagi pedagogik faoliyatning xususiyatlari, funktsiyalari, tuzilmasini tadqiq qilgan A.N. SHerbakov, N.V.Kuzmina, V.A. Slastyoninlar "pedagogik faoliyatning yo'nalishlarini"ni ilmiy nazariy va amaliy jihatdan asoslashga harakat qildilar. Bu esa pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashirishning ikkinchi shartidir. Ayniqsa, V.A. Slastyonin o'zinig "Formirovanie lichnosti uchitelya v protsesse professional'noy podgotovki" nomli o'quv qo'llanmasida pedagogik faoliyatning qirralarini ishlab chiqqan. Buni 1.3 - jadvalda ko'rishimiz mumkin.

### 1.3-jadval. Pedagogik faoliyat qirralari.

Kasb-korga oid kasbiy fazilatlar	Kasb-korga oid shaxsiy fazilatlar
Bilimdonlik, yo'naltiruvchilik, safarbarlik, tadqiqotchilik, loyiqachilik	Rivojlantiruvchilik, vositachilik, tashkilotchilik, shaxsiy kamolot

Jadvalda ko'rsatilgan pedagogning kasb-korga oid fazilatlarining mazmuni bilan tanishib chihamiш.

Pedagogik faoliyat qirralari:

1. Bilimdonlik:
- o'qitadigan fanini puxta bilishi;
- notiqlik san'atiga (o'quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qila olish malakasiga) ega bo'lishi;
- bilimlarni gumanitarlashtira olishi;
- o'qitish vositalari (tevarak-atrofdagi buyumlar, harakatlar, modellar, chizmalar, sxemalar, jadvallar va qokazolar, o'qitishning texnika vositalari: diapozitivlar,

diafil'mlar, o'quv kinofil'mlari, ovoz va videoyozuvlari, O'quv qo'llanmalar va o'quv qo'llanmalar, talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish uchun moslamalar, mikrokompyuterlar)ni egallanganligi;

- talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini taqlil qila olishi va ularni baholay olishi;

- bilimlarni uzlusiz mustaqil egallab borishi;

- o'qituvchining shaxsiy sifatlari (mehnatsevarlik, ishga ijodiy yondashish, mustaqillik, kamtarlik, yuksak madaniyatllilik, ephchilik, hozirjavoblik, vazminlik, ma'suliyatllilik, sinchkovlik, qat'iyatlilik, batartiblik, sabotllilik, tirishqoqlik, ijrochilik, vijdonllilik, xolislik, har tomonlama bilimdonlik, kuzatuvchanlik, xushmuomalalik, talabalarni sevish va ular shaxsini qurmat qilish va boshqalar).

## 2. Rivojlantiruvchilik:

- talabalarning yosh xususiyatlari, ularning o'quv imkoniyatlarini bilishi;

- talabalarda o'z faniga qizihish uyqota olishi;

- ta'limning turli usullari ( bayoniylasviriy, reproduktiv, muammoli ta'lim, hisman-izlanuvchan yoki evristik usul, tadqiqot usuli)ni egallaganligi.

## 3. Yo'naltiruvchilik:

- o'qitish tamoyillari tizimi (tarbiya va o'qitish jarayonida talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ilmiylik va bilimlarning talabalar imkoniyatiga yarasha qiyinlik darajasi, o'qituvchi raqbarligida talabalar onglligi va ijodiy faolligi, o'qitishda ko'rsatmalilik va talabalarning nazariy tafakkurini rivojlantirish, tizimlilik va izchillik, o'qitishdan bilimlarni mustaqil egallahsha o'tishni ta'minlash, o'qitishni hayot, o'qitish natijalarining puxtaligi va talabalarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish, o'qitishda ijobiyl hissiyot yaratish, o'qitishning jamao tusidaligi va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish)ni o'zlashtirganligi.

## 4. Safarbarlik:

- darsda talabalarning diqqatini barharorlashtirishi;

- har xil tipdag'i darslar (yangi bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarini egallah, va ularni qo'llash, bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish va tuzatish, aralash dars)ni o'tkaza olishi;

- politexnik ta'limga oid va kasbga yo'naltirish ishlarni amalga oshira olishi;

- egallangan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirishi;

- qazil-mutoyibani uddalay olishi;

- mehnatni ilmiy asosda tashkil qila olishi va unga qo'yiladigan estetik va gigienik talablarga rioxaga qila olishi.

## 5. Loyiqachilik:

- o'z mutaxassisligiga oid ta'lum muassasasi kursini puxta bilishi;

- o'z fanining metodikasini bilishi;

- o'qitish va talabalarning bilimi, malaka va ko'nikmalarini tekshirish uchun o'quv manbalarini tanlay olishi;

- o'qitishda predmetlararo ichki va tashqi aloqalardan foydalanish malakasi;

- kerakli qujjatlarni to'qri olib borishi va rasmiylashtirishi;

- asosiy tarbiyaviy ishlarning turlarini aniqlash va uni o'tkazish shakllarini tanlashi;

- fan kabineti uchun zarur vositalarni aniqlash va uni qo'lda yasalgan ko'rsatmali qurollar hisobiga boyitib borish malakasi.

6. Vositachilik:

- guruh jamoasini boshhara bilishi;
- o'qitishni tashkil qilish shakllari (frontal, individual, guruh)ni egallagan bo'lishi;
- talabalarning ota-onalari bilan ishlay olishi;
- muloqot jarayonida axloqiy normalarga rivoja qilishi;
- lektor-tarqibotchi malakasini egallagan bo'lishi.

7. Tashkilotchilik:

- darsni tashkil qila olishi;
- guruh raqbari ishini rejalashtirishi;
- guruhdan va darsdan tashhari ishlami, o'z faniga oid ommaviy tadbirlarni tashkil qilishi va ularni moqirona o'tkazishi.

8. Tadqiqotchilik:

- dars, shuningdek o'quv-tarbiya tadbirlarini tanqidiy taqil qila olishi;
- ta'lim-tarbiyaga oid uncha murakkab bo'lmagan pedagogik tajribalarni o'tkazishi va ishlab chihishi;
- boshqa o'qituvchilarning tajribalarini taqlil qilish va ulardan tanqidiy foydalanishi;
- ilmiy va pedagogik ijodiyotga qizihishi;
- muloqaza yuritganda fikrplashning dialektik usulini qo'llashi.

Ko'rib o'tganimizdek pedagogik faoliyat muqim ijtimoiy-pedagogik qodisa. Uni aniq tashkil qilish, talaba-yoshlar bilim olish jarayonini, ularning ehtiyojlari, qizihishlari, motivlari, maqsadlari, amalga oshirish shakllarini to'qri yo'naltirish pedagogik mahoratning shakllanishi uchun muqim ahamiyatga ega. har qanday faoliyat singari, pedagogik faoliyat ham maxsus tayyorgarlik (ma'lumotlilik), tajriba, ixtisoslik bo'yicha bilimga ega bo'lishini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning tuzilishi uning boshqa jihat va soqalarga haraganda kam o'rganilgan. Lekin, bu soqada ba'zi bir tadqiqotlar amalga oshirildi. Sankt - Peterburg universitetining professori N.V. Kuzminaning ilmiy - tadiirot ishlarini pedagogik mahoratni shakllantirish yo'nalishidagi pedagogik faoliyat to'qrisida yaratilgan ilmiy ishlardan deb alohida ko'rsatib o'tish mumkin. O'qituvchilarin faoliyatini uzoq vaqt kuzatish, natijalarni ilmiy asosda ishlab chihish, ta'lim muassasasi raqbarlarining o'qituvchilar haqidagi fikrlarini sinchiklab o'rganishlari natijasida olima N.V.Kuzmina pedagogik faoliyat tuzilmasini uch asosiy soqadan: 1) konstruktiv; 2) tashkilotchilik; 3) pertseptiv, ya'ni o'qituvchi-talabalar munosabatidan iborat deb biladi. Pedagogning ish soqasida talabalar, ularning ota-onalari va hamkasblari bilan aloqasidan iborat yaxlitlik pedagogik faoliyat va pedagogik mahorat asosini tashkil etadi.

N.V. Kuzminaning pedagogik faoliyat tuzilmasidagi o'qituvchining konstruktiv faoliyati ~~talabaiarga beriladigan~~ materialni tanlash, ulardan eng asosiyisini aniqlab olish ~~ha'mda~~ bu materialni talabalarning yoshi, individual xususiyatlariiga moslab qayta ishlab chihish va shu asosda dars, suqbat tashkil etish, tarbiyaviy ishlar olib

borish, talabalar shaxsi, bilim saviyasi, dunyoharashini aniqlash va rivojlantirishni nazarda tutsa, ushbu tuzilmadagi o'qituvchining tashkilotchilik faoliyati esa, ishni tashkil etish va talabalarning darsda va darsdan tashhari vaqtlarda o'zlariga hamda mehnatlariga raqbarlik qilish, shu bilan birga ular faoliyatini tashkil etishdir.

Agar, o'qituvchi talabalar bilan to'qri munosabatda bo'lib, aloqa o'rнata olsa, uning konstruktiv va tashkilotchilik faoliyati ham muvaffaqiyatlil bo'ladi. Bu esa pedagogik ishning sifat va xislatlariga, talabalar psixologiyasini tushunishiga, o'quvchi-yoshlar bilan o'zaro munosabatini yo'lga qo'yishga, ularning yosh hamda individual xususiyatlarini e'tiborga olishiga, shuningdek talabalarga ta'sir eta bilishiga boqliqdир. Bu pedagogik mahoratni shakllantirishning birinchi sharti hisoblanadi.

Pedagogik mahorat - bu o'qituvchi - tarbiyachining kasbiy va shaxsiy faoliyati natijasining umumlashmasi sifatida, muayyan bilim, ko'nikma, malakalar yiqindisidan iborat bo'ladi va o'zining shakllanishi jarayonida bir necha yo'lini bosit o'tadi:

-birinchi yo'l - o'quv -pedagogik faoliyat yo'li bo'lib, u o'z o'quv predmetini, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini ilmiy texnikaviy taraqqiyot va davr talablar darajasida bilishni nazarda tutadi.

-ikkinchi yo'l - shaxsiy faoliyat yo'li bo'lib, u o'ziga, o'z ishiga, hamkasblariga, o'quvchilarga, ularning ota-onalariga bo'lgan munosabatini bildirib, o'z mavqeini tushunishi, o'z -o'ziga baqo berish, o'z-o'zihi anglash, mustaqil ravishda bilimini oshirishga intilish, o'zini -o'zi kamolotga etkazish, buniyodkorlikka, ijodkorlikka, tadbirkorlikka layoqatini yangilikka mutazam intilishini anglatadi.

-uchinchi yo'l - ijtimoiy - pedagogik faoliyat yo'li bo'lib, u o'qituvchi-tarbiyachining o'quvchilarini, jamoani "ko'ra bilishini", o'quvchi yoshlarning qizihishi va talablarini, ular duch keladigan qiyinchiliklarni oldindan anglay olishini; har bir o'quvchi-tarbiyalanuvchining individual - psixologik xususiyatlarini ilqay olishini; darsda va darsdan tashhari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarning shakllanganligini; turli ijtimoiy - foydali ishlarga o'quvchilarini jaib eta olishini; fanga, hayotga, sa'atga, ijtimoiy-foydali mehnatga qavas uyqota olish kabi qo'biliyati qirralarining mavjudligini anglatadi;

-to'rtinchi yo'l - axborot - kommunikativ faoliyat yo'li bo'lib, u o'qituvchi - tarbiyachinini ma'lumot-axborotga ega ekanligini; voqealik, pedagogik olamdagи voqeа-qodisalar to'qrisidagi ma'lumotlar bilan qurollanganligini; axborot va kommunikativ texnologiyalardan ma'lumotlar ola bilishini, uni o'z tafakkur elagidan o'tkazib, hamkasblari, o'rtoqlari, o'quvchilariga etkaza olish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

qayd etib o'tilgan hamda tavsiflangan pedagogik mahoratni egallashning mazkur yo'llari o'qituvchi-tarbiyachi uchun dasturulamal bo'lib, kasb-moqiri bo'lish uchun katta imkoniyatlar yaratishga, o'quv-tarbiya samaradorligini oshirishga amaliy yordam ko'rsata oladi.

Kasbiy pedagogik mahoratni shakllantirishning yana muqim jihatlaridan biri pedagogning kasbiy imkoniyatlar tuzilmasini inobatga olishidir. Pedagogik mahoratni egallashda pedagogning kasbiy faoliigi jihatlarini tadqiq qilgan I.P. Podlasiy o'qituvchi -tarbiyachining ma'naviy-axloqiy qiyofasini yorituvchi

"Pedagogning kasbiy imkoniyatlari tuzilmasi"ni ishlab chiqdi va unda pedagogik mahoratni shakllantirishga xizmat qiluvchi omillarni aks ettirdi. Buni 1.4.-jadvalda kuzatish mumkin.

#### 1.4.-jadval. Pedagogning kasbiy imkoniyatlari tuzilmasi.

Jadvaldan shu narsa ko'zga tashlanadiki, pedagogik mahoratni egallash ko'pgina hollarda kasbiy imkoniyatlar va ularni tashkil etuvchi elementlar asosida ro'y beradi. SHunga ko'ra pedagogik mahoratni takomillashtirishda kasbiy imkoniyatlardan foydalanish faoliyatni jadallashtiradi. CHunki, bu mexanizmlar o'qituvchitarbiyachilarining nazariy va amaliy bilimlarini muntazam boyitib borishga, kasbiy-pedagogik mahoratni oshiruvchi omillardan o'rinli foydalanishga katta yordam beradi.

Milliy mustaqillik ko'pgina muammolarni, jumladan, pedagogik jarayonning mazmuni, shakli, usullarini insonparvarlashtirish va demokratiyalashtirish, tarbiyaning maqsadi, shakli va usullarini milliy asosda qayta qurishni bosh maqsad qilib belgiladi. Bunday sharoitda yangicha fikrlaydigan, o'z ishining ustasi, yoshlari murabbiysi chinakam fidoiy, o'qituvchi, avvalo, bilimdon inson bo'lmoqi kerak. Bunday o'qituvchi-pedagoglar saqtgina faoliyat jarayonida shakllanadi. CHunki, har qanday oliy pedagogika ta'lim muassasasi bunday o'qituvchiga faqat pedagogik ilmni, kasbning yo'nalishlari, sirlari to'qrisida ma'lumot beradi, xolos. CHinakam pedagogik kasbining ustasi ta'lim muassasasida, bevosita va bilvosita mehnat jarayonida, o'z kasbiy malakasi ustida tinmay ishlash orqali qo'lga kiritadi. Zotan, Pedagogik mahorat "... malaka, mashq qilish, o'quv, bilim, ko'nikma va aql qosilasidir".

Darqaqiqat, ta'lim - tarbiya jarayoni murakkab pedagogik tizimdir. Uning o'z oldiga qo'yilgan vazifalari, muammolari mavjud. Ularni optimal qal etish ko'pgina omillardan iborat bo'lib, eng asosiysi o'qituvchining kasbiy mahoratidir.

T/p	Kasbiy tayyorgarlik	Kasbiy ijodkorlik	Kasbiy etuklik	Pedagogik madaniyat
1.	Kasbiga intilish	Pedagogik saloqiyat	Innovatsion faoliyatni tashkil eta olish	Pedagogik tafakkur egasi
2.	Kasbiy shakllanish	Kasbiy bilimdonlik	Insonparvar bo'lish	Pedagogik texnikani egallash
3.	Kasbiy yo'nalganlik	Faoliyatni tashkil etishda individual uslubga ega bo'lish	Kasbiy kamolot	Munosabatlarni ijobiliy tashkil eta olish
4.	Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik	Faoliyatga bo'lgan ijodiy munosabat	Kasbiy pozitsiyaga egalik	Ijtimoiy faollik
5.	Kasbiy mahoratga erishish	Ijodiy tashabbuskorlik	Kasbiy faoliik	Metodik mahorat

Kasbiy mahorat izlanishlar, kuzatishlar, tinmay tajribalarni o'rganish, takrorlash, yozish, fikrlash ma'lum xulosalarga kelish orqali qo'lga kiritiladi. O'tmish ajdodlarimizning tajribasi, nazariy ma'lumotlar, ta'lim muassasasi amaliy faoliyat shundan dalolat bermoqdaki, muntazam ilm olish bilan shuqullanish, mashq qilish, takrorlash, xulosalar chiharish, xulosalarni taqlil qila olish, har bir kasb egasini mahorat pillapoyalari sari etaklaydi.

CHunonchi, bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidagi Baqromning bir o'q bilan kiyikni ham oyoqlarini tushovlashi, ham bo'qizlashi, yoki hamid Olimjonning "Bunyod va Semurq" asaridagi Bunyodning uzukni aniq nishonga olishi, daraxtni tomiri bilan erdan qo'porishi, ko'pgina mashqlar orqali qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatidir.

Xullas, kasbiy mahorat har bir davr uchun ham muqim pedagogik qodisa bo'lgan va shunday bo'lib holadi. Pedagogik mahoratni takomillashtirishning istiqboli, avvalo, falsafiy, pedagogik, psixologik, fiziologik bilimlarni egallashi, o'quv predmeti bo'yicha keng, chuqur va mukammal ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni ijodiy o'rganib o'z faoliyatiga muntazam tadbiq etish hamda nazariya bilan amaliyotning uzviy boqloqligida olib borish orqali qal etiladi. CHunonchi, pedagogik mahorat ma'lum zaruriy ma'lumotlarni egallash orqali takomillashadi. Darqaqiqat, pedagogik mahoratni takomillashtirish uchun, avvalo o'quv predmetining ilmiy - nazariy asoslari bilan qurollanish, uning metodologiyasini egallashni, ta'lim tarbiyaning davr talabidagi maqsad va vazifalarini tushunish va anglash, kompyutep savodxonligiga ega bo'lish, mustaqil bilim olish faoliyatini aniq rejalashtira olish, pedagogik tassifikur egasi bo'lib, pedagogik texnikani egallash, ijtimoiy faoliik va metodik madaniyatga ega bo'lish hamda boshqa ma'lumotlar kerak bo'ladi. Pedagogik faoliyatini boshlaysotgan har bir yosh o'qituvchi, dastavval, o'z kasbiy mahoratini shakkantirish va takomillashtirish ustida hamxo'rlik qilishi, bu yo'lda uchraydigan qiyinchiliklardan qo'rmasligi, sarosimaga tushmasligi kerak bo'ladi.

SHu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki, hozirgi davr, milliy mustaqillik o'qituvchi - tarbiyachining o'z faoliyati jarayonida quyidagi uch muqim vazifani amalga oshirishini talab etadi:

1. Ijtimoiy buyurtma sifatida ta'lim muassasalarida o'quv - tarbiya ishlарини ташкил этиш, амалга оширish orqали, aql - zakovatli, bilimdon, ishbilarmon tadbirkorlarni tayyorlash hamda ularni davr texnikasi va uning ishlash texnologiyasi bilan yaqindan tanishtirish.

2.Ta'lim - tarbiya ishlарини амалга ошира бориб, o'qituvchi -talabalarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, egallangan bilimlar asosida ularda amaliy ko'nikma, malakalar qosil qilish va uzuksiz ta'limga tayyorlash.

3. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida o'quvchi - yoshlarda ilmiy dunyoharashni shakkantirish, ma'naviy - axloqiy saloqiyatini yuksaltirish, jamiyat uchun erkin fikrlovchi va irodasi baquvvat yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazish, ularning o'z - o'zini anglash, o'z - o'zini bosxharish malakalarini qosil qilish, mustaqil bilim olishga o'rgatish, qoyaviy - siyosiy e'tiqodini hamda milliy - estetik fazilatlarini tarkib toptirishga erishish.

Bu vazifalarini qal etish va o'qituvchi - tarbiyachining pedagogik mahoratini

takomillashtirish uchun bilim, mahorat, saloqiyat talab etiladi. Pedagogik mahoratning takomili esa faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda yo'lga qo'ygan o'qituvchining bunday tayyorgarlikka ega bo'lishi va amalga oshishini tajriba ko'rsatmoqda: Bular:

I. Ixtisoslik fanining ilmiy - nazariy va metodologik asoslari bilan qurollanish. Ma'lumki, har bir fan o'zining o'rghanish soqasi, o'qitish muammosiga harab ilmiy - nazariy va metodologik asosga ega bo'ladi. Zero, fanning ilmiy - nazariy va metodologik asosi bilan qurollanishi o'qituvchi -tarbiyachira borliqni, uning taraqqiyot qonuniyatlarini aniq anglash va talqin qilish imkonini beradi. CHunonchi, ta'lim - tarbiya jarayoni mana shu taraqqiyot qonuniyatlarini anglashga, tushunib etishga haratilgan, maqsadga yo'naltirilgan o'qituvchi - talaba hamkorligining iborat majmuadir. Bunday hamkorlikda o'quvchilar o'qituvchi raqnamoligida borliqdagi oddiy va murakkab narsa - qodisalarining mohiyat - mazmunini bilishdan, murakkab narsa va qodisa, voqeа sirlarini anglashgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Tabiat, jamiyat, tasakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'zlashtirib ularga o'z munosabatini bildiradi. SHu munosabat natijasi o'laroq o'quvchi - talabalar borliqdagi narsa va qodisalarining tuzilishini, ularning aloqadorligini, farqini, bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmasligini bilib oladilar, tasavvurlar qosil qildilar. SHunga ko'ra asosiy ilmiy qoyalar, davr kontseptsiyasi, qonuniyatlarni to'qri anglash, bilish oqibatida fanning bosh yo'naliishi, metodologiyasi egallanadi va amaliyotda qo'llaniladi. Bu davr taqozosidir.

II. Ta'lim - tarbiyaning hozirgi bosqichdagi maqsad va vazifalarini tushunib etish va uni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish. hozirgi davming o'qituvchi - tarbiyachisi zamon talablari asosida ta'lim va tarbiyaning maqsad, vazifalarini to'qri, aniq tushunsadagina uni talabga muvofiq amalga oshira oladi. Buning uchun har bir o'qituvchi -tarbiyachi, avvalo, "ta'lim", "tarbiya" tushunchalarining mohiyatini, mazmunini, "ta'lim jarayoni", "tarbiya jarayoni"ning mexanizmini, ularning ob'ektiv va sub'ektiv qonuniyatlarini bilishi, amaliy faoliyatda ulardan o'rinni foydalanish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

SHunga ko'ra o'qituvchi, dastavval, ta'lim - tarbiyaning asosan ijtimoiy, psixologik, didaktik xususiyatlarini, ilmiy - nazariy asoslarini muntazam bilib borishga odatlanmoqi, so'ngra esa, shaxsiy tajribalarini davr talablari asosida tashkil etishi, ularni pedagogik - psixologik nazariyalar balan taqqoslashi, ilqor tajribalarni o'rGANISHI, o'qitish va tarbiyalash ishlarini hayot bilan, mehnat bilan, ishlab chiharish texnologiyalari balan boqlash imkoniyatini qo'lga kiritishga harakat qilishi darkor. Zero, o'quvchilar hozirgi sharoitda unumli mehnat jarayonida tayyor bo'lishlari shart. Ta'lim muassasasidanoq ularni ishlab chiharishning barcha jabqalari tamoyillaridan voqif qilmoq lozim. Ayni paytda ularga oddiy mehnat qurollari bilan ishlay olish malakasini berishi zarur.

III. Pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etish. har bir o'qituvchi - tarbiyachi pedagogik faoliyatga kirishar ekan, avvalo, uni mustaqil tashkil etish, shaxsiy tajribalarini yaratish malakasiga ega bo'lishu lozim. SHundagina, u mahoratlari kasb egasi bo'la oladi. SHuning uchun o'qituvchi, avvalo, o'z ixtisosligi, kasbiy faoliyati ustida mustaqil ishlashi, bilim olishi shaxsiy faoliyatini ilmiy - nazariy, usuliy -

amaliy yo`nalishlarini mukammal egallashga intilmoqi darkor. Mustaqil ishlash, o`z faoliyatini mustaqil takomillashtirib borish har bir o`qituvchi-murabbiy oldiga davr qo`yayotgan talabdir. Bu o`z navbatida o`qituvchining mustaqil bilim olishning kompleks malakalariga ega bo`lishini, o`z-o`zini nazorat qilishini, o`z faoliyat natijalarini taqlil qilib, o`z faliyatini baholashning real ko`nikmalarini o`ziga qosil qilishi zarurligini ko`rsatmoqda. Bu saqatgina pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etish orqali amalga oshadi.

IV. Pedagogik jarayonga ijodkorlik nuqtai nazaridan yondoshish. har bir o`qituvchi - tarbiyachi ehr avvalo o`z pedagogik faoliyatiga tadqiqotchilik nuqtai nazarida ko`rib, unga izlanuvchanlik asosida yondoshsa, tadqiqotchilik malakalariga ega bo`lsa, shaxsiy tajribasini pedagogik tashxislar, tajribalar asosida yaratса, mahoratga erisha oladi. CHunki, bunda o`qituvchi ilqorlikdan ijodkorlikka o`tadi va kunlik ish faoliyatini taqlil qiladi, yo`l qo`yan nuqson va kamchiliklarini aniqlab, uni tuzatishni joyiqalashtiradi. Bunda ijodkorlikning muqim omillari tafakkur va faoliyat, iroda va qobiliyat izlanish qosilasi sifatida pedagogik mahoratni tarbiyalashga ko`maklashadi. O`qituvchi ijodkor bo`lgan taqdirdagina ta`lim-tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning noan`anaviy yo`lidan bora oladi.

Amaliy faoliyatning ijodkorlik darajasini o`quvchilarни o`qitish va tarbiyalashning mazmunan va mohiyatan yangi, samarali majmuasini yaratish tashkil etadi, u ishning samarasini hamda istiqbolini ta`minlaydi.

V. Ta`limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalana olish. har bir fan o`qituvchisi yosh avlodga fah asoslarini o`rgatar ekan, u, avvalo, berilayotgan ma`lumotlar asosida o`quvchilarда ilmiy dunyoharash asoslarini shakllantiradi, ularning ma`naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalaydi, ularni mehnat va kasbga yo`llab, ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlaydi. SHuning uchun ta`lim va tarbiya yaxlitligini ilmiy jihatdan tushunish, ta`lim va tarbiyaning imkoniyatlaridan o`rinli va maqsadli foydalanish orqali mumkin. Bu holaversa, har bir fan o`qituvchisining oldidagi insoniy burchi va pedagogikaning umumiyl qonunidir. Ta`limning tarbiyaviy imkoniyatidan foydalana olish, o`z navbatida, o`qituvchiga pedagogik qoyalarni hayot bilan, ishlab chiharish va fan bilan, taraqqiyotning ijtimoiy munosabatlari bilan, ijtimoiy ongni ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini bilan boqlash imkonini beradi. Fanning tarbiyaviy imkoniyatlari kengayib, ta`lim samaradorligi oshadi, shuning uchun pedagogik mahorat sari intilayotgan har bir o`qituvchi buni chuhur his qilishi, teran anglay olishi va o`z o`quv fani doirasidagi bilimlar yordamida darsning tarbiyaviy maqsad, vazifa, yo`l hamda vositalarini aniq belgilab, ulardan o`rinli foydalanish ko`nikmasini o`zida shakllantirgan bo`lmoqi lozim. Bu pedagogik mahoratni takomillashtirishning muqim shartlaridan biridir.

VI. O`qituvchining kompyuter savodxonligi. XXI asr kompyuter, axborot kommunikativ texnologiyalari asridir. Bu asrda har bir o`qituvchi kompyuter savodxonligiga ega bo`lishi, davr texnikasi va uning ishlash texnologiyasidan xabardor bo`lishi, o`qitish jarayoniga texnika va axborot-kommunikativ texnologiyalarini qo`llay olishi talab etiladi. Bu esa o`z navbatida dars samaradorligini oshirishga, o`hish-o`qitish sifatini ta`minlashga xizmat qiluvchi didaktik qodisa hisobdanadi. Bundan tashhari kompyuter, yordamida olingan

ma'lumotlar mashqulot mazmunini boyitish bilan birga o'qituvchining ilmiy-nazariy saviyasi oshirishga, savodxonligini ko'tarishga yordam ko'rsatadi, fanlararo integratsiya yo'lg'a qo'yiladi, o'quv topshiriqlarining amaliy yo'nalishi kuchaytiriladi, o'qituvchining pedagogik mahorati takomillashadi.

VII. O'z ishiga, o'rtoqlariga, kasbdoshlariga, ta'lif muassasasi raqbarlariga, ota-onalarga ijobjiy munosabatda bo'lish. O'zaro qurmat, yordam, hamkorlik va bir birini aniq va to'qri tushunish kasbiy mahoratni egallashning muqim shartlaridan biri ekanligini tajriba ko'rsatmoqda

VIII. Pedagogik izlanish ilmiy uslubiy, amaliy tayyorgarlikni rejalashtirish, pedagogika, metodika fanlari soqasida ijod qilish.

IX. Darsdan va ta'lif muassasasidan tashhari ishlarni tashkil etishning usul va shakllarini mukammal bilishi, talabalarning bo'sh vaqtlarini qiziharli va mazmunli o'tkazish metodikasini, ularni ijtimoiy - foydali ishlarga jalb qilish yo'llarini, talabalarda qavas, qizihish, tashabbuskorlikni tarbiyalash shakllarini har taraflama bilish va amalda qo'llash uchun muqim omildir.

Pedagogik mahoratni takomillashtirishning qayd qilib o'tilgan yo'nalishlari, birinchi navbatda, o'qituvchi - tarbiyachi moqirligini oshirishga yordam bersa, ikkinchidan o'qituvchining ta'lif - tarbiya ishlaring yangi pedagogik qoyalar asosida tashkil qilishga o'z kasbiy malakasini yuksaltirishga katta imkon beradi. CHunonchi, doimiy mashq qilish mahoratni takomillashtirish ta'lif-tarbiyani yaxshilash uchun nur ustiga, a'lo nur bo'lib xizmat qiladi

### 1.3. Pedagogik faoliyat - ijtimoiy pedagogik qodisa sisatida.

O'rnak ko'rsatish va 'z – nasiqatga  
haraganda har doim kuchliroq  
ta'sir etadi.

S. Jonson

O'qituvchining pedagogik faoliyati, eng avvalo, uning uchun mutaxassis sisatida shaxsiy ma'no kasb etishi bilan uzviy boqliq. Ushbu holat mantiqiy ierarxik printsipni o'zida aks ettiradi, chunki ta'lif shaxsni taraqqiyot ko'rsatkichiga (ham o'qituvchi, ham o'quvchi) boqliq bo'lib ikkiyoqlama ta'sir, hamkorlik maqsuli samaradorlikni belgilaydi. Xuddi shu munosabat bilan pedagogik faoliyatning shakllanishi, rivojlanishi, ushbu kasb egalari shaxsiyatga yo'nalganlikdan ajralgan holda qum surishi mumkin emas. SHuning uchun, kasbiy rivojlanish bilan ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi cheklangantlik nuqtai nazaridan muammoni tadqiq etish pedagogika fanining dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat jamiyatda muqim ijtimoiy - ma'rifiy maqega ega. Zero, u davrlar zanjirini bir-biriga boqlab, avlodlarni hayotga iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, axloqiy-estetik jihatdan tayyorlovch'a faoliyatidir. SHuning uchun qoqli ravishda aytish mumkinki, pedagogik faoliyat eng qadimgi faoliyat bo'lib, ijtimoiy-pedagogik qodisa hisoblanadi. qatto insoniyat jamiyat taraqqiyotining ibridoib davrida yashash, avlodni saqlab holish va davom ettirish uchun ham tabiatning injiqliklariga, stixiyali kuchlarga harshi kurash olib borish jarayonida amaliy pedagogik faoliyat vujudga

kelgan va u tartibga solingan. "Bu amaliy pedagogik faoliyat,- deb yozadi rus pedagogi I.F. Kozlov, - o'quvchilar tarbiyasini maqsadga muvofiq yo'naltirishi va boshharishi uchun turli ta'lim - tarbiya muassasalari, kattalar, oldingi ajodolar, otanolar, o'qituvchilar, maktablar faoliyatining umumlashmasidir".

Pedagoglik kasbi jamiyat uchun, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun juda muqim vazifani bajargan, chunki u holda kelajak avlodni hayotga tayyorlash uchun vorislikni amalga oshirgan. Bunda pedagogika kasbi emas, tarbiyachi - mudarris deb nom olgan. Tarbiya-ijtimoiy hayotning zaruriy vositasi bo'lganligi sababli, bu kasb bilan shuqullanish, tarbiyachilik kasbini maydonga keltirgan. Keksa ajdod, kelajak avlodga to'plagan turmush tajribalarini o'rgatgan. Faoliyat bevosita mehnat jarayonida amalga oshirilgan. Pedagogika tarixi va nazariyasining ma'lumotlariga ko'ra ibtidoiy jamoa tuzumining uruqchilik bosqichida jamiyat kishilari uch guruhga bo'lingan: birinchi guruhni yangi tuqilgan go'daklar va mehnatga kuchi etmaydigan bolalar tashkil etgan; ikkinchi guruhni mehnat va hayotning to'laqonli xo'jayinlari, ya'ni mehnat bilan jamoa a'zolarini boquvchilar va uchinchi guruhni jismoniy mehnat qiliш qobiliyatini yo'qotgan hariyalar va keksalar tashkil etishgan. Yosh avlodni hayotga tayyorlash ularga turmush tajribalarini o'rgatish, yosh avlodni chidamli, irodali va jismoniy rivojlangan qilib tarbiyalash, chiniqtirish uchun mashq qildirish ishlari uchinchi guruh kishilari, ya'ni keksalar va jismoniy mehnat qiliш qobiliyatini yo'qotgan hariyalar zimmasiga tushgan va ular yoshlarningni tarbiyachimudarrislari nomini olganlar.

Quldarlik jamiyatida, qul va quldarlar paydo bo'lishi munosabati bilan insonlar faoliyatida aqliy mehnat, jismoniy mehnat kabi mehnatning turlari tarkib topgan davrda aqliy mehnat bilan ruqoniylar shuqullanishgan. Ularga muallim - mudarris sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ruqoniylar, zodagonlar, zamindorlar, savdogarlar, to'liq ta'minlanganliklari sababli shaxsiy o'qituvchilarga ega bo'lganlar. Bu o'qituvchilar bolalarni jismoniy va aqliy mehnatga o'rgatish bilan birga, ularga o'z-o'zini anglash, tevarak-atrofdagi olamni bilib olish va hayotga o'zini tayyorlash kabi vazifani bajarishgan. Jismoniy mehnatga asosan qadimgi Gretsiyaning Sparta, Afina, O'rta Osiyoning esa Xorazm, Suqdiyona, Marqiyona kabi mamlakatlardagi tarbiya, ta'lim muassasalarida jismoniy va xarbiy jihatdan tayyorlanishgan. Chunki, bu mamlakatlarning asosiy muddaosi o'z er maydonini kengaytirish, mol-mulkini ko'paytirish, ko'proq shaharlarga xo'jayin bo'lishdan iborat bo'lgan SHuning uchun, ham yoshtar jismoniy jihatdan chiniqtirilgan, harbiy yurishlarga tayyor bo'lishga o'rgatilgan. Ushbu mamlakatlarda paydo bo'lgan gimnasiya, sport maktablarida asosan o'qil bolalar shuqullanib, ular harbiy va jismoniy mashqlar bilan shuqullanishgan. Spartada zamindor va quldarlarning bolalarini harbiy ishga, istilochilik ishlariiga tayyorlab, ulardan kelajakda qullar va mehnatkash xalq ustidan qukimronlik qiluvchi zodagon - janoblarni tayyorlagandanlar. Afina va SHarqda savdo - sotiq ishlari muqim ahainiyat kasb etganligi sababli, "Pedagog yoshlarga gimnastika hamda harbiy ishlarni o'rgatish bilan bir qatorda navigatsiya, geografiya, til va notiqlik san'ati sirlarini ham tanishtirar edilar. Grek o'qituvchilari (didaskallar va pedotriblar) asosan erkin kasb egalari bo'lib, ularni yollash orqali ishilatardilar. Yoki ular o'zlarining xususiy ta'lim muassasalariga ega edilar".

Ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyoti sharoitida pedagogik jarayonga "Onalar maktabi", "Buyuk didaktika" (Yan Amos Komenskiy), "O'qituvchilar uchun 33 qoida" (Adol'f Disterverg), "O'qituvchiga ta'lif yo'lida o'quv qo'llanma", "Nozik iboralar" "O'rtoq, o'qituvchi, fan tanlash haqida" (Burqoniddin Zarnudjiy), "Nozik iboralar" (Az-Zamaxshariy), "qutadqu bilig" (Yusuf Xos qojib) kabi pedagogik asarlar paydo bo'lgan. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgatuvchilarga qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Natijada pedagogik faoliyat yuzaga kelgan.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy-pedagogik qodisa sifatida jamiyat rivojini ta'minlovchi kuch hisoblanadi. Bu to'qrida SHarqda zardushtiylik ta'minotining manbai "Avesto"da, Islom dinining muqaddas kitobi "qur'onni Karim" va "qadisi sharif"da, O'rta Osiyo uyqonish davri mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy (873-930), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Burxoniddin Zarnudjiy (XII asr), Musliqiddin Sa'diy SHeroziy (1184-1292), Alisher Navoiy (1441-1501)larning badiiy - falsafiy asarlarida , harbda qadimgi Yunoniston va Rimda Demokrit (460-370), Suqrot (469-339), Aflatun (427-347), Arastu (383-322) Mark Fabiy Kvintilian (42-118), Yan Amos Komenskiy (1592-1670), Adol'f Distegverg (1790-1866) kabi buyuk faylasuf, pedagog, mutafakkirlarning ta'lifotlarida, ma'rifiy-axloqiy asar tarzida maydonga kelib, pedagogik faoliyat va uning maznuni to'qrisida qimmatli fikrlarni ifodalagan. Mashqur Rim pedagogi Mark Fabiy Kvintilian o'zining "Notiqni tarbiyalash to'qrisida" nomli pedagogik asarida pedagogik faoliyat va uning ijtimoiy mohiyati to'qrisida qimmatli fikrlarni aytgan. U pedagogik faoliyatning mohiyati xususida to'xtalib, pedagog o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga eqtiyotkorlik bilan yondashishi, buning uchun o'zi o'qimishli, bilimdon, ijtimoiy fanlar asosini mukammal egallagan, madaniyatli inson va "... o'z shogirdlari uchun o'mak bo'lishi va ularni sinchiklab o'rganishi lozim. har bir o'qituvchi o'qitishning hamma bosqichlarini o'tishi kerak. Yuqori tipdag'i ta'lini muassasasi o'qituvchisi, avvalo, boshlanqich matabda muallimlik qilishi maqsadga muvosif. Muallim va tarbiyachilarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak", , -deb ta'kidlangan bo'lsa, qadimgi Yunon faylasufi va pedagogi Platon eramizdan avvalgi 427-348 -yillar agar kavushduz yomon usta bo'lsa, davlat bundan unchalik zarar ko'rmaydi-suharolar birmuncha yomonroq kiyinib yuradilar, xolos. Animo bolalarni tarbiyalovchi kishi o'z vazifalarini yomon bajarsa, mamlakatda nodon va yolqon odamlarning butun bir avlodи vujudga keladi, -deb pedagogik faoliyat bilan shuqullanuvchilar o'z ishining moqiri bo'lishligini qayd etadi.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) pedagogik faoliyatni "er yuzidagi har qanday kasbdan yuqoriroq turadigan" faxrli faoliyat deb hisoblab, pedagog mehnatiga katta ahamiyat beradi. Yan Amos Komenskiy bir tomonidan aholining o'qituvchi - tarbiyachiga qurmat bilan harashi lozimligini talab qilsa, ikkinchi temondan esa o'qituvchining o'zi ham jamiyatda qanday muqim vazifani bajarayotganligini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olib ishlashi lozim deb ta'kidlaydi. "Pedagog, - deb yozadi Yan Amos Komenskiy, sof vijdonli, ishechan, sabotli, matonatl o'quvchilarga o'zi singdirishi lozim bo'lgan fazilatlarining ibratlari kishisi bo'lishi, keng ma'lumotli va mehnatga layoqatl inson bo'lishi lozim. U o'z fanini beqad sevishi, o'quvchilarga

bamisoli otalardek muomalada bo'lishi va har bir ilm oluvchi qalbida bilimga qavas tuqdirishi lozim".

Pedagogik faoliyat va uning ijtimoiy mohiyati to'qrисida Evropalik pedagoglar bilan birga SHarq allomalarini ham ahamiyatlari va iimmatli fikr bildirganlar. Masalan, SHarq madaniyatining buyuk namoyondasi, o'zbek adabiy tilining asoschisi, davlat arbobi, uluq donishmandi, mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) yosh avlodning ta'lim - tarbiyasi, ularni komil inson qilib tarbiyalashning afzalligi to'qrисida qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Buyuk mutafakkir ustoz, o'qituvchi-murabbiy, mudarrislap madrasa o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagog - murabbiylar va ularning pedagogik faoliyatini to'qrисida fikr yuritib "Maqbub ul-qulub" ("qalblar sevgisi") asarida shunday yozadi: "Mudarislari - mansab va amaldorlikka qiziqmasligi, o'zi bilmaydigan ilmdan dars berishga urinmasligi, manmanlik uchun dars berishga qavas ko'rgazmasligi, muddarris-din ilmidan aniq masalalarni bilmomi kerak, ko'pchilikka dunyoviy bilimlardan ta'lim bermoqi lozim; u yaramasliklardan qazar qilmoqi va noplod odamlardan uzoq yurmoqi; o'zini olim va bilarmon, deb ko'rsatmasligi; turli-tuman aqloqqa xilof ishlarni "qilsa ham bo'ladi", deb haromni qololga chiharmasligi; joiz bo'lgagan ishlarni bilan mashqul bo'lib odamlarni yomon otliqqa o'rgatmasligi; qilish kerak bo'lgan ishlarni qilmaslikni ham odamlar undan o'rganmasligi kerak".

qazrat Navoiy pedagogik faoliyat egalarining, avvalo, o'z kasb soqasining qaciqiy bilimdoni bo'lishini, ularning kelgusida amaldor bo'lish orzusida ilm olmasliklari hamda etuk insoniy fazilatlar sohibi bo'lishini va shu bilan birga barcha soqada o'zgalarga o'rnak bo'lishlarini eqtirom bilan bayon qiladi. CHunki, pedagog o'z kasbiy bilim ko'nikma va malakalari ustida tinmay hamxo'rlik qilishlari bilan o'zlarini dars beradigan fanlarning mahoratlari egasi bo'lishlari, o'zlarining shaxsiy, insoniy, ma'naviy axloqiy fazilatlari bilan jamoatchilik, xalq orasida mustaqkam obro'ga ega bo'lishiga harakat qilishlari lozim, deb biladi. Zero, pedagogning ijtimoiy - madaniy mavqeい, obro'si, uning pedagogik faoliyati maqsuldorligiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Ko'rib o'tganimizdek pedagogik faoliyat hamma davrda aniq tarixiy tavsifga ega va shunday bo'lib holadi. CHunonchi, u yoshlar tarbiyasi bilan boqliq. Tarbiya va pedagogik faoliyat bir zanjirning ikki qalqasi. Tarbiya ijtimoiy, tarixiy tavsif kasb etigani singari pedagogik faoliyat ham ijtimoiy-tarixiy tavsifga ega. Keyingi davr SHarq va O'rta Osiyo allomalarini, ma'naviyat va ma'rifat darqalari pedagogik faoliyat mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy tavsisi to'qrисida qimmatli so'zlarni aytganlar. Buni biz Abdulla Avloniy, Oybek, qasur qulom, Abdullo Oripov va kenja avlod ta'limotida yaqhol ko'ramiz. Jumladan, Muso Toshmuhammad o'qli Oybek pedagogik faoliyat, aniqroq aytadigan bo'lsak, o'qituvchi va uning jamiyatdagi o'mi to'qrисida quyidagi fikrlarni bayon etadi: "O'qituvchi-er yuzidagi asosiy kasb. U bo'lmasa fiziklar ham, liriklar ham bo'lmas edi". Zero, jamiyat taraqqiyotiga, maktab hayotida, bolalar barkamolligiga qalbini baqshida etadigan, o'z fanini nukammal bilishga intiladigan, rang-barang metodikalardan foydalaniib bolalarni ilm cho'qqilari sari etaklaydigan pedagogik faoliyat ijtimoiy qodisa sisfatida ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlari, munosabatlari bilan boqliq. Pedagogik faoliyat birinchidan

iqqisodiy ustqurmaga boqliq. SHuning uchun, bu kasb egalari jamiyatning ishlab chiharish munosabatlari, kuchlari, ijtimoiy - madaniy va davlat ehtiyojlaridan xabardor bo'lishi, o'z faoliyati jarayonida ularga tayanishi lozim. Zero, u jamiyat hisobidan ta'minlanib, uning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi, yoshlarning jamiyat boyligini asrab - avaylashga, ko'paytirishga va shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga raqbarlik qiladi.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy qodisa sifatida jamiyat maskurasi bilan boqliq holda yoshlarning ijtimoiy ongingin o'sishi ustida hamxo'rlik qiladi, ularni qaqiqiyligining insonparvar, demokrat, milliy istiqlol maskurasi qoyalarini qimoya qilishiga tayyorlash uchun xizmat qiladi.

"Ta'lif to'qrisida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqib, bugungi kunda pedagogik faoliyatning ijtimoiy qodisa sifatidagi maqsadini quyidagilardan iborat bo'lishi lozim deb aytilish mumkin:

- o'quvchi - yoshlarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, uzluksiz bilim olishga tayyorlaw;
- ijtimoiy - iqtisodiy hayot qonuniyatlaridan kelib chiqib o'quvchi - yoshlarni fanlarning ilmiy-nazariy asoslarini egallashga yo'naltirish;
- har bir o'quvchi - yoshning o'ziga xosligi, individualligini inobatga olib ularni faol ijtimoiy -siyosiy faoliyatga tayyorlash;
- o'qitish va tarbiyalash jarayonida o'quvchi-yoshlarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, erkin fikr yuritishni to'la yo'lga qo'yish;
- o'qitishda ta'lif va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda o'quvchi-yoshlarda ilmiy dunyoharash, milliy mascura asoslarni tarbiyalash;
- har bir mashqulot, dars mazmunida vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash ruqini singdirish;
- o'quvchi - yoshlarning ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollanganligini nazorat qilish, baholash va taqil qilish;
- har bir mashqulotda fanlaaro integratsiyani yo'lga qo'yish va o'quvchi-yoshlarning barcha fanlarga bo'lgan qizihishi, intilishi hamda ehtiyojini tarbiyalash;
- har bir darsda ilqor pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, mavzularning mantiqiy boqliqligi, amaliy-ilmiy yo'nalishini kuchaytirishga erishish va q.k.

Ma'lumki, ijtimoiy vogelikning bir bo'lagi sifatida inson tabiatni o'zlashtiradi, uni o'z ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartiradi, ko'paytiradi va rivojlantiradi hamda shu tariqa o'zi ham takomillashtib boradi. U o'zining ijtimoiy qimmatli sifatlarini rivojlantiradi va ijodiy kuchlarini takomillashtiradi. Bu jarayonda pedagogik ijtimoiy qodisa sifatida muqim ahamiyat kasb etadi.

#### 1.4. Pedagogik texnika -pedagogik mahoratning tarkibiy hismi sifatida.

Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash.  
Oqillar nazdida gar o'ltirish odobdir,  
Maslaqat tashlaganda so'zga ko'rsatgil qimmat.  
Ikki narsa aqlga siqmaydi gar bilsang,  
So'zlash payti sukutu, keraksiz joyda suqbat.  
Sa'diy SHeroziy

Hozirgi zamон pedagogika fani pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning roli beqiyos deb qayd etadi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his-tuyqularini (emotsiyasini) boshhara olish, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o'quv faoliyatida, o'hishdan tashhari ishlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntirishda dasturamal bo'liб xizmat ko'rsatadi.

Demak, pedagogik texnika shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yiqindisidirki, u o'qituvchininр pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quvchi - yoshlarga ta'sir ko'rsatish, tashkil qilish va boshharishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Xo'sh! O'qituvchining pedagogik texnikasi deganda nima tushuniladiq O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday malakalardan iboratq U o'qituvchining o'quv ishlarini tashkil qilish, amalga oshiriw va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday rol o`ynaydiq

Ilqor va novator pedagoglarning ish tajribalarini kuzatish ilqor tajriba maktablari faoliyatini o'rganish shundan dalolat bermoqdaki, pedagogik texnikani to'liq egallah, uning malakalarini o'zida shakkantirish ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirishga, o'quvchi-yoshlar tarbiyalanganligini yuksaltirishga va shu asosda pedagogik mahorat pillapoyalari sari ko'tarilishga sabab bo'ladi.

Respublikamiz MXD va xorijda pedagogik - psixologik ta'limot tizimida pedagogik mahorat nazariyasini o'rganuvchi va tadqiq qiluvchi olimlarning fikriga ko'ra pedagogik texnika malakalari pedagogik mahoratni takomillashtirish uchun o'ta muqimdir.

O'qituvchining pedagogik faoliyat madaniyati tizimida pedagogik mahoratning tarkibiy hismlari pedagogik texnika, pedagogik odob, pedagogik muloqot madaniyatning roli katta ekanligi e'tirof etilgan. Mazkur muammoni ham pedagogik, ham psixologik jihatdan ilmiy -nazariy, uslubiy -tashkiliy hamda amaliy jihatdan tadqiq qilgan Yu.P.Gonobolin, N.V.Kuz'mina, A.N.SHerbakov, V.A.Selastenin, L.I.Ruvinskiy, V.N.Kuxarev, I.A.Zyazyun N.N. Tarasevich, M.G.Davletshin, K.Zaripov S.Rajabova, B.Xo'jaev va boshqalar o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida pedagogik texnikaning muqim ahamiyat kasb etishini alohida e'tibor bilan qayd qiladilar.

L.I.Ruvinskiy o'qituvchining pedagogik mahorati tizimida pedagogik texnikaning alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd qilar ekan, shunday yozadi: "O'qituvchining pedagogik texnikasi - bu shunday bir malakalar yiqindisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z

fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi"19.

N.N. Tarasevich esa o'zining "Pedagogicheskaya texnika - kak element" nomli risolasida pedagogik texnika to'qrisida fikr yuritar ekan, shunday deydi: O'qituvchi faoliyatining ichki va tashqi ko'rinishlarini izoqlaydigan usullar, hissiyotlar, psixik holatlar yiqindisidan iborat mahorat -pedagogik texnikadir" 20.

Darqaqiqat usta pedagogik topshiriqlarni oliy darajada bajaradigan pedagoglar faoliyatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar bilish faoliyatlarini tashkil etish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda pedagogik texnika muqim ahamiyat kasb etadi. Chunki, u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilish his-tuyqulari (emotsiyasi) ni boshhara olish, ishtiyoy, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o'quv faoliyatida, ishslash jarayonida qo'llash yo'llarini o'rgatadi.

SHunday qilib, pedagogik texnika ma'lum kasbiy va shaxsiy malakalar yiqindisidirki, u o'qituvchinin pedagogik faoliyati jarayonida ta'sir ko'rsatish, o'quv -tarbiya ishlarini tashkil qilish va boshharishda etakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat nazariyasini o'rganuvchi va tadbiq qiluvchi olimlar (N.N. Tarasevich, N.V. Kuxarev)ning fikrlaricha pedagogik texnika malakalari ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh malakalariga pedagogning nutq texnikasi o'z qatti-harakatini idora qilishi, mimik va pantomimik ifodalari, o'z hissiyoti, hamda kayfiyatini boshharishi, aktyorlik va rejissyorlik mahorati kabilar kiradi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruhidagi malakalari kasb-kor malakalaridan iborat bo'lib, ularga gnostik malakalar, loyiqalovchi malakalar, konstruktiv (jamoaning ijodiy ishlarini tashkil eta olishi, o'quvchi - talabalarini tarbiyalash, o'qitishdagi kasb-korlik) malakalari kiradi. Buni. 1.5.-jadvalda ko'rish mumkin:

### 1.5.-jadval. Pedagogik texnika malakalari

Pedagogning shaxsiy-kasbiy malakalari	Педагогнишг қасб-кор малақалари
<p>1. O'qituvchining nutq texnikasi</p> <p>2. O'qituvchi faoliyatidagi mimik va pantomimik ifodalari</p> <p>3. O'qituvchining aktyorlik va rejissyorlik malakalari</p> <p>4. O'qituvchining o'z hissiyotini boshhara olishi</p>	<p>1. Gnostik malakalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- muqim va asosiy masalani ajratish;</li> <li>- o'quv materialini tizimlashtirish;</li> <li>- qo'shimcha manbani aniq belgilash;</li> <li>- mavzuga doir didaktik materialni tanlay olish;</li> <li>- dalillar keltira olish.</li> </ul> <p>2. Loyiqalovchi malakalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quv ma'lumotini aniq bayon etishni rejalashtira olish;</li> <li>- savol-javob topshiriqlarini to'qri tuza olish;</li> <li>- izlanish xarakteridagi masalani tuza olish va kuzatish, farazlarni qo'ya olish.</li> </ul> <p>3. Konstruktiv malakalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- fikrni mustaqil ifodalashga o'rgata olish;</li> </ul>

- |  |   |
|--|---|
|  | <ul style="list-style-type: none"> <li>- javobni asoslash va dalillashga o'rgata olish;</li> <li>- nazariy va amaliy ma'lumotni boqlashga o'rgata olish.</li> </ul> |
|--|---|

Jadvalda keltirilgan pedagogik texnikaning malakalari o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish va ma'lumotlarni o'zlashtirishga aniq yo'llash, topshiriqlarni aniq qo'llash va nazorat qilish, jamoa va ayrim shaxslar bilan ishchi munosabatda bo'la olish, savollar qo'ya bilish, o'z kayfiyati, qattli-harakati, emotsiyasini boshhara olish kabi usullardan o'rinni foydalanishda amaliy yordam ko'rsatishidan dalolat bermoqda. CHunonchi, texnika - usullar yiqindisi bo'lgani kabi, pedagogik texnika ham o'hishni o'rgatish, ta'sir ko'rsatish, o'rganish, munosabat bildirishning ta'lif va tarbiya usullari yiqindisidir.

Эndi, o'qituvchi pedagogik texnikasi malakalarining hisqacha tavsifnomasi bilan tanishib chihamiz.

I.O'qituvchi pedagogik texnikasining muqim malakalaridan biri uning nutq texnikasi. (Nutq tempi, diktsiyasi, (tovushning baland, o'rtal, past qila olishi ) nutq tembridir.

O'smirlar o'qiydigan guruhlarda o'qituvchining holati raqbar degan so'z bilan ifodalanishi mumkin. V. Dal' bu so'zni quyidagicha, ya'ni ko'rsatuvchi, murabbiy, ish boshi, boshlovchi deb ta'riflaydi. Pedagoglarning o'smirlarga ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga raqbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat o'z-o'zini tashkil qilishning ko'proq ulushini o'ziga hamrab oladi, bu esa o'qituvchining ta'lif-tarbiya jarayoni raqbari sisatida talabalarga qo'yadigan talablarini mazmunini belgilab beradi. O'smirlar pedagogik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun mavzu talabiga nisbatan o'qituvchi va talabanining bir xil yo'l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai nazaridan qiziharli bo'lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo'lishi zarur, yoxud hissiyotlarni engillashtirish va qokazolar uchun kerak, boshqacha so'zlar bilan aytganda, jamoa faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks holda talab samarasiz bo'lib holadi.

Katta yoshdagi o'smirlarga nisbatan o'qituvchi, qomiy yoki tarbiyachi holatida turadi, bu so'zlar V. Dal' luqatida "qomiylik qiluvchi, hamxo'r, serharakat inson" sisatida ta'riflanadi.

Talabalar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa u gapirishni bilishi lozim. Gapirishni, muloqot qilishni doimo o'rganib borishi kerak. Bu o'rinda ikki savol tuqiladi: "nimani o'rganish kerak" va "qanday o'rganish kerak"

Pedagog jamoa, talabalar guruhi, ayrim talabalar bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suqbat, ma'ruza, qikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman butun ta'lif-tarbiya jarayonida talabalar bilan hamkorlikni yo'lda qo'ya olishi lozim. Talabalar bilan gaplasha olish (har qanday shaklda), muayyan qoidalarni bilish va bu qoidalarni amalga oshirishni muayyan usullarini egallashni nazarda tutadi. Ularni ko'rib chihamiz:

Talabalar jamoasi bilan muomala ko'pincha suqbat, ma'ruza, axborot va qokazolar shaklida bo'ladi. Xo'sh, bu muomala samarali bo'lishi uchun nimalar zarurq

Birinchi navbatda suqbatni qaysi so'zdan boshlash, qanday qilib darhol o'qituvchining gaplariga talabalarning diqqatini tortish, ularni qiziqtitirish mumkinligi haqida gapirib o'tamiz. Buning uchun bir necha usullar bor. Gapni masalaning qo'yilishidan boshlash mumkin, bu masalada bo'lajak suqbatning ma'nosini mujassamlashgan bo'ladi. Mavzuga diqqatni tortishiga urinib ko'rish ham mumkin, бунда gapni erkin, qiziharli faktini ma'lum qilishdan boshlasa bo'ladi, keyin uni tushuntirish va taqlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Tegishli mahola yoki tsitata keltirish ham muvaffaqiyatli bo'lib chihishi mumkin. Bundan tashhari, darhol talabalarga bo'lajak suqbat ularning qizihishlari bilan (jamoaning yoshi, xususiyatlari asosida) boqliq ekanligini aytib o'tsa ham bo'ladi.

Mana suqbatga talabalarning diqqati jalb qilindi, ham deylik, endi uning mavzusini ancha hisqa, lekin etarli darajada aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin. Masalan, suqbatni tuzishning bunday varianti bo'lishi mumkin. Dastlab, pedagog talabalar ongi va hissiyotiga etkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr hisqacha bayon etiladi. So'ngra u ochib beriladi, buning uchun faktlar, misollar va illyustratsiyalar tizimi bayon qilinadi. Bunda erkin taqqoslashlar,

kutilmagan o'xshatishlardan foydalanish juda foydali bo'ladi. SHundan keyin xulosa chiharish, ya'ni suqbatning asosiy fikrini boshqacha so'zlar bilan takrorlash mumkin.

Muomala maqsadini bu xilda ta'riflash talabalar muomalasining asosiy ikki turi: rollararo va shaxslararo muomalaning nisbiy mustaqilligi sharoitida uning dialektik birligini ko'rsatib beradi.

Rollararo (analiy) muomala tashkiliy faoliyatning har - xil turlari jarayonida amalga oshiriladi. Faoliyat qatnashchilarini uning maqsadiga, bir-biriga munosabati, xarakteriga harab ular o'rtasida sheriklik yoki o'rtoqlik muomalasi vujudga keladi. O'rtoqlik muomalasi faqat faoliyat qatnashchilarining o'zlapni emas, balki xodimlarining faoliyat maqsadiga erishishdagi o'zaro yordami, qayrixoqligi va mansaftorligini nazarda tutadi.

SHaxslararo (erkin) muomala tashkiliy faoliyatdan tashhari amalga oshiriladi. Muomala qiluvchilarning hissiy ko'ngil boqlashuviga harab tanishuv, oshna-oqaynigarchilik, do'stlikni farqlash mumkin.

Talabalar muomalasining mazmun tomoni, ular faoliyatining butun xilma-xilligi bilan belgilanadi. har bir yoshdagagi talabalar uchun muomalaning o'ziga xos hissiy-ma'naviy qoyasiga xosdir. Muomalaning asosiy qoyasidagi farq shunda namoyon bo'ladi, u har bir yosh bosqichida talaba shaxsining shakllanishi va rivojlanish xususiyatini belgilab beradigan etakchi ijtimoiy munosabatlarni asosiy munosabatlar sifatida o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, talabalar muomalasining mazmuni o'ziga turmushning buyumlar soqasini, hayotning voqeiy qatlamini, qoyaviy-aqloqiy muammolari va hissiy-aqloqiy soqasini hamrab oladi. Yoshga harab har bir qatlarning aniq mazmuni va ularning o'zaro nisbati turlichadir. har bir yosh bosqichidagi muomalaning bosh qoyasi talabalar muomalasining asosiy mazmuni aks ettirib, muomala mazmunining, u yoki bu tomoni ustun bo'lishini belgilab beradi va asosan uning xilma-xil bo'lishini cheklamay, talabalar uchun ichki sub'ektiv jihatdan ahamiyatli bo'lgan rejani tashkil etadi.

Muomalaning asosiy qoyasi va mazmuni bilan boqliq ravishda muomala darajalarini harab chihish maqsadga muvofiqdir, ular talabalar muomalasi, ob'ektiv mazmunining chuqurligini aks ettiradi. Muomalaning to'rtta darajasini ajratib ko'rsatish mumkin: faktik, axborot, munozaraviy va oshkoraviy.

Muomalaning faktik darajasi - bu suqbatni qo'llab-quvvatlash uchun nutq ayirboshlashdir, buning natijasida suqbatdosh bilan aloqa o'rnatish mumkin bo'ladi. U individ (talaba)ning atrofdagilar bilan munosabatda o'zini qulay his qilishini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan muqim vazifani bajaradi.

Muomalaning axborot darajasi - talabalar o'rtasida ham rollararo, ham shaxslararo muomalada ro'y beradigan qoyat turli-tuman xossaga ega bo'lgan axborot bilan doimo almashinib turishdir. Bunda talabalarning aqliy qizihishlari doirasiga juda xilma-xil axborotlar jalb qilinadiki, ularni talabalar ta'lim-tarbiya jarayonida, o'qituvchilardan, boshqa turli-tuman manbalardan oladilar.

Muomalaning munozaraviy darajasi shu sababdan vujudga keladiki, talabalar bir vaqtning o'zida bir qancha birlashmalarga kiradilar va o'ziga xos shaxs bo'lib, faqat shaxsiy axborot tashuvchilar va u yoki bu faktlarga shaxsiy tarzda izoq

beruvchilarga emas, balki normalar va qadriyatlarga ham izoq beruvchilar hisoblanadilar. Natijada, talabalarning o'zaro muomalasida turli nuqtai nazarlar to'qnash keladi. Bu to'qnashuvda u yoki bu faktlarga, voqealarga va qokazolarga izoq berish imkoniyatu aniqlanadi. Munozaraviy daraja faoliyatning har - xil ko'rinishlari jarayonida talabalarning muomalasida katta rol o'yndaydi. Chunki faoliyat maqsadiga erishish odatda sheriklarning shaxsiy kuch qayratlarini kelishib olishni talab qiladi, bu esa odatda munozara jarayonida sodir bo'ladi.

### 2.3. Kayfiyatni boshharishda pedagogik mahorat. Pedagogning muomala jarayonidagi ruqiy holati va uni boshharish yo'llari.

Hamma ishda va har qanday  
suqbatlarda sabr-qanoatli bo'ling.  
J.Lebbok

Talabalar bilan bo'lajak muomala oldidan pedagogning ijodiy kayfiyatini qosil qilishida uning o'qub materialiga hissiy munosabatini ifodalashining tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muqim rol o'yndaydi: bular tegishli imo-ishoralar, yuz harakatlari, gapirish oqangidir. O'quv materialiga o'z munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini o'ylab olish, tabiiyki, darsga, tadbirga shunday psixologik tayyorgarlik ko'rishga tayanadiki, uning tarkibiy hismlari sanab o'tilgan. Darsda, tadbirlarda o'z fikrlari, his-tuyqularini qanday qilib yaxshiroq va erkinroq gavdalantirish ustida muloqaza yuritar ekan, pedagog bo'lajak faoliyat vaziyatiga kirib boradi, unga chorlanadi, uning shakllarini his qiladi, faoliyatga bo'lgan o'zining hissiy munosabatini etkazish vositalarini izlaydi, izlaganda ham faqat shakl qosil qiluvchi vositalarni (intonatsiya, yuz harakatlari va shu kabilarni) emas, balki mazmunli vositalarni qidiradi, bu ayniqsa muqimdir. Mazmunli axborotda faqat mantiq va dalil-isbotlarni o'ylab o'tirish bilan cheklanmasdan, hissiy o'zakni alohida ajaratib ko'rsatish zarur.

Muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish va saqlashning muqim vazifasi pedagogning materialga o'z hissiy munosabatini ifodalashda topgan tashqi shakllarini mustaqamlashdir, u pedagog tomonidan quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi: darsning borishini, tadbirni fikran esga tushirish; ko'zgu oldida takrorlash; namuna sisatida san'at (adabiyot, kino, rang tasvir) asarlardagi vaziyatlardan foydalanish.

O'zining materialga bo'lgan hissiy munosabatini ifodalashning puxta shakllari (ularga hamisha bu shakllarni gavdalantirishning bevosita vaziyati tuzatish kiritadi) pedagogga faoliyat va muomalaning o'zgarib borayotgan sharoitida jadal va samarali harakat qilish va (bunisi ayniqsa muqim) darsga tez va samarali chorlanish imkonini beradi, chunki o'zining hissiy munosabatini ifodalashning puxta shakllarini (ularni pedagog qayrat bilan esga tushiradi) unda ularni izlashning jo'shqin jarayoni lo'qrisida xotiralar uyqotadi, bu bilan uning ijodiy kayfiyatini raqbatlantiradi.

Ijodiy kayfiyatni boshharish jarayonining qoyat marakkab bo'qini guruhi bilan bo'ladiqan bevosita muomaladan oldindi paytidir. Ijodiy holatni tashkil etish yuzasidan ilgari amalga oshirilgan butun ish o's ta'sirini ko'rsatadi. Pedagog bo'lajak ishning maqsadiy muqimligini anglash orqali bu ishga o'zinu ilqomlantiradi. O'zi

uchun yangi maqsadlar va boqlanishlarni belgilab olishi lozim, bundan ko'zda tutilgan maqsad - o'quv-tarbiyaviy material asosidagi bo'lajak faoliyatning o'zi uchun yangiligi, maroqlilagini sezishdan, bo'lajak ishning ijodiy xarakterini his qilish va anglab etishdan, startoldi tayyorgarligining sharti bo'lgan bundan oldingi holatni boshharishdan, tetik kayfiyatga erishishdañ iboratdir. Pedagogning startoldi tayyorgarligi uning auditoriya bilan o'zarlo fikr almashuv faoliyatiga bevosita qo'shilishi bosqichida ijodiy kayfiyatning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishidir. O'qituvchi mazkur dars oldidan darsda eng muqim narsa nima ekanligini yaxshi biladi. U bamisol o'z oldida guruhni ko'rib turadi va dars mavzusiga muvofig ravishda o'ziga darsning vazifasini aniqlab oladi, darsda belgilangan mantiqni takrorlaydi, belgilangan narsalarning so'zsiz bajarilishi uchun yo'l-yuriq beradi, o'zi nazorat qiladigan, tayanadigan va ish doirasiga tortadigan talabalarning nomlarini aniqlaydi. Ko'pincha dars ishlanmalarini ruxiy jihatdan ko'rib chihish yoki tajriba, eksperimentning тайёрлигини текширish yordam beradi, o'z-o'zini tezda tekshirib ko'radi: mendagi hamma narsa tayyormiq Psixologik yo'l sizning ongingizdan (mazkur dars uchun ortiqcha, aslida bo'lмаган narsalarni chiharib tashlaydi; u fikr usqini yorishtirib, uning asosida faqat darsning silueti loyiqalashtiriladi, shunda sizni sabrsizlik hamrab oladi: uddasidan chiharmikanman va uddasidan chihishni istayman! -degan aniq tilak paydo bo'ladi. Darsda biror narsa unchalik chiqmasligi ham mumkin, lekin psixologik yo'l sizning ana shunday ish kaysiyatizingizni boshlab bergen bo'lib, na unda darsning tarkibiy hismlarini qayta guruhashni amalga oshirishni uddalaysiz, ular o'rtaсидаги мantiqiy boqlanishni yo'qotmaysiz.

Talabalar bilan muomalada kishi o'zini boshhara bilishi niqoyatda zarurdir. O'qituvchining darsdagagi yomon, noijodiy kayfiyati darhol umumiy guruhnинг ijodiy kayfiyatiga ta'sir qiladi, birgalidagi faoliyatning samaradorligini pasaytiradi. Ijodiy kayfiyatni boshharishning taklif etilgan tizimi individual o'zlashtirishni, o'z ustida muntazam yo'naltirilgan ish olib borishni talab qiladi.

Talabalar bilan muomala jarayonida va bevosita undan oldin ijodiy kayfiyatni boshharish pedagog mehnatining eng muqim kasbkorlik talabi bo'lib, u pedagogning guruhda, talabalar bilan muomalada va shu kabilarda erkin bo'lishini, qulq-atvorining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy bosqichilariga nisbatan pedagogning ijodiy kayfiyatiga muomala ta'sirining quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) pedagogning guruh bilan bo'ladigan muomalani oldindan payqashi uning ijodiy kayfiyatini safarbar qiluvchi omil ekanligi;

2) guruh bilan bevosita dastlabki aloqa, bevosita muomala paytida pedagog ijodiy kayfiyatining raqbatlantiruvchi omili sifatida;

3) pedagogning guruh bilan muomalasi tizimi; u faoliyati jarayonida pedagogning ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi va raqbatlantiradi;

4) muomaladan qanoat qosil qilish shundan keyingi faoliyatda pedagogning ijodiy kayfiyatini raqbatlantiruvchi omili sifatida.

Pedagogik muomala jarayoni o'zi kechadigan bir qator shart-sharoitlar bilan murakkablashadi, muomala shart-sharoitlari uning xarakteriga umuman ancha-muncha ta'sir qilmaydi, aslida ular muomalaning kasbiy yo'nalishini ko'p jihatdan

belgilab beradi. Muomalaning oshkoraliq vaziyati ko'pgina qiyinchiliklar tuqdiradi. Tadqiqotchilar allaqachon qayd etib o'tganlaridek, kishilar, katta auditoriya oldida muomala qilish, auditorianing gapiruvchiga diqqat qilishiga mo'jallangan bo'lib, boshlovchilar uchun niqoyatda murakkabdir va maxsus tayyorgarlik ko'rmasdan o'tkazilishi mumkin emas. Faqt o'zaro fikr almashuv malaka va usullarini egallashgina muomala jarayonida pedagogning hissiy kayfiyatini ta'minlaydi. "Muskul siqilishi", qayajonlanish bularning hammasi yosh o'qituvchiniнг guruh bilan muomalasini tashkil etishning ilk bosqichini xarakterlab beradi. O'quv materialini juda yaxshi biladigan, pedagogik jihatdan etarli darajada qobiliyatli bo'lgan talaba qiz M. o'zining dastlabki pedagogik tajribalari to'qrisida quyidagi larni yozadi: "Garchi men albatta qayajonlangan bo'lsam ham, darsga qadar menga hamma narsa oddiy bo'lib tuyulg'an edi. Lekin materialni yaxshi bilardim. Guruh ham go'yo shunday edi. qo'nqiroq chalingach, men jurnalni qo'limga olib guruhga otlandim. Ikkinci qavatga ko'tarilib (bu xuddi tiozirgidek esimda), guruhni, ular menga qanday qilib harab turishlarini tasavvur qildimu, meni qo'rquv bosdi. Zinapoyaning oxiriga borganda oyoqlarim allaqanday, qotib holganday bo'lidi. Jurnalni shunday ushlab olgan edimki, chamasi, uni mendan tortib olib bo'lmadsi. Guruhga kirishim bilan (guruh meni yaxshi va samimi kutib oldi) stol oldiga bordim, shunda qo'llarim menga qalaqt berayotganini darhol his qildim. Meni quthargan narsa stulning suyanchiqi bo'lidi. Men uni barmoqlarim bilan maqкам ushlab oldimda, dars oxirigacha uni qo'yib yubormadim. Ovozim ham qandaydir o'zimniki emasdi. Deyarli nafasim siqilib, tishlarim orasidan gapirayotganday edim. Men, shunda, guruh menga unchalik tanish emasligini his qildim. Juda qo'rqib ketdim. Ayniqsa ikkinchi partadagi ikki boladan qo'rhardim. Kuzatishimcha, ular eng xavfli talabalar edi. SHunda qayoqdandir, bilmadim, ularga qanday qilib bo'lsa ham, yohishim kerak degan fikr paydo bo'ldi, o'ylab-netib o'tirmasdan ularning qazillariga javob bera boshladim, xushomad qila boshladim. Guruhga yohish uchun qandaydir qayajonlanib gapira boshladim".

Bu erda sezilib turadigan "muskul siqilishi" yosh pedagogga qalaqt beradi: mushaklarning bo'shashniy jarayoni o'qituvchi kasbiy psixotexnikasining eng muqim tarkibiy hismi hisoblanadi. Bu erda kasbiy-pedagogik muomala asoslarining treningi (mashqi) bo'limida keltirilgan xilm-a-xil mashqlar ham, shuningdek ko'p qirrali jamoati ishi ham foydali bo'lib, bu ish jarayonida kasbiy o'zaro fikr almashuv faoliyat tajribasi qosil qilinadi.

Pedagogning ijodiy kayfiyatini boshharishning alohida bir muqim muammozi bunday kayfiyatni bevosita faoliyat oldidan chaqirish va safarbar qilish noijodiy kayfiyatni engish hisoblanadi va qokazo.

K. S. Stanislavskiy tizimi asosida pedagogning ijodiy jarayonini o'rganish shunga ishonch qosil qildiradi, ijodiy kayfiyatni, ayniqsa, bevosita "insonni muomala bilan boqlangan ijodiy faoliyat turlarida safarbar qilish uchun "jismoniy harakatlар" usulini qo'llash juda istiqbolli bo'lib, u qaqda alohida gapirib o'tish kerak. Bu usulning mohiyati "Muayyan hissiy holatga xos bo'lgan, kishida bu hissiyorlarning o'zi keltirib chiharishga qodir bo'lgan jismoniy harakatlarni bajarishdan iborat bo'lib, mazkur hissiyorlarni ana shu harakatlarni taqozo qiladi".

(SHu narsani esga olaylik: biz qayajonimizni engmoqchi bo'lsak, birmuncha to'xtab, nafasimizni rostlashga, sekinroq harakat qilishga intilamiz, ya'ni shunday harakat qilamizki, xuddi mutlaqo xotirjam paytimizda qanday bo'lsak, o'zimizni shunday tutamiz, natijada qayajonlanish asta-sekin o'tib ketadi.)

Aytaylik, darsga tayyorlangan, tadbirni va shu kabilarni hozirlagan pedagogning bugun guruhda ishlash istagi yo'q, u shunchaki yomon kayfiyatda. Bu o'rinda jismoniy harakatlar usuli qanday yordam berarking "Bordiyu" degan seqrli so'z yordamga kelishi lozim. "Bordiyu, men yaxshi kayfiyatda bo'lganimda, bunday bo'lishi mumkin edi: men tetik, epchil odim tashlab guruhga kirardim. Samimiyl salomlashardim..." Ayni vaqtda pedagog yaxshi kayfiyatda bo'lgan o'zining - pedagogning xatti-harakatlari butun mantiqini jismonan takrorlardi, bu holatga chinakamiga ishonishi kerak. O'zidan kayfiyatni siqib chiharish kerak emas, balki izchil harakat qilish kerak. harakatlar hamisha ham, bizning nazorat qilishimizga bardosh beravermaydi va sekin-asta diqqatni ishga jaib qiladi, begona ta'sirlardan chalqitadi, bizni zarur his-tuyquga, bu o'rinda ijodiy kayfiyatga olib keladi. Bir talaba - qizning o'z ustidan olib borgan kuzatishini keltirib o'tamiz: "SHunday qilib, bugun ertalabdan kayfiyatim yomon edi. qech narsa qilgim, ayniqsa dars bergim kelmasdi. Ta'lim muassasasiga qo'ngiroq chalinishidan ikki daqiqa oldin keldim. O'qituvchilar xonasida uyoq bu yoqlarimga harab olgunimcha kirish vaqtি bo'ldi, o'qituvchilar xonasidan chihishim bilan kayfiyatim yaxshi, juda dars bergim kelyapti, guruhda meni kutishyapti, men ana shundayman degan harorga keldim. Men endi yo'lak bo'ylab tetik, dadil odim tashlab boryapman, o'zim juda samimiymen, salomlashaman va talabalarga tabassum qilaman, men ko'p narsa qilishim kerak, xavotirdaman, bugun o'tadigan materialim qiyin, lekin qiziharli, o'zim bilan birga ko'pgina qiziharli va foydalni narsalar olib kelganman (portfelning oqirligini bis qilyapman) hammasi yaxshi bo'ladi. Guruhga kiraman, tetik va dadil "Salom, talabalar" deyman, o'tiramiz. Talabalar ham qayratli, ozoda kiyinshgan. Dars boshlandi, o'zimning "bordi-yu" degan so'zimni qachon tashlaganimni va darsga berilib ketganimni o'zim ham sezmay holibman. O'zimni juda yaxshi his qildim, kayfiyatim yomonligini uni engish kerakligini unutib yubordim. hammasi ajoyib bo'ldi".

"Jismoniy harakatlar" usulidan foydalanishda bordiyu vaziyatida taklif etiladigan holatlarning yangiligi, hissiy reaktivalarining qudratli vositasidir. Bir vaqtlar qabul qilingan "bordi-yu" so'zini har gal takrorlayverish kerak emas, balki uni yangi vazifalar, nozik farqlar, tovlanishlar bilan ochib berishga harakat qilish, har gal jozibedorlik qilish kerak. Tabiiyki, "jismoniy harakatlar" materialni, guruhnini yaxshi vazifalar qo'yishga ta'sir qilishi lozim.

Pedagogik ijodkorlikda K.S.Stanislavskiyning "jismoniy harakatlar" usulini ro'yohga chiharishinr o'ziga xosligi shundan iboratki, u pedagogga faqat bevosita ijodkorlik (odamlar bilan muomala) boshlanishidan oldin o'zining ijodiy tabiatini safarbar qilishning vositasи sisatidagina zarurdir, keyin esa "bordi-yu" holatidagi "jismoniy harakatlar" mantiqi ijodkorlik vaziyati bilan chinakamiga ma'naviy moyillikka sekin asta o'sib o'tadi, endi "bordi-yu" holatida emas, balki guruh bilan

qaqiqiy muomalada bo`ladi.

Muomalada ijodiy kayfiyatni shakllantirish murakkab jarayondir. Bu erda ko`pincha pedagog zo`rihish (umumiyo`t hissiy zo`rihishning bir turi) tuyqusini boshdan kechiradi, buni pedagogik ijodkorlikning omma o`rtasidagi faoliyat, o`zgarib boruvchi ijodkorlik holati, o`zining psixik holatlarini operativ ravishda boshharish zarurligi, mehnatning o`zaro fikr almashish jihatidan boyligini ko`rsatadi.

Pedagogik ijodkorlik va muomala jarayonida vujudga keladigan bu zo`rihishni, shuningdek boshqa noxush holatlarni engish uchun o`z-o`zini tarbiyalash yuzasidan doimiy ish olib borish zarur. O`z-o`zira ta`sir qilishning bir qator usullari mavjud bo`lib, ulardan eng muqimlari quyidagilardir; o`z-o`zinii ishontirish, o`z-o`ziga buyruq berish, o`z-o`zini majbur qilish, o`z-o`ziga majburiyat yuklash, o`z-o`zini raqbalantirish, o`z-o`zini jazolash, o`z-o`zini mashq qildirish, niqoyat o`z-o`ziga ta`sir qiliishdir.

#### 2.4. Pedagogik muomala madaniyati. Pedagogik muomala usullari.

Birdan-bir qaqiqiy ne`mat  
odamlarning bir-biri bilan  
muloqotidir.

A. Sent -Ekzyuperi

O`qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda qal qilinadi. SHu boisdan hozirgi davrda "Ta`lim to`qrisida"gi qonunlar, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib holmaslikni, balki bo`lqusi pedagogik kadrlarda shaxsiyatga yo`nalganlikni tarkib toptirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta`kidlanadi. Respublikamizda o`qituvchilik kasbinining o`ziga xos etnopsixologik fazilatlari, xislatlari, qobiliyatları ish uslublari mahoratga erishishning yo`llari, shaxslararo muomala maromlari yuzasidan har xil davrlarda bir munkha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muomalaning tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro`yobga chiharish ko`p jihatdan o`qituvchining shaxsiy sifatlari bilan belgilanishini aytib o`tish kerak. Pedagogik muomalaning to`qri tanlangan, pedagogning betakror individualligiga muvosiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini qal qilishga yordam beradi:

birinchidan, pedagogik ta`sir ko`rsatish pedagog shaxsi bilan ayni bir narsa bo`lib holadi, auditoriya bilan muomalada bo`lish jarayonining o`zi soddalashadi, u pedagogning o`zi uchun yoqimli, uzviy bo`lib holadi;

ikkinchidan, talabalar bilan o`zaro munosabatlarni yo`lga qo`yish jarayoni ancha engillashadi;

uchinchidan, pedagogik muomalaning barcha eng muqim vazifalarining, samaradorligi ortadi, shu bilan birga bularning hammasi muomalaning barcha bosqichlarida pedagogning hissiy xotirjamligining ijobiyl negizida ro`y beradi.

Talabalarda muomalalarning individual uslubini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:

1. Talabalar muomalasi individual uslubining xaqiqiy shaxsiy xususiyatlarini

o'rganish va ularni talabalarning anglab etishi. Talabalarning mustaqil taqil qilishi, o'zaro har tomonlama tafsifnomalari, o'qituvchilarning kuzatishlari asosida amalga oshadi. Talabalar shu maqsadda "Men boshqa kishilap bilan muomalada qandaymanq" mavzuida insho yozadilar, bir-birlariga shunga o'xshash mazmunda tafsifnoma tayyorlaydilar va qokazo.

2. SHaxsiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham topitirish yuzasidan qilinadigan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni engish.

3. Pedagog uchun muomalaning hissiy jihatdan quay bo'lgan uslubini ishlab chihishga doir topshiriqlar va ularni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan taqqoslash.

4. Muomalada o'z individual uslubi asosida pedagogik muomala tarkibiy hismlarini egallash (maxsus mashqulotlarda) soqasidagi ishlar.

5. O'z muomala uslubiga muvosiq ravishda pedagogik muomaladan iborat yaxlit qodisani biliq olish borasidagi ishlar va muomala uslubiga aniqliklar kiritish (maxsus mashqulotlarda).

6. qaqqiy pedagogik faoliyat individual uslub asosida talabalar bilan muomala qilish, bu uslubni mustaqamlash (pedagogik amaliyot va stajirovka jarayonida). Ishni endi boshlayotgan o'qituvchi individual muomala uslubini shakkantirish ustida muntazam ish olib borishi zarur.

Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muomalaning jihatlari muqim rol o'ynaydi, ular pedagog bilan talabalarning bevosita o'zaro harakati bilan boqliqdir. Bu o'rinda bir necha bosqichlar ajaratib ko'rsatiladi.

Birinchi bosqich - bu tarbiyachining tarbiyaviy jarayon vaziyatidan xabardorligidir, bu jarayon o'ziga pedagogning xotirasida guruh bilan muomalaning oldingi xususiyatlarni tiklashni, muomala vaziyatini qayd etishni, uni o'zaro harakatning oldingi vaziyati bilan, bu harakatning ilgari rejalashtirilgan andazasi bilan tezda qiyoslab chihishni, o'z muomala uslubiga aniqlik kiritishni hamrab oladi. SHuni nazarda tutish kerakki, bu bosqich juda tez kechadi va xuddi shu bosqichda zarur so'z, ogang, qulq-atvor vujudga kelishi lozim.

Ikkinci bosqich: Pedagogik muomalaning samarali jarayoni uchun uning shart-sharoitlarini biliq olishning o'zi kifoya qilmaydi. Talabalar bilan o'zaro harakatning boshlanishi o'zaro fikr almashishga doir yana bir muqim vazifani qal qilish bilan muomala ob'ektining diqqatini o'ziga jaib qilish bilan boqliqdir. Muomala ob'ektining, ya'ni talabaning diqqatini o'ziga jaib qilish deganda nimani anglash kerakq Buning ma nosi bo'lajak o'zaro harakatga, ta'limning rejalashtirilgan usullariga, tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olish, darsni o'tkazish uchun zarur bo'ladigan talabalar diqqatini jaib qilishdir. Ko'pincha yosh pedagoglar, talabalar har doim o'qituvchiga o'z diqqatlarini haratishlari lozim deb hisoblaydilar va o'zaro fikr almashishga doir bu muqim vazifalarini sobit qadamlik bilan qal qilmaydilar.

Ko'rsatib o'tilgan bevosita muomala bosqichlari pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil, har bir ko'rinishida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil etganda ularni nazarda tutish kerak bo'ladi.

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni tashkil etishda muomalaning ahamiyati bilan boqliq ravishda pedagogik muomala madaniyatiga, tarbiyachining dilkashligiga alohida talablar qo'yiladi, dilkashlik unda kasbkorlik fazilati sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi jamoa, gurux va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muomala qila bilishi, uni talabalar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshhara bilishi lozim. Kasb-korga oid pedagogik dilkashlikning yosh o'qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: talabalar bilan turli soqalarda muntazam muomala qilishda barharor ehtiyojning mavjudligi, muomalaning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi, o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi.

Mamlakatimizning o'qituvchisi quyidagi tomonlari bilan keskin darajada ajralib turishi lozim:

- mustaqil respublikamizning talablari va ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak ma'naviyat darajasidagi harashlar, kuchli va barharor e'tiqod, buyuk davlatimiz ideallari, milliy qoya va istiqlol maskurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyqulari shakllanganligi, jamoaviylik hissini mukammal aks ettiruvchi, ijtimoiy-siyosiy faol shaxs ekanligi;

- bolalarga, o'quvchilarga, qattoki jamiyatimizning barcha a'zolariga ham otash, ham samimiy meqr - muqabbat, ularning har qanday ehtiyojlar, qizihishlari, qattি-harakatlari motivlari, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi, malakasi va uquvining mavjudligi;

- jamiyat qodisalar, holatlari, tabiat va vogeliklari, borliqqa, shaxslararo, guruhiilararo, millatlararo munosabatlari nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, ya'ni pertseptiv (idrokka nisbatan sezgirlik) qobiliyatga egaligi;

- hayot va faoliyatning u yoki bu jabqalarida odamlarning qattি- harakatlari, munosabatlari xususiyatlarini oqilona tushunish ularni identifikasiyaga, refleksiyaga yo'llashga qobiliyatlari;

- favqulotdagi vaziyatlarda, o'zgaruvchan shart - sharoitlarda omilkorlik bilan mo'ljal olish, maqsad qo'yish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshharish va o'z-o'zini namoyon etishga qobiliyatiligi;

- pedagogik faoliyatda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshharuvchanlik qobiliyatini egallanganligi;

- umumiylar qizihishi ko'laming kengligi, bilishga oid qizihishlarning serqiraligi, ilmiy izlanishlarga layoqatliligi, muayyan saloqiyat, mahorat darajalariga erishganligi;

- muomala maromi, nutq madaniyati, mantiqan ixcham, ma'nosи kuchli, ta'sirchan fikr uzatish, ta'sir o'tkazish uquvi bilan qurollanganligi;

Fikrimizcha, zamonaviy o'qituvchi muomaladoshiga to'qri, omilkor axborot uzatishi va unga suqbatdoshini ishontira bilishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi.

tarbiyalashning o'zaro fikr almashish aloqasiga doir quyidagi dasturini tavsiya etish mumkin.

1. Kasbkor jihatidan o'z-o'zini anglashni (muomalada o'zining o'zaro fikr

almashishga doir sisatlarini, ijobjiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashning dasturini ishlab chihish. Bu o'rinda o'z shaxsiga quyidagi yo'naliishlarda baqo berish, tajribani taqlil qilish, talabalar bilan maqsadga muvosiqdir, kishilar bilan bo'lgan muomalada olingan sezgilar tajribasini taqlil qilish, kishilar bilan bo'lgan muloqotda oldingi muomalaning hozirgi darajasini taqlil qilish, muomala haqida o'zining ideal tasavvurlarini taqlil qilish, sizning muomaladagi imkoniyatlaringizni boshqalar (talabalar, o'qituvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarni taqlil qilish.

2. O'zida dilkashlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlap asosida ishlash.

Z. Talabalar va kishilar bilan xilma-xil jamoat ishlari olib borish, bunda o'zaro fikr almashish faoliyatining tajribasi (ma'ruzalar, suqbatlar) qosil bo'ladi.

4. Muomalada salbiy kayfiyatlarni engish tajribasini shakllantiradigan va dilkashlikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

Taklif etilgan bu tizimga tayanib ish ko'rish pedagogning kasbkorga oid shaxsiy fazilati bo'lgan dilkashlikni shakllantirishni tezlashtiradi.

## 2.5. Pedagogik mahorat tizimida ishontirish va ta'sir ko'rsatish usullari.

Suqbatda vazminlik va  
o'rinli gapirish, gapga  
chechanlikdan yuqori turadi

F. Bekon

Inson dunyoga to'liq shakllangan fe'l-atvor, axloqiy xususiyatlar dasturi bilan tuqilmasligi, unga xos fazilatlar, axloqiy me'yorlar ijtimoiy hayot va oilaviy tarbiya maqsuli ekanı barchaga ma'lum. Barcha zamonlarda xalqlar markaziy ko'cha, maydon va xiyobonlarni millatning jasoratli farzandlari nomi bilan atab kelgan.

Ular orasida mardlik namunalarini ko'rsatgan sarkardalargina emas, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot kabi soqalarda jasoratli mehnat qilganlar ham oz emas. Demak, jasorat kash tanlamaydi. U ijtimoiy-ma'naviy muqit, maqsadli va izchil tarbiya maqsulidir. SHunday ekan, oila va o'quv maskanlaridagi muqitni yanada takomillashtirish orgali farzandlarimizni ishontirib va ta'sir qilib tarbiyalash mumkin.

Avvalo, o'qil - qizlardagi qo'rquv, ikkilanish va jur'atsizlikni engishga o'rgatish lozim. CHunki, bolani suvga tushirmay suzishga o'rgatib bo'lmaydi. Darqaqiqat, bolalarni dadillik va jasorat talab etadigan vaziyatlarda sinamasdan ulardagi qo'rquv va jur'atsizlikni engish mushkul.

Agar biz yoshlаримизни jasur, mard, qo'rmas etib tarbiya qilmoqchi bo'lsak, bu ishga boshqacha yondashuv kerak bo'ladi. CHunki tarbiya tarixining, demak, jasorat tarbiyasining romantik bosqichi onda holgan. Taraqqiy etgan davlatlar allaqachon uning texnologik bosqichiga o'tib olgan.

Farzandlarimizni oqil va dono, faol va uddaburon, mard va jasur etib tarbiyalash, avvalo, ota-onaga hoqliq. Biz ularni eng zamonaviy ilqor bilimlar bilan qurollantirishga harakat qilamiz. Endi tarbiyaning yangi tamoyili - shaxs, davlat, millat manfaatlariga xizmat qiledigan eng muqim fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi yaratilmoxi lozim. CHunki bilim - masalliq bo'lsa, fazilat - olovdr.

Olosviz ovqat pishmaganidek, yoniq qalb, bukilmas iroda, tetik ruq, cheksiz jasorat va soqlom aql bo'lmasa, zamonaviy bilim va texnologiyalarni hayotga tadbiq etish ham, yangi kashfiyotlar yaratish ham amrimahol.

SHunday ekan, biz farzandlarimizni er yuzining eng ishonchli yoshlari etib tarbiyalashimiz kerakmiq! Agar shu ishga qafsalamiz, irodamiz etsagina, biz eng peshqadam millatlar qatoridan o'rin olishimiz mumkin. Aks holda ularga kashfiyot, maqsulot sotib emas, sotib olib yashashga to'qri keladi. Buxoriy, Farqoniy, Beruniy, Xorazmiy, Moturudiy ajdodlari bunga ko'narmikanq!

Ishonishing otasi - aql, onasi - yurak. Ishonch insoning fikrida sodir bo'ladi, so'ngra til va xatti-harakat orqali amalga ko'chadi. SHuning uchun o'zbek milliy pedagogikasi darqalari aql tarbiyasini muallimlar vijdoniga yuklangan muqaddas vazifa, deb ta'kidlab kelgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy fikr tarbiyasi haqida bunday degan edi:

Fikr, agar yaxshi tarbiya topsa,

Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkir.

Fikrning oynasi olursa zang,

Ruqi ravshan zamir o'lur benur.

Bu yo'lda qanchalik ko'p pedagog elkadosh bo'lsa, usul va vositalar qanchalik turlicha qo'llanilsa maqsadga erishish shunchalik tezlashadi.

Pedagogika o'z usullarini yo'q narsadan yaratmaydi, ularni o'ylab topmaydi. U hayotdan kishilar qulq-atvorining real omillarini, talabalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalananadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi talabalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalilaniladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga haratilgan bo'lib, talabalarning qulq-atvorini raqbatlantiradi, ularning qiyin va murakkab vazifalarini quvondi ijodiy zavq-shavq manbaiga, ularning shaxsiy muddaolariga aylanadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari talab, istiqbol, raqbatlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir.

Talab - tajribada juda keng tarqalgan usul bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo'lish yo'li bilan u yoki bu qatt-i-harakatlarning raqbatlantirilishi yoki to'xtatilishini ta'minlaydi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli bo'lgan talab bilan jamoani tashkil etish usuli sifatidagi yagona pedagogik talablarni bir-biridan sarqlash kerak. Agar yagona pedagogik talablar talabalarning ijtimoiy foydali faoliyatini raqbatlantirish mazmunini va jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan talabalarning harakatlari birligiga erishish yo'llarini ta'minlasa, talab esa qulq-avtor va faoliyat normalarini, talabalarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir.

Istiqbol - ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u talabalarning qattiharakatlarini, ular oldiga maroqli maqsadlar qo'yish yo'lini ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qizilish va muddaolariga aylanadi. Bu usul ta'lim muassasasi talabalarida shaxsning eng muqim fazilatlaridan biri bo'lgan

maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Raqbatlantirish va jazolash - tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, talabalar qulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali qattি-harakatlarni qo'shimcha raqbatlantirish va tarbiyalanuvchilarни номақбул qattি-harakatlarini тоxtatishni ta'minlaydi, bunda ularning huquq burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta'sir ko'rsatish yo'lidan foydalaniladi.

Raqbatlantirish va jazolash usuli o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli (bu qaqda quyiroqda gap boradi) uni qo'llash alohida eqtiyotkorlikni, pedagoglarning sezgirligi va xushmuomalaligini talab qiladi.

Jamoatchilik fikri - ta'sir ko'rsatishning quadratli usuli bo'lib, talabalarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam raqbatlantirib borishni ta'minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to'liq amalga oshiradi. Bu usul jamoa a'zolarining ijtimoiy faolligini va o'rtoqlarcha birdamligini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini alohida-alohida tasvirlashga o'tishdan oldin ularni muvaffaqiyatli qo'llanishning umumiyoq qoidalarini harab chihamiz; Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti - pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatlarning chinakam insonparvarligidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari o'z tarbiyalanuvchilarini taqdiringa beparvo bo'lgan kishilar qo'lida sof kasbekorlik vositalari majmui emas, bu usullar bir jamoa bo'lib, yagona intifishlar, umumiyoq ma'suliyat bilan birlashgan jonli kishilarning jonli munosabatlaridir.

qattiqlik va toshbaqirlikni, rasmiy ma'muriyatchilikni o'zining talabalar bilan munosabati normasiga aylantirgan kishilar qoqiqiy pedagog bo'lolmaydilar. Bizning sharoitimidza faqa pedagoglar bilan talabalar o'rtasidagi o'rtoqlarcha munosabatlarni rivojlantirishga va mustaqkamlashga haratilgan yo'lgina pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosi bo'lishi mumkin. Binobarin u yoki bu usullarni qo'llash har holda talabalarning faoliyatida faqat juz'iy o'zgarishlarga olib kelmay, shu bilan birga hamisha pedagoglar bilan tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga faol xizmat qiladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usulini qo'llashning ikkinchi umumiyoq qoidasi shundan iboratki, bu qoida oqilona tayyorlangan bo'lishi lozim, uni qo'llash esa amalga oshirish uchun shart-sharoitning mavjudligini nazarda tutadi.

Talabalarning real imkoniyatlari, ularniig tarbiyachi raqbatlantiradigan ishiarni bajarish qobiliyatini hisobga olish pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalaridan foydalanishdagi shaxsiy yondashuvnini mohiyatini tashkil etadi. Ba'zan, u yoki bu pedagogik ta'sir natijasiz holadi, chunki pedagog uning amalga oshirilishi uchun zarur moddiy vositalarning mavjud bo'lishini oldindan ta'minlamagan bo'ladi. Masalan, barcha talabalar ham ishga zarur bo'ladigan asboblar bilan ta'minlangan emas, o'qituvchi esa ularga navbatdagi topshiriqni bajarishni taklif qiladi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishda talabalarning yoshi va individual xususiyatlarini ahamiyatga egadir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ta'lim-tarbiya jarayonining u yoki bu usulini to'qri

tanlash va uni qo'llanishining muvaffaqiyati pedagogdan pedagogik vaziyatni bilish va hisobga olishni talab qiladi. Pedagogik vaziyat pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari uchun o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun zarur bo'lgan qal qiluvchi shart-sharoitlarni aytib o'tamiz. Bu avvalo, tarbiyalanuvchi bilan pedagogning munosabatlaridir. Bu munosabatlar doimiy bo'lib holmaydi, ular o'zaro muomala jarayonida birlashtirilishi faoliyatda rivojlanadi va boyib boradi. SHu narsa mutlaqo ravshanki, o'rtoqlarcha munosabatlarda ta'sir ko'rsatish usullaridan biri ta'sirchan bo'ladi, betaraf yoki salbiy munosabatlarda (bunday munosabatlar ham bo'lishi mumkin) boshqa usul, boshqa shakl kerak bo'ladi.

So'ngra tarbiyalanuvchilarning pedagog taklif qilgan faoliyatga munosabati muqim shartlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, talabani oson va echimli ish bilan shuqullanishiga majbur qilish - boshqa gap, uning jiddiy, odatdan tashhari mehnatni bajarishiga erishish esa, butunlay boshqa bir gap.

Ko'p narsa tarbiyalanuvchining jamoadagi mavqeiga boqliq bo'ladi. U qali yangi bo'lishi, an'analar va o'rtoqlarining qiliqlarini bilmasligi mumkin. Jamoa hayotning hamma soqsida tajribasi bor bo'lishi ham mumkin. Birinchi holda ham, keyingi holda ham tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatish usulli bir xilda bo'lishi mumkin emas.

Niqoyat, hamisha talabalarning ruqiy holatini hisobga olishga to'qri keladi, pedagog ularga biror topshiriq bilan murojaat qiladi: talabalar quvnoq va vazmin bo'lishlari, biror narsadan ranjib jaqlulari chiqqan bo'lishi ham mumkin. Bu ham yana ta'sir ko'rsatish shaklini tanlashga asos bo'ladi.

Pedagogik vaziyat bilan u taqozo qilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish usulining biror shakli o'tasidagi boqlanish muqim ahaliyatga egadir. Bu aloqadorlikni tushunish tarbiyachilarغا о'з harakatlarda ko'proq samaradorlikka erishish, ularni ongli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning ayrim usullarini harab chihishni talab usulidan boshlagan ma'qul.

Talab - pedagogik ta'sir ko'rsatishning boshlanqich usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini raqbatlantirishni yoki to'xtatishni va aniq amaliy hamda aqloqiy sifatlarini namoyon qilishni taminlaydi.

Talab qilish usuli talabalarning ko'pgina aqloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi, lekin tarbiyalanuvchilarda o'ziga nisbatan ma'suliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Yagona pedagogik talablarni harab chihar ekanmiz, faqat bizning insonparvar jamiyatimizdagina xalqning ma'naviy-siyosiy birligini mustaqamlashda pedagogik talab tarbiyaning ta'sirchan usuliga aylanishini ayтиб o'tgan edик.  
Pedagogik talablar

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usulli bo'lgan talabning ahamiyati nimadan iborat ekanligini harab chihamiz.

O'qituvchi talabalar bilan ishlab, ularning faoliyatini tashkil etar ekan, o'z ko'rsatmalari bilan talabalarning ayrim harakatlarini raqbatlantiradi. Ish jarayonida ularga muayyan muloqazalar bildiradi, tanbeq beradi yoki raqbatlantiradi, yakun yasaydi. Uning ayrim buyruqlari hisqa va lo'nda bo'lib, sezilar-sezilmas majbur

qilish rolini o'ynasa, boshqalari ancha keng tushuntirish yo'l-yo'riqlap shakliga ega bo'ladi. Ayrimlari talabalarni faqat ishga jabr qilish zarurati tufayli, boshqalari talabalarning ayrim ko'nikma va malakalarни o'zlashtirishiga tuzatish kiritish ehtiyoji bilan vujudga kelgan; bir xillari talabalarning keraksiz va noto'qri harakatlarini to'xtatsa, boshqalari muvaffaqiyatli harakatlarini mustaqkamlaydi va qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchi tomonidan berilgan barcha ko'rsatmalar va tushuntirishlar, muloqaza va tanbeqlar pedagogik ta'sir ko'rsatishning ana shu eng muqim usuli bo'lgan talab qilishning turli shakllariga aytildi. SHuning uchun ham mubolaqa qilishdan qo'rqmay aytish mumkinki, pedagogning talabisiz talabalarning o'quv va iitimoiy foydali faoliyatini tashkil etishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tajribali pedagog talabalar quzuriga keng harakatlar dasturi bilan birga boradi, o'z tarbiyalanuvchilaridan har biri qachon nima qilishini aniq va muayyan tarzda biladi. Zero, talablar ana shu dasturni ularning ishlari va xatti-harakatlarida amalga oshirish vositasidir. xolos.

Talablar - talabalar jamoasi bilan ishlashning boshlanqich davrida, dastlabki darslarda ayniqsa, muqim rol o'ynaydi. Ana shu bosqichda guruhda ishlarning qanday borishi, u yoki bu harakatlarning talabalar tomonidan qanchalik aniq bajarilishi ham, o'qituvchining talaba bilan munosabatlari qanday yo'lga qo'yila boshlashi ham, talabalar uni obro'li o'rtoq - o'z raqbarlari deb e'tirof qiladilarmi yoki yo'qmi, - bularning hammasi tarbiyachining talablariga chambarchas boqliqdir.

SHunday qilib, talabalar bilan ishlashning boshlanqich davrida va ular faoliyatining yangi-yangi turlarini tashkil etishda pedagogning talabalarini zarur xatti-harakallarini raqbatlantirishning muqim vositasi hisoblanadi, shuningdek nom'a'qul va foydasiz harakallarning oldini olish va to'xtatish vositasi ham bo'ladi. Talabning asosiy guruhlari va shakllarini berib chiqishni.

Pedagogning talablarini bevosita talablar bo'lishi mumkin, bunda ular shunday talabalarga hara tilgan bo'ladiki, tarbiyachi ulardan muayyan harakatlarga erishishni kutadi yoki pedagogning talablarini vositali talablar bo'ldi, **bunda** o'qituvchi o'z talablarini bilan talabalarda o'z o'rtoqlariga nisbatan navbatdagi talablarni keltirib chiharadi.

Biz avvalo talabning asosiy shakllarini ta'riflashga o'tamiz, bu usulning u yoki bu shaklini tanlash pedagogik vaziyatni hisobga olish bilan boqliqdir. Bevosita talablar uchun pedagogik vaziyat ikkita asosiy shartdan, ikki omildan vujudga keladi. Birinchi omil - kimdan talab kilinsa, o'shaning talaq qiluvchiga bo'lgan munosabatidir. Ikkinci omil - bu tarbiyalanuvchining pedagog raqbatlantiradigan faoliyatiga munosabatidir. Umuman olganda bu munosabatlarni **biz ijobjiy**, betaraf va salbiy munosabatlar deb ta'risflaymiz, holbuki amalda bu munosabatlarning juda ko'pdan-ko'p ko'rinishlari hamda. W.

Энди талаб шаклларига то'xtalib o'tamiz. Talab to'ppa-to'qri bo'lishi mumkin, bunda o'qituvchiniр murojaati "SHunday va faqat shunday qil" formulasi bo'yicha qat'iy, dadil oqangda ifodalangan aniq ko'sratmaga ega bo'ladi. Bunday helda talablarini harakatga undovchi omil talabning o'zi hisoblanadi.

To ppa-to-qri talab jamao bilan ishlashning birinchi bosqichida ayniqsa ta'sirchan býladı. Buni bir adib ko'rsatib o'tgan edi: "Samimiy oshkora, ishonarli,

qizqin va qat'iy talab bo'lmasa, jamoani tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi, binobarin, kimda-kim ikkilanuvchilardan, berilgan va'dalarni shuvab ketuvchilardan ish boshlashni o'ylasa, u xato qilgan bo'ladi".

Pedagog talabalar uchun yangi bo'lgan faoliyatni tashkil etayotgan joyda ham to'ppa-to'qli talab zarurdir. Bu erda to'ppa-to'qli talab ta'limning boshlanqich usuli bo'lgan yo'l-yo'rqi berishga o'xshaob ketishi, o'ziga e'tiborni jalb qiladi. SHuni ham aylib o'tamizki, to'ppa-to'qli talab ko'pincha talabanining pedagogiga yoki u boshlagan faoliyatga betaraf munosabatda bo'lishi sharoitida ishlatalidi. Bunday vaziyatda to'ppa-to'qli, bevosita talabning quyidagi qoidalariga rioya qilish ayniqsa muqimdir.

Birinchi qoida: odatda, talab ijobjiy bo'lishi, ya'ni mutlaqo muayyan xatti-harakatni keltirib chiharishi, talabalarning u yoki bu harakatlarini shunchaki ta'qilamasligi, to'xtatmasligi lozim.

Albatta, o'qituvchining taqiqlashlaridan ayniqsa, talabalar belgilangan qulq-atvor qoidalarini har xil tarzda bo'lgan hollarda soydalaniladi. Biroq pedagoglar talabalarining asosiy mazmunini ta'qilashlar tashkil etmaydi. Talablardagi asosiy narsa talabalar qulq-atvori va faoliyatining ijobjiy dasturidir.

Ikkinci qoida: to'ppa-to'qli talab yo'l-yuriq tarzida, ya'ni bir xil ma'noli, ani? da tushunarli, konkret bo'lishi lozim. Dastlabki paytlarda talabalarning yangi harakatlarini raqbatlantirganda talab yo'l-yo'rqi berish bilan qo'shilib ketganday bo'ladi, bu harakatlarni detallashtirib, ularni aniq ta'riflab beradi.

Uchinchi qoida: pedagogning harqdayn oqilona, aniq va tayyorlangan to'ppa-to'qli talabi albatta bajarilishi, oxiriga etkazilishi kerak.

SHuni esda tutish kerakki, o'xshash pedagogik harakat qonunining namoyon bo'lishi natijasida har bir yangi talabning bajarilishi pedagogning keyingi talabalarining kuchi va ta'sirchanligini oshiradu talaba - tarbiyachiga aql-idrok bilan aniq bo'y sunish odatini shakkllantiradi. Va aksincha, har bir bajarilmagan talab shundan keyingi talabarning samaradorligini pasaytiradi.

To'ppa-to'qli talabarning texnik ijrosi haqida gapirganda, ularni qo'yishning qat'iy, ishonarli oqangini ta'kidlab o'tish kerak. U osoyishta, vaziyatga harab, jiddiy bo'lishi, lekin qech vaqt baqirishga, bolani qaqrarat qilishga aylanib holmasligi kerak.

Talab-maslaqt tarbiyalanuvchi ongiga ishonchszlik bildirishdan iborat bo'lib, u yoki bu xatti-harakat, amaliy vazifani turli usulda echishning maqsadga muvofiqligi to'risida o'qituvchining mustaqil ravishda haror qabul qilish uchun tarbiyachining tasvsiyasini o'z ichiga oladi.

Ilmos singari, maslaqtani ham majbur qilib tihishtirmaydilar, tanlash huquqi bolaning o'zida holadi. Bu shakl ishga ongli munosabatni rivojlantiradi va bundan tashhari, pedagogni katta yoshdag'i o'rtoq deb bilishga o'rgatadi, uning obro'si keng bilimlarda, katta hayotiy tajribada, mahoratda yashiriliq yotganligiga asoslanadi. SHu bilan birga masalaqt-bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yo'l-yo'rqi emas, balki ko'pincha echimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir.

Bevosita talabning bu shakli yana shunisi bilan soydaliki, u talabalarini muayyan vaziyatlarda, ayniqsa paydo bo'ladijan qiyinchiliklarda o'rtoqlari, talabalar bilan maslaqatlashishga o'rgatadi. O'z navbatida pedagoglar o'zlariga talabalar maslaqat uchun murojaat qilishini qadrlashni, o'zingin javob reaktsiyasini shunchaki aytib

berish emas, balki kichik yoshdagi o'rtoqlariga tabiiy yordam ko'rsatishni o'rgatishlari lozim.

Talab-sha'ma talabalarni muayyan qatti-harakatlarga ilqomlantirishning yashirin shakli va eng nozik vositalaridan biridir. SHa'ma ilgari ishlatalilgan, yaxshi tanish bo'lgan talablarni, ma'nosи ochib berilmaydigan talablarni o'ziga xos shartli hishartirishdir. Tajribali pedagogga ba'zan talabalarning zarur harakatlarini bajarishini ta'minlash uchun ko'z tикиб harsh, qoshlarning harakati, ritorik savolning berilishi kifoya qiladi. Muayyan sharoitda sha'ma talabning "yashirin" shakli rolini o'yaydi, u faqat ikki kishiga tushunarli bo'lib, atrofdagilarning diqqatini jalb qilmaydi.

SHartli talab shundan iboratki, bola uchun yoqimli bo'lgan biror faoliyat turi yoqimsiz yoki qiyin faoliyat uchun raqbatlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

"Darslarining qilsang-o'ynagan borasan"- bu bevosita talabning ana shu shakliga eng oddiy misol bo'ladi. SHartli talabdan foydalanganda bajarilishi shart bo'lgan faoliyat bilan sarflangan kuch-qayrat uchun o'ziga xos mukofot bo'lgan faoliyat o'tasidagi aloqa tabiiy edi. Aks holda talabalarدا o'z manfaati yo'lida foydalanish kayfiyatni paydo bo'lishi mumkin, bunda shartli talabga endi pedagog amal qilmaydi, talabalar esa uning oldiga o'z shartlarini qo'yadilar: "Bizning futbol" o'ynashimizga ruxsat etsangiz, guruhni yilishitirib chihamiz" va qokazo.

Umuman talabning bu shaklini qo'llanishi talabalarni, ularning qizihishlari va mayllarini yaxshir bilishni, ularning individual qobiliyatlarini va me'yор tuyqusini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu usulni (xullas, boshqa har qanday usul kabi) suv iste'mol qilmaslik kerak.

O'yin shaklidagi talabdan odatda qiziharli bo'lмаган va ba'zan zerikarli mashqulotlarni tashkil etish haqida gap boradigan joyda, biror ishni, ayniqsa kichik yoshdagi talabalar bilan ishlashni jonlanitirish uchun foydalaniladi.

Bunday zamonaviy darslarni rejalashtirish va o'tkazish didaktik maqsadlar izchilligini aniqlash, mazmundagi etakchi qoyalarni, faoliyatning asosiya turlarini ajratish, predmetlararo aloqalarni belgilash, darsning asosiya jiqozini o'ylab chihish, natijalarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi. har bir darsga alohida tayyorlanishga o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi: mavzuni aniqlaydi va dars vazifalarini konkretlashtiradi; o'quv materialining mazmunini ajratadi va uni didaktik jihatdan ishlab chiqadi; etakchi qoya, tushuncha, qonuniyat, fakt, amaliy ma'lumotlarni ajratadi; ilgari o'rganilgan mavzu bilan boqlanishni, mazmunini ketma-ket mantiqan joylashtirishni nazarda tutadi; talablarning o'quv darajasi, faoliyatları, xarakterini aniqlaydi, ya'ni qanday ko'nikma va malakalar shakllanishi, reproduktiv va izlanish faoliyatini mustaqil ish orqali yo'lga qo'yishda o'qituvchining roli o'tasidagi nisbat qanday bo'lishni o'ylab qo'yadi. Ish shakllarini ishlab chiqadi, dars hismlarini ajratadi; o'qitish usullari: masala, mashq, muammoli savollar, topshiriq, dasturlashtirish elementlarini tanlaydi va aniqlaydi. O'qitishning texnik vositalarini belgilaydi va tekshiradi; butun dars jarayonini rejalashtiradi. Dars rejasida, odatda sana va dars nomeri, uning mavzusi, vazifalari, mazmuning asosiya masalalari, o'qituvchi va talabaning faoliyat turlari, o'qitish usullari va vositalari, topshiriq so'raladigan o'quvchining familiyasi, individual topshiriqlar, uyg'a vazifa ko'rsatiladi. Ammo dars rejalarining strukturasi va qajmi o'qituvchining malakasi hamda tajribasidan kelib chiqib tuzilishi kerak. Masalan, o'qituvchilikni endi boshlanayotganlarga darsning vazifalari, har bir hismning mazmuni, ko'rsatilgan muftassal rejaga ega bo'lishni tushintirish foydalidir. O'qituvchining tajribasi ortib borishiga harab, reja hisharib borishi ham mumkin. Yaxshi tayyorlangan darsni yana uyushgan holda aniq va samarali o'tkaza bilish ham kerak. Bunda quyidagi mezonlarga amal qilish lozim;

1) Darsni aniq va uyushgan holda boshlash, buning uchun esa darsga hamma narsa oldindan tayyorlangan bo'lishi kerak.

2) Talabalar e'tiborini dars mazmuniga harata bilish va uni butun dars davomida o'quvchilarning bilish faoliyatlarini aktivlashtirib, saqlay bilish, darsga qizihish ni qo'llab-quvvatlash, talabalar oldida vazifalar qo'yish, ularni doimo javob berishga tayyor holda saqlash, darsdagi ishlarni xilma-xillash, hammani ko'rib, hamma narsani so'rabb turish.

3) Darsda vaqtidan oqilona foydalanish; o'quv jiqozlarni oldindan tayyorlash, ularni to'qri joylashtirish, topshiriqlarning bajrilishiga erishish, talbalar e'tiborini chalqituvchi momentlarga yo'l qo'ymaslik.

4) O'z qatti-harakatini kuzatish, qoyaviy e'tiqod, yuksak axloqiyilik va madaniyat, gapirish va talab qilish, raqbatlantirish, talabalarga murojaat qilish uslubi - bularning barchasi o'qituvchi faoliyatining uslubini belgilaydi, hamda talabalarning zo'r berib ishlashi, yoki o'ta emotsiyonal qo'zqaluvchanligini istesno qiladi.

5) Darsda tadbirdorlik namoyish qilish, yuzaga kelgan sharoitini yoki darsni o'tkazish sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish.

hozirgi dars uni zamonaviylashtirish, ko'pchilik o'quvchi-talabalarni aktivlashtiruvchi ishlardan istesno qiluvchi faoliyat turlaridan voz kechish, ajratiladigan vaqtini hishartirish, bilimlarni nazorat qilish va mustaqkamlash, funktsiyalarini birlashtirish, mustaqil ish, ijodiy xarakterdag'i topshiriqlar qajmini oshirish, muammoli izlanish usullaridan keng foydalanish, o'qitishning texnik vositalari va dasturlashtirish elementlaridan oqilona foydalanish darsni takomillashtiga va vazifalami aniq bajarilishiga yordam beradi. Zero, dars - o'quv ishini tashkil qilishning asosiy shakli, ammo u ta'lim muassasasidagi boshqa shakllar; amliy ishlar, laboratoriya mashqulotlari, seminarlar, uy vazifalari, qo'shimcha mashqulotlar, fakul'tativlar, tanlov darslari, ekskursiyalar, mehnat va ishlab chiharish ta'limi kabi ta'limning shakllari qo'shib olib borilsa, jamiyat va buyurtmasi - barkamol insonni tarbiyalash uchun zamin yaratiladi.

### 3.2. O'qitish jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishda pedagogik mahorat.

Ilm bir chiroqdurkin, seni roqat  
va faroqatga qechi bir zaqmatsiz  
yetkazadi.

Abu Lays as-Samarqandiy

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq o'n to'rtinch sessiyasida Prezident I. A. Karimov kadrlar va ularning kasb malakasi to'qrисida gapirib shunday degan edi: "Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni echish zaruriyati tuqilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi. Mubolaqasiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi, o'mminizga kimlar kelishiiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga boqliq."

Demak, kelajak bugungi maktab partasiga o'tirgan, voqelikni serqirra sirlarini bilishga intilayotgan yoshlar qo'llida ekan, avvalo, ularni iste'dodini aniqlash, qobiliyat - iqtidorini rivojlantirish, intellektual zakovati, ma'naviy-aqliy saloqiyatini yuksaltirish dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Bu vazifani qal qilish uchun yoshlarni

hayotga, mehnatga tayyorlashning yangi texnologiyasi, metod, usul, vositalardan foydalanish lozim bo'ldi. holaversa yangilangan ta'limgiz tizimi, mazmuni uchun eski holipdag'i metod, usullarni qo'llash mantiqsiz hisoblash, xuddi odamning barcha kiyimlarini yangilash-u, oyoqidagi poyafzalini yirtiq holda holdirganday bo'ldi. Xulosa shuki ta'limgiz-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati maydonga keladi. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchiga mahorat kerak. Demak, fikrimiz o'qitish jarayoniga pedagogik texnologiyani qo'llashda o'qituvchining pedagogik mahorati xususida bo'ldi. Zero, bugungi kunda ta'limgiz-tarbiya jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida qurish, ta'limgiz isloqotlarining maktab oldiga qo'yan muqim vazifalardan biridir.

Ta'limgiz-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish uchun, avvalo, o'qituvchi pedagogik texnologiya tushunchasining mohiyatini, uning shakllari (urlari)ni mukammal o'zlashtirgan bo'lishu lozim.

Respublika ilmiy-pedagogik jamoatchiligi, xorij mamlakatlari va Mqdrlari olimlarining ta'kidlashganlariga "pedagogik texnologiya" tushunchasi inglizcha so'z birikmasidan olingan bo'lib, "ta'limgiz texnologiya"si degan ma'noni anglatadi. Ammo kundalik pedagogik ta'minotda "Ta'limgiz texnologiyasi" iborat emas "Pedagogik texnologiya" iborasi ko'proq qo'llaniladi. "Pedagogik texnologiya" mohiyatini izoqlaydigan bo'lsak, bu o'qituvchi(pedagog)ning ta'limgiz vositalardan o'rinni foydalangan holda o'quvchi-talabalarga belgilangan vaqt, muayyan sharoitda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib jamiyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarini jadallashtirgan holda singdirishga haratilgan ijtimoiy-pedagog qodisadir. SHunga ko'ra pedagogik texnologiya - ta'limgiz-tarbiya maqsadiga erishishning umumiy mazmunini loyiqlashtirilgan yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishga yo'naltirilgan muayyan metod, usul va vositalar majmui deb qabul qilish mumkin. Zero, pedagogik texnologiyaning asosiy muddaosi - o'quvchi shaxsini rivojlashtirish yordamida ta'limgiz-tarbiyaning maqsadga erishishini ta'minlashni nazarda tutadi.

SHuningdek, o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq qilish uchun, avvalo, o'qituvchi pedagogik texnologiyalar to'qrisida bildirilgan fikrlarni, pedagogik texnologiyaning ta'riflarni, shakllarni, maqsadini, mohiyatini bilishi va uning tadbiqi mexanizmlaridan xabardor bo'lish talab etiladi.

SHuni alohida qayd etib o'tamizki "Pedagogik texnologiya" mazmunini, yo'naliishlari(urlari) to'qrisida to'liq ma'lumot berish niyatidan yiroqmiz. Faqatgina o'quv - tarbiya jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida qurish uchun va ularni o'qitish mazmuniga keng tadbiq qilish to'qrisida hisqa ma'lumot berishni lozim deb bilamiz. SHuning uchun quyida pedagogik texnologiya kontseptsiyasining shakllanish tarixi va unga berilgan ta'riflar xususida hisqacha fikr yuritamiz.

Dastlab pedagogik texnologiyani ilmiy asoslash va hayotga tadbiq etish AqSH olimlari tomonidan yo'lga qo'yildi. Buni amalga oshirishda AqSH olimlari B.Blum, J.Blok, A.G.Gronlund, D.Kratvol, J.Kerroll, A.Andersonlarning hissalari katta bo'ldi. Ularning sa'y-harakatlari, olib borgan tadqiqot ishlari natijasida o'quv-tarbiya vazifalarining turli-tumanligi, ta'limgiz mazmunini ifodalovchi o'quv ma'lumotlarning xilma-xilligi, ta'limgiz oluvchilarning o'zlashtirish imkoniyati, qobiliyati, ruqiy

*jarayonlarning bir xil bo'lmasligiga haramasdan takrorlanadigan pedagogik tsiklni o'z ichiga olgan ilqor pedagogik texnologiyalar yaratildi.*

Keyinchalik harb mamlakatlarda ta'lif jarayonini o'qitishning texnik vositalari, yoki kompyuterlashtirishni tadqiq qilish emas balki ta'lif jarayonini samaradorligini oshirish, uni optimallashtirish, loyiqlashtirish, o'qitish metodlarining yangi avlodlarini yaratishga bahishlangan tadqiqot ishlari amalga oshirilib, pedagogik matbuat saqifalarida yoritila boshlandi. Masalan, Angliyada 1967 yilda "Pedagogik texnologiya Milliy kengashi tarkib topgan va "Pedagogik-texnologiya va dasturli ta'lif", 1970 yilda esa "Pedagogik- texnologiya" jurnali chop etila boshlangan bo'lsa, 1971 yilda Italiyada "Pedagogik - texnologiya Milliy markazi", 1973 yilda Vengriyada "O'qitish texnologiyasi Davlat markazlari" tashkil etildi. Bu markazlarning faoliyatini yorituvchi "Pedagogik - texnologiya " nomli jurnal chop etila boshlandi.

Bu ta'limotga sharq mamlakatlaridan birinchilar qatorida Yapon olimlari kirishdilar. Ularning kuch-qayratlari bilan 1965 yilda "Umumyapon Pedagogik Texnologiya markazining kengashi" ta'sis etildi va tadqiqot natijalarini "Pedagog texnologiya", "Pedagogik texnologiya soqasidagi tadqiqotlar" nomli jurnallar saqifalarida chop etila boshlandi. harb olimlarining pedagogik texnologiyalar to'qrisidagi harashlarida reproduktiv ta'lif har qanday ta'lifning zaruriy tarkibiy hismi sifatida haralib, u ma'lum o'quv predmeti doirasida insonlarning ijtimoliy-iqtisodiy, madaniy tajribasini o'zlashtirish, tabiat, jamiyat taraqqiyoti qonunlarini anglash bilan boqliq o'quvchi (talabalar)da kerakli bilim, ko'nikma, malakalar asosini shakkantiradigan, keyinchalik esa produktiv (maqsuli), ijodiy, tadqiqiy ta'lif metodlariga o'tishga doir pedagogik texnologiyalarning variantlari yaratilgan bo'lsa, bunga Yapon olimlari pedagogik jarayonni muayyan mazmunda keltirish nuqtai nazaridan yondashishlar. Buni T.Sakomoto keltirgan ta'risidan keltirish mumkin. U pedagogik texnologiya to'qrisida yozadi: "Pedagogik texnologiya bu mazmunli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuiga keltirishdir" .( Demak T.Sakomoto pedagogik texnologiyaning vazifasi pedagogik jarayonni ma'lum bir tizimga (majmuga) keltirish usullarini yaratish deb biladi.

Bizning sikrimizcha pedagogik texnologiyaga o'qitish jarayonining usuli, yoki usullar majmui deb harsh, qoyani har tomonlama va mukammal izoqlay olmaydi.

SHu boisdan YuNESKO tomonidan pedagogik texnologiyaga berilgan ta'rifga majmuli yondashua printsipiga urqu berilib, T.Sakomoto ta'rifiga erkin tarzda ta'rif berilgan. Bu ta'rif pedagogik texnologiya mohiyatini, uning didaktik jihatlarini chukurroq va kengrok ochib bera oladi. YuNESKO tomonidan berilgan ta'rifga e'tibor harating: "Pedagogik texnologiya - bu bilim berish va bilimlarni egallashda texnika va inson resurslarini uzaro o'zviy bogliq holda ko'rib, butun ta'lif jarayonini loyiqlash (o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash)ning tizimli usulidir".

Ushbu ta'risda tayanch so'zları "tizimli usul", "majmuli yondoshuv" ma'nosini anglatib, o'quv loyiqasini tuzishda tizimli yondashish lozimligini anglatadi. SHuning uchun ular pedagogik texnologiyalarning muqim tarkibiy hismi hisoblanadi. Xuddi

ana shu tizimli yondashuv, ta'lim maqsadlarini, ma'lumotlar mazmunini, o'qitish metodlari va ta'lim natijalarini o'zaro hamkorlik hamda aloqadorlikda ko'rish, baholash, aniqlashni loyiqalashtirishni nazarda tutish lozimligiga ishora qilganligi uchun ham, u yangi pedagogik texnologiyalar mohiyatini aniq yorita oladi.

XX asrda Rossiya olimlari ham pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash bo'yicha ancha intilishlarni amalga oshirdilar va oshirmoqda. Nazariyalar yaratilib, uning amaliyat yo'naliishlariga doir risola, o'quv qo'llanma chop etildi. V.P.Bespalkoning "Slagaemie pedagogicheskie texnologii".- M: Pedagogika, 1989; Pedagogika progressivnie texnologii obucheniya -M:1995; V.M. Monaxovning "Aksiomaticheskiy podxod k proektirovaniyepedagogicheskiy texnologii." M: Pedagogika, 1995; V.Gusevning "Metod proektor kak chastniy sluchay integral'noy texnologii obucheniya". M, 1995; M.V. Klarining "Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse". - M: Znanie,1989; P. I. Tret'yakov va I. V. Sennovenskiyning "Texnologiya modul'nogo obucheniya v shkole". -M: 1997; V. V. Yudinning "Pedagogicheskaya texnologiya". Yaroslavl', 1997; E. S. Polat va boshqalarning. Novie pedagogicheskie i informatsionnie texnologii v sisteme narodnogo obrazovaniya - M; 2001. A.P.Kukushinning "Pedagogicheskie texnologii". - M: Noviy mir, 2004 va boshqalar shular jumlasidadir. Bu risolalarda "Pedagogik texnologiya", "Ilqor pedagogik texnologiya", "Yangi pedagogik texnologiyalar"ga ta'riflar berilib, ularning mohiyat-mazmuni, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, xalq ta'limini rivojlantirishga qo'shishi lozim bo'lgan samarali sifat ko'rsatgichlari to'qrисida fikr yuritiladi va pedagogik texnologiyaning o'hish muvaffaqiyatini kafolatlashda o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini loyiqalashdagi ahamiyati hamda xususiyatlari ochib beriladi. Bu o'qituvchining metodik-texnologik tayyorarligini oshirishga, albatta, yordam ko'rsatishi tabiiyidir.

Ilmiy pedagogik ma'lumotlarning xabar berishicha Rossiyada pedagogik texnologiyaga e'tibor 1965 yildan boshlandi. Bunda, asosan, ta'limni ishlab chiharish bilan qo'shib borish nuqtai nazaridan yondashildi va shu yili "Maktab jiqozlari va UTVITI" markazi tashkil etildi hamda "Maktab va ishlab chiharish" jurnali chop etila boshlandi. SHunga qadar buni rus pedagogi A.S.Makarenko: "Metodlarni texnologiyalashtirish, bu tarbiya va o'qitish jarayonining qurilmasini texnologiyalashtirishlarda iborat", deb tariflagan edi.

Mazkur yunalishning dastlabki qosili ayni paytda pedagogik texnologiyaning poydevori hamda taraqqiyoti maxsuli sifatida maydonga kelgan dasturlashtirilgan ta'lim maydonga keldi. Uning asoschilaridan biri amerikalik olim pedagog B.F.Skinering fikricha dasturlashtirilgan ta'limda o'quv ma'lumotlari uncha katta bo'limgan, ammo bir-biri bilan mantiqiy boqlangan o'quv dasturlarining muayyan blokini dozalarga bo'lingan holda o'zlashtirish demakdir. Dasturlashtirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda o'quv maqsadlari aniqlanib, ularni qo'lga kiritish ketma-ket va izchillik bilan amalga oshiriladi. Natijada, o'hishning ketma-ketlik, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik kabi didaktik printsiplariga amal qvilinadi va ta'limda aniqlikdan-noaniqlikka, oddiydan-marakkabga, osondon-qiyingga koidalalariga tayaniлади hamda o'quv

ma'lumotlari dozalarga ajratiladi va o'zlashtiriladi. Ma'lum dozadagi o'quv ma'lumotlarining o'zlashtirilganiga ishonch qosil qilgach, o'quvchilar diqqatiga yangi dozadagi o'quv ma'lumotlarini o'rganish qavola qilinadi. "Dasturlashtirilgan o'qitish o'quv materialining o'qituvchi, vosita yordamida boshhariladigan o'zlashtirishidir". ... dasturlashtirilgan o'quv materiali o'quv axborotini bir necha uncha katta bo'limgan bo'laklaridan ("qatorlar", "sayllar", "qadamlar") iborat bo'lib, ma'lum ketma - ketlikdataqdum etiladi".

AqSH maktablarida dasturlashtirilgan ta'lim bo'yicha o'tkazilgan tajribalarning dastlabki natijalariga asoslanib, amerikalik pedagog U.SHramm quyidagilarni ma'lum qilgan edi: "Dasturlashtirilgan ta'lim o'ziga xos avtomatik repetitor hisoblanib, u o'quvchilami 1) mantiqiy boqlangan, hisqa yo'llardan shunday olib boradiki, oqibatda 2)o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar, 3) va o'quvchi shunday to'pri javoblar beradiki, 4) ulami natijani ma'lum qilish bilan mustaqamlash imkoniyati yaratiladi hamda, 5)ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qoidalarga qadam qo'yildi"

60-yillarda dasturlashtirilgan ta'limga didaktik qurilmaning tartibga solingan yiqindisi deb haralib, asta-sekin unga teskari holatda ta'lim dasturlarini to'liq mazmunini anglatuvchi "texnologiyalashtirish" yoxud texnologik yondashuv tushunchasi qo'llanila boshlandi. "Texnologik yondashuv - deb yozadi B.Ziyomuxamedov, - ishlab chiharishdan olingan bo'lib, unda minglab texnologik jarayonlar loyiqalashtirilgan. Ular ishlab chiharishda kerakli natijalarga erishish garovi hisoblanadi. Bu texnologiyalarni qo'llash vaqtida qudud va ularning ijrochisi o'zgarsa ham, kerakli maqsulot ishlab chiharaveradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ham shunga erishish uchun pedagogik texnologiya(bizniki-X.B.,A.M.,X.Z.) ishlab chiqildi" O'zbekistonda bu masalani o'rganish va tadbiq qilishga 1993 yildan boshlab, kirishildi. SHu yili pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishning nazariyasi va amaliyotiga bahishlangan anjumanlar o'tkazila boshlandi.

Milliy mustaqillik tufayli mamlakatimizda barcha fanlar qatori pedagogika fanini ham rivojlangan demokratik davlatlarning pedagogik nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan o'rganish, tadbiq qilish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. SHu jumladan, mamlakatiarning ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilishga doir tajribalarni o'rganish, taqlil qilish va mintaqaga mos hamda xos pedagogik texnologiya nazariyasi, amaliyotini yaratishga kirishildi. Oqibat natijada 1993 yildan boshlab respublika matbuotida pedagogik texnologiyaga bahishlab, maholalar chop etila boshlandi.

1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'qrисida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quv-tarbiyaviy jarayoniga ilqor pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish masalasi kontseptual vazifa qilib belgilandi. 1997 yilda Samarqand davlat universitetida o'tkazilgan "Oliy ta'limning hozirgi dolzarb muammolari" nomli oliy o'quv yurtlararo ilmiy-metodik anjumanda "Pedagogik texnologiya: kontseptual taqlil" masalasi ko'tarilib, ta'lim, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishning dastlabki natijalari ko'rib chiqildi. SHundan so'ng pedagogik texnologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish respublikada

keng quloch yoydi. Uning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chihishga kirishildi. Natijada pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini yorituvchi, ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishning mohiyat - mazmunini aks ettiruvchi risolalar, o'quv qo'llanmalari chop etila boshlandi. Bular sirasiga N.q. Avliyoqulovning Zamonaqiy o'qitish texnologiyalar. - T.2001; M. Ochilovning Yangi pedagogik texnologiyalar. - harshi, "Nasaf", 2000; B.L. Farbermanning Ilqor pedagogik texnologiyalar. - T. Fan, 2001; B.Ziyomuhamedov, SH. Abdullaevlarning Ilqor pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyat. - T.:Ibn Sino nashriyoti, 2001; N. Sayidaxmedovning Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyat. - T.: Moliya, 2003; J.T.Yo'ldoshev, S.Usmonovlarning Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: O'qituvchi, 2001; N.N. Azizxo'jaevaning Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: 2006; O'. Tolipov, M. Usmonboevalarning Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyat. Monografiya. - T.:Fan, 2005; B.Xo'jaev, SH.Olimovlarning Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyat. - Buxoro, "Yoqub Dovud", 2004; O'.K.Tolipov, M Usmonboevalarning Pedagogik texnologiyalarining tadbiqiy asoslari. - T.:Fan. 2006; O.Roziqov, S.Qoaev, M.Maxmudov, B.Azizovlarning Ta'lim texnologiyasi. - T.:O'qituvchi, 1999 va qoqazolarni kiritish mumkin.

SHunday qilib biz pedagogik texnologiyaning maydonga kelishi va ushbu kontseptsiyaning rivojlanish tarixi xususida imkoniyatimiz, o'rgangan adabiyotlarimizning taqlili asosida so'z yuritdik. Fikrimizcha mazkur kontseptsiyani yanada chuqurroq o'rganish, ular xususida fikr yuritish ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish uchun o'qituvchiga katta imkoniyatlar yaratadi, uning pedagogik mahoratini takomillashtirishga yordam beradi.

Endi mavjud pedagogik texnologiyalarning mohiyat-mazmuni xususida to'xtalib o'tamiz.

hozirgi kunda pedagogika nazariyasi va amaliyotida o'quv ma'lumotlarini tadqiqiy-ijodiy, muammoli, modulli integrallashgan (mujassamlashgan) differentsiallashgan, faol kabi o'qitish texnologiyalaru tarkib topgan bo'lib, amalda qo'llanilmogda. Ular o'quvchi-talabalarning individual mustaqil hamda o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlashini, yo'lga qo'yib, o'quvchi-yoshlarning mustaqil bilim olishlarini yo'lga qo'yishni ta'minlashga yordam ko'satmoqda. Bunday texnologiyalarni quyidagilar tashkil qilmoqda. III.5. - jadvalga harang.

### III.5. - jadval. Pedagogik texnologiya turlari.

Ap	Pedagogik texnologiyalar	Maqsadi	Mohiyati	Nimani nazarda tutadi
	2	3	4	5
	Muammoli o'qitish	Muammolarni mustaqil bajarishga o'rnatish. Tadqiqiy-ijodiy	Topshiriqlarni izchillikda echish maqsadida o'quvchi- talabalar oldiga ketma-	Bilish faolligini oshiruvchi usullar, tadqiqiy metodlardan kengroq

		faollikni shakllantirish	ket muam-mo quyib ular faolligini, ijodiy fikrla-shini amalga oshirish	foydalanimish
I	Modulli o'qitish	Topriishiqlarni tizimli, ketma-ketlikda bayon etishni va o'quv-chining o'quv-ma'lumotlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishni yo'iga qo'yish	O'quv ma'lumot-larini fan bo'yicha faoliyat yondashuv, tizimli faoliyat yondashuvi asosida bayon etish va faoliyatli-lik, tizimlilik tamoyiliga ri-oya qilish	Ta'limni individuallashtirish, har bir o'quvchitalabning shaxsiy ehtiyoj va imkoniyat-larini inobatga olib, materialni doza lab etkazish
II	Differentsial o'qitish	Ta'limim oluv-chilarning fiziki-logik, psixologik xususiyat-lari asosida kizikiqish, kombinasiyatlарини аниклаш ва рўёбга чикариш	Ўкув мотивла-ри, кизикишлар, имкониятларни рўёбга чикариш орқали ўкувчи-талаба шахсини шакllantiriш	Якка-тартибда ўқитиш методларини кўллаш
V	Mujassamlash-gan o'qitish	O'quv ma'lumot-larini boshqa o'zakdosh fan o'quv ma'lumot-lariga yaqinlash-tirish, o'quvchi individual ehtiyojini ro'yobga chiharish	Mashqulotlarni mazmunan boshqa fanlar bilan yaqinlashtirish asosida ma'lumot manti-qini chuqurlash-tirish	O'quvchilarni turli o'quv predmetlaridagi ma'lumotlarni o'zaro boqliqligini ta'-minlovchi metodlarni qo'llash
	Dasturlashtirilgan ta'lim	O'quv materia-lini dasturlash asosida o'quv ma'lumotini	Axborot mazmunini ketma-ketlikda, izchilikda, tizimli bayon etishni	Ta'limning individual o'qitish metodlarini qo'llash.

		o'zlashtirish jarayonini tashkil etish	yo'lga qo'yish	
I	Rivojlanti- ruvchi ta'lim	Bola shaxsini rivojlantirish imkoniyatlarini izlab topish	O'quv ma'lumot-larini o'quvchi-larning real o'quv imkoniyat-larini ro'yobga chiharishga yo'naltiriш.	O'quvchi- talabalar faoliyatini kengaytirish, ularni turli manbalardan yaxlit ma'lumot toplashga o'rgatish

Yuqorida qayd qilib o'tilgan o'qitishning pedagogik texnologiyalari bilan birlgilikda yana o'yniqli o'qitish, kompyuterli o'qitish, faol(majmuaviy) o'qitish texnologiyalari ham mavjudki, ular tavfsiflangan pedagogik texnologiyalar bilan boqliklidka shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar deb ataladi hamda quyidagi funktsiyalarni bajarishga amaliy yordam ko'rsatadi:

- o'quvchi-talabaga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashish, ular shaxsini qurmat qilish, ular o'quv manfaatining ustivorligini ta'minlashga erishish;
- hamkorlikda o'hish, demokratiya, tenglik, o'zaro qurmatni yo'lga qo'yish, orqali o'quvchi shaxsini yaxlit shakllantirishni amalga oshirish;
- o'quvchi - talabani, o'quv - tarbiya ishlaringin ob'ekti emas, balkisub'ekti sifatida tan olgan holda faoliyat samaradorligini oshirishni yo'lga qo'yish ;
- xar bir ukuvchi - talabaning qobiliyatli inson deb bilib uning iste'dodini ro'yobga chiharishga yordamlashish;
- hamma vaqt o'quvchi-talabaning mustakilligi, tashabbuskorligi, tadbirkorligini qo'llab quvvatlash;

- o'quvchi talaba shaxsining individualligi serqirraligini amalda dalillash va x.k. Bu xususiyatlar o'quvchi - talaba shaxsini pedagogik jarayon markaziga qo'yib, uni rivojlantirishga, tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiharishga va shu asosida uning faolligini oshirishga shart - sharoit yaratadi. SHuning uchun bu masala dolzarbdir.

Endi shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining mazmuni ustida hisqa ekskursiya o'tkazamiz

### 1. Muammoli o'kitish texnologiyasi

Pedagogik manbalarda ta'kidlanishicha muammoli ta'limga XX asrning 20-30 yillarda asos solindi. Dastlab Amerikalik filosoflar, psixologlar va pedagoglar ta'limning ijtimoiy - konstruktiv, ilmiy- tadqiqiy xususiyat va asoslaridan kelib chikib, muammoli o'qitish to'qrisida fikr yuritdilar. Keyinchalik 50-yillarda V. Okon' (Polsha) 70-yillarda M.I.Maxmutov (Rossiya) muammoli ta'limning ilmiy-nazarii va pedagogik - metodik asoslarini ishlab chiqdilar.

Bugungi kunda o'kuvchilarning mustaqil fikrashi, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga, tashabusskorligiga e'tibor kuchaygan, uning ta'lim ob'ekti emas sub'ektiga aylangan bir davrda muammoli o'qitishniñ ahamiyati yanada kuchaydi. Zero, muammoli ta'lim ilmiy bilish, ijodiy fikrash asosini tashkil etib, u pedagog

tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar hamda ularni echishga haratilgan mustaqil faoliyat, ijodiy qobiliyatlarni o'stiradi, shuning uchun ham muammoli ta'lim o'quv natijalarini maqsadli o'zlashtirishga haratilgan ta'lim hisoblanadi. Muammoli ta'limni tashkil qilish yordamida o'quvchining tadqiqot, o'quv-biluv faoliyatini yo'lga qo'yish va shu asosda o'quv predmetidagi ma'lumotlarni, xulosalarni mustaqil o'rganish, taqlil qilish, yangi bilimlarni ijodiy o'zlashtirish, xulosa chiharish kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Muammoli o'qitishda o'qituvchi faoliyatining mazmuni shundan iborat bo'ladi, u eng murakkab tushunchalarni faktlarni tushuntira borishi zarur, a'ni daqiqalarda muammoli vaziyat vujudga keltirib, muammoni qal qilish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni, muammoni echishga o'quvchining o'zini yo'llaydi. Oqibat-natijada o'quvchilar faoliyati shunday tashkil qilinadiki, bunda ular faktlarni taqlil qilish orqali mustaqil ravishda xulosa chiharadilar, umumlashmalar qosil qiladilar. Tushuncha, qoida, teoremlar, qonuniyatlarning ifodalishini aytib berishdan o'quvchilarda yangi vaziyatlarni rejalashtirish, konstruktisyalash, ixtiro qilish yoki insho yozish, matn tuzish, she'r yozish, rasm chizish kabi ishlarni mustaqil amalga oshirish malakasi qosil bo'ladi va diqqat, iroda, ijodiy tasavvur, faraz qilish, taqlil qilish rivojlanadi. SHunday qilib, muammoli o'qitishni ijrochilikdan, ijodiylikka harab boruvchi ta'lim deb atasa xato bo'lmaydi.

Metodist - olim A.K.qulomovning ta'kidlashicha muammoli ta'lim quyidagi hollarda yuzaga keladi:

- yangi muammolar o'quvchilarga nomalum bo'lib, uni izoqlash uchun mavjud bilimlari etishmay, ma'lum qiyinchilikni bartaraf etishga to'qri kelsa;
- bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash zaruriyati tuqilsa;
- muammoli topshiriq bilan uni bajarish usuli o'rtasida nomunofiqlik paydo bo'lsa .

"Ta'lim to'qrisida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" vazifalaridan kelib chiqib ta'lim yangilanish jarayonida, pedagogik texnologiya masalalarini to'la amalga oshirish jarayonida muammoli ta'lim qo'yidagi vazifalarni qal etishga amaliy yordam ko'rsata oladi:

- a) o'quvchilarni mustaqil fikrلash va ijodiy qibiliyatlarini o'stiradi;
- b) ilmiy bilimlarni qo'lga kiritish va amalda qo'llash usullarini o'zlashtirish uchun imkon yaratadi;
- v) egallangan ilmiy bilimlar yordamida o'quvchilarda ilmiy dunyoharash asoslarini shakllantiriladi;
- g) bilimlarni ijodiy o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quv muammolarini echa olish ko'nikmalarini qosil qilishadi;
- d) ijodiy faoliyat tajribasini tarkib toptirishadi va q. k..

Maktab amaliy tajribasi shundan dalolat bermoqdaki o'quvchilarda ijodiy tafakkur mustaqil va faol bo'ladi. Faollik esa o'quvchini mustaqil fikrلashga undaydi. O'quvchining faolligini, mustaqilligini oshirish, muammoli vaziyat yaratish orqali amalga oshadi. Biz ilmiy pedagogik ta'lim va ilqor o'qituvchilar tajribalariga asoslanib, muammoli vaziyat yaratishning qo'yidagi xususiyatlari hamda yo'llari mavjud deb ayta olamiz. Ëndi biz ularning ayrimlari ustida to'xtalamiz:

I-yo'l: O'quvchilarning oldingi bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib, yangi tushunchanihr mohiyatini ochish maqsadida yaratiladigan muammoli vaziyat:

Masalan: 6 sinf botanika darsida ilgaridan tanish bo'lgan "ildiz", "poya", "yaproq", "gul" tushunchalarini o'quvchilarga eslatib, yangi "meva" (qosil) tushunchasining mohiyatini tushuntirishda muammoli vaziyat yaratish mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga o'simliklarning ildizi, poyasi, yaproqi, gulidan tashhari yana mevasi borligini eslatib, mevalarning shakli, tuzilishi, ta'mi, ko'rinishi, qajimi, rangi harxilligini aniqlaydi va "Nega biz mevalarning ta'mi va boshqa xususiyatlarining harxilligiga haramay ularni bir nom bilan "Mevalar" deb ataymiz" savolini o'rta ga tashlash orqali muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. Bu vaziyat quyidagicha amalga oshiriladi: Ma'lumki, oldin o'tilgan mavzulardan ilgaridan "ildiz", "poya", "yaproq", "gul" degan tushunchalar o'quvchilarga tanish. Sinfda ko'rgazmali qurollar: turli o'simliklarning qosil va mevalari tabiiy xolda, yoki ularning mulyajlari bor. O'qituvchi o'quvchilarga tirik o'simliklarning ilgari o'rganilgan hamma hismlarini ko'rsatishni taklif qiladi, so'ngra: "Bolalar, o'simlikning ildizi, poyasi, bargi va gullaridan tashhari nimasi borq" deb savol qo'yadi.

O'quvchi: Yana pomidor ham bor. (qosilni ko'rsatadi) (M.N.Skatkin)

O'qituvchi: Əndi stol oldiga kelib, bodiring, ko'knor, pomidorning qosilini ko'rsat. O'quvchi ko'rsatadi. O'qituvchi ularning o'xshash va farqli tomonlarini ayit berishni talab qiladi.

O'quvchi: Pomidor-qizil, bodiring-ko'k, ko'knor esa sariq rangda bo'ladi. SHakli ham har xil: pomidor sharga uxshaydi, bodiring uzunchok, ko'knor bo'lsa angishvonaga o'xshaydi.

O'qituvchi: Bu mevalarning mazasi bir xilmiq

O'quvchi: Yo'q, har xil.

O'qituvchi: Demak hamma mavalar har xil, bir -biriga o'xshamas ekan, nega bo'limasa ularni biz bir xilda: "Mevalar" deb ataymizq Əqtimol, ularda biror-bir o'xshashlik bordir. Əqtimol, ularni umumlashtiradigan biror narsas mavjuddirq

O'quvchi: Bular mevalar, ularni biz eymiz, mazasi ham shirin.

O'qituvchi: SHakarni ham eysan, uning mazasi ham shirin. Seningcha, bu ham mevamiq

O'quvchi. Yo'q , shakar meva emas, u o'smaydi. Mevalar esa o'simliklarda o'sadi.

O'qituvchi. To'qri. Mevalar o'simliklarda o'sadi. Lekin yaproq va gullar ham o'simliklarda o'sadi-ku. Ularni nega mevalar demaymizq (o'quvchilar javob bera olmaydilar).

SHunda o'qituvchi mayli, men sizlarga yordam beraman deb, mevalarni kesib ko'rsatadi va ichida uruqi borligiga ishora qiladi.

(O'quvchilar pomidor, bodiring, ko'knorni kesib kuradilar.)

O'quvchi. Men bilaman ularning ichida uruqi bor.

O'qituvchi: To'qri, hamma mevalarning uruqi bo'ladi.

So'ngra o'qituvchi bolalarga olma, nok, tarvuz, qovunni kesib qurishni taklif

qiladi. O'quvchilar ularni kesib, o'rugi ko'radilar. Meva deb aytishining sababi, mevalar uruqning mavjudligi va uruq mevalarni umumlashtiruvchi omil bo'lib bir qila olishi mumkinligi to'qrisida xulosaga kelishadi.

2-yo'l: Yangi tushuncha (qoida, qonun, ta'rif va q.k.) larning mohiyatini anglatish maqsadida yaratiladigan muammoli vaziyat. Bunda o'qituvchi yangi tushuncha mohiyatini to'qridan to'qri o'quvchilarga tushuntirmay, uning ayrim elementlarini eslatib muammoli vaziyatni yaratadi. Masalan: 5 siftda ona tili darsida so'z turkumlaridan "Sifat so'z turkumi" mavzusi o'rganiladi. O'qituvchi o'quvchilarni ushbu mavzu bilan tanishtirar ekan, oldingi o'rganiladigan ma'lumotlarga murojaat qiladi va o'quvchilarga "Ot" so'z turkumini o'rganish jarayonida ma'lum bo'lgan doska, xona, deraza, ko'cha, va q.k. kabi so'zlarni doskaga yozishni taklif qiladi. Oxirida va bu so'zlarga qora, keng, baland, qizil so'zlamni ko'shib "so'z birikmasi" tuzishni tavsiya qiladi. O'quvchilar doska, xona, deraza, ko'cha, qalam kabi so'zlar "Ot" so'z turkumiga taaluqli ekanligi va (ular kimq, nimaq so'roqlariga javob berishni tushuntirib beradilar. So'ngra katta doska, keng xona, baland deraza, tor ko'cha, qora qalam so'zlar doskaga yoziladi va ularga so'roqlarga qo'yiladi. So'roqlarga berilgan javoblardan bu so'zlar predmetning belgisini bildirishi, ular qanday qanaqaq so'roqlarga javob berishi va ular "Sifat" so'z turkumiga mansub ekanligini bilib oladilar.

3-yo'l: O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undashi va tadqiqotchilikka yo'naltirishga, ya'ni faktlarni harama-harshi qo'yish, taqqoslash orqali muammoli vaziyatini vujudga keltirish, maqsadida yaratiladigan muammoli vaziyat. Ma'lumki, XI-siftda umumiy o'ra ta'lim maktabalarida o'qitiladigan "Inson va jamiyat" fanidan "Markaziy Osiyo mutaffakkirining inson va jamiyatga harashlari" mavzusi o'rganiladi. Bu mavzuni chuqqurroq va mukammalroq o'rganish qo'shimcha manba sifatida "Buyuk darbadar Ibn Sino" matnini mustaqil o'rganish uchun tavsiya etiladi. Matnni o'rganishdan oldin o'quvchilarga quyidagi muammoli savollarga berilib, ularga javob berish tavsiya etiladi:

I."qech bir gunoqsiz kishilar, tinchlik axtarib o'z uylarini tark etishga majburlar" iborasi siz qanday tushunasizq

2. qanday sabablarga ko'ra kishilar vatanlarini tashlab ketishlari mumkinq
3. qochoqlar muammosi davlatni qanchalik tashvishga soladi, deb o'ylasizq
4. Vatanni tashlab ketganlarning barchasini vatangado deyish mumkinmi va q.k.

Yugorida qayd qilib o'tilgan muammoli savollar yordamida muammoli vaziyatni yaratish yo'llaridan tashhari har bir predmetning xususiyatlaridan kelib chiqib ma'lumotlarni sintez qilish, simvolik tasvirlardan foydalanish: bir-biriga chohishtirish; fanlarda o'xshashlikni topish kabi muammoli vaziyat yaratish ham mavjud.


Muammoli o'qitish, ta'limining eng samarali texnologiyalaridan biridir, undagi ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. O'qituvchi muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchini uni echishga yo'naltiradi. Echimini izlashni tavsiya etadi. Buning uchun undan mahorat, pedagogik bilim ham talab etiladi. Zero, muammoli o'qitishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining ko'rinishu qo'yidagicha bo'ladi;

O`qituvchi	O`quvchi
mustaqkamlashga topshiriq beradi; o`zlashtirilgan amalda qo'llash bo'yicha topshiriq beradi;	doir mustaqkamlashga doir topshiriqni bajaradi; o`zlashtirilgan ma'lumotni qo'llashga doir topshiriqni bajaradi;

O'quv ma'lumotlarini tezkorlik bilan nazorat qilish, kamchiliklarni tuzatishga imkon yaratadi va o`zlashtirilgan o'quv ma'lumotlarining mustaqamlanishi, tafakkurning rivojlanishi uchun didaktik jarayon vujudga keladi.

Muammoli o`qitish texnologiyasini umumiylar yaqlit holatda quyidagicha tasvirlash mumkin.

[REDACTED] TAB-B [REDACTED] TAB-B [REDACTED]



Jadvalda muammoli o'qitish texnologiyasining nazariy asoslarini ko'rib chiqdik. Unda muammoli ta'limning umumiy ko'rinishi, muammoli vaziyat yaratish metodikasi, uning xususiyatlari tafsiflangan. Masalannning amaliy hismiga o'tar ekanmiz, o'tkazilgan tadqiqot xulosalariga asoslanib, oliv o'quv yurtlarida nazariy va amaliy mashqulotlarni muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llab, talabalarda fuharolik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi xususida fikr yuritishni lozim topdik. CHunki bu hol muammoli o'qitish texnologiyasining amabliy yo'nalishini izoqlash imkonini beradi. Muammoli o'qitishda:

- a) ilgari o`zlashtirilgan axborotlardan (ma'lumotlardan) etaricha foydalangan holda yangi ma'lumotlarni ilmiy va amaliy echimlarini topish;
- b) bu yangi muammo (mavzu) ni sabablarini voqelikdan izlab topishga intilish;
- v) ma'lum masala va yangi muammo o'rtasidagi ziddiyatlarni mavzu doirasida bo'lishini ta'minlash;
- g) muammo talaba yoshi, o'quv imkoniyati, didaktik talablar doirasida bo'lishi kabi masalalarga e'tibor haratish lozim.

Muammoli o'qitish asosini tashkil etilgan muammoli vaziyat aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bizning tadqiqotimizda - fuharolik madaniyatini shakllantirish.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, tavsiyalarimiz asosida Buxoro Davlat Universiteti "Fizika, matematika" bo'limi 1 kurs talabalari bilan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" fanidan, dotsent SH.O. Boltayev-ning "Fuharolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari, Konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va bojlarning yuridik tasniflanishi" mavzusida o'tkazgan muammolli ma'rurasini dalil sifatda keltiramiz. Mashqulot tuzilmasi 3 bosqichdan iborat bo'ldi.

#### 1- bosqich. Kirish himsi:

- mavzu, reja (vazifalar) ni e'lon qilish.
- mavzuga doir asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishtirish.
- oldingi bilimlarni xotirada tiklash orqali yangi mavzuni dolzarblashtirish.
- axborotli va muammoli savollar qo'yish ishlarni amalga oshirish.

#### 2- bosqich. Muammoni bayon etish:

- muammoli vaziyatni yaratish orqali bir - biriga zid ma'lumotlarni e'lon qilish;
- mavzu doirasida o'quv muammosini shakllantirish va ularni faktlar bilan mustaqamlash;

- muammoli vaziyatlarda qosil bo'lgan muammoni qal etish yo'llarini izlash va dalillar bilan asoslashga intilish;

#### 3- bosqich. Yakunlash:

- a) asosiy xulosalarni shakllantirish;
- b) bilimlarni tizimlash va umumlashtirish;
- v) mustaqil ishlash uchun muammoli topshiriqlarni e'lon qilish;
- g) savollar qo'yish va javoblarni tinglash.

Bosqichlar bo'yicha faoliyatni tashkil qilish quyidagicha amalga oshirildi.

I.Kirish so'zi o'qituvchining oldingi o'tilganlarni takrorlash, kalitli boqjanish ishlarni amalga oshirish bilanboshlandi va quyidagi xulosaga kelindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqillik mevusi va qurriyat timsolidir. O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekistonda yashaydi inson va fuharolarning, erkinliklari, burchlari, qaq - huquqlari, qadriyati, urf - odatlari, mamlakatning ma'muriy - qududiy, davlat tuzilishi va boshqalar ifodalangan. U xalq boshiga soladigan vayronalik, qoqsizlikni, zulmni, har qanday zo'ravonlikni, kibr - qavoni inkor etadi. U insonlar manfaatini qonun bilan qimoyalanishini ta'minlaydigan qujjatdir. U jaqon hamjihatligida katta siyosiy, huquqiy, ma'naviy - ma'rifiy ahamiyatga ega. SHuning uchun ham u bashariyat maydonida erkin, faol, mustaqil yashayotgan va mehnat qilayotgan O'zbekiston davlatning, o'zbek xalqining asrlar davomida saqlanib, takomillashib kelayotgan milliy urf - odatlari, udumlari marosimlari, qadriyatları va an'analarini, qururi, ijtimoiy - tictisodiy iftixonini, soqlom hayot tarzini, huquqiy fuharolik ongni, axloqiy e'tiqodini, ma'naviy dunyosini tashkil etadi va shuning uchun ham hayotimiz qomusini hisoblanadi.

So'ngra ma'ruzaga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fanining predmeti, mavzusi, maqsadi, vazifalari, yaratilish tarixi, uning davlat, jamiyat, inson hayotidagi o'mi va ahamiyati, asosiy tamoyillarini talabalar hamkorligi yana bir bor esga olish maqsadida quyidagi muammoli savolladr bilan murojaat qildi.

1. Jaholat, vayronkorlik, kulfat, insoniyatga nima keltiradiq
2. O'rta asrlar meqr - oqibatli, iymon - e'tiqodli, fozil insonlarni kimlar deb ataganlarq
3. Zulmkor xalq boshiga kulfat soladigan joqil shoxlar va kishilar qonuniy nomlanadiq
4. Buyuk mutaffakir, o'rta asrlarda falsafa, pedagogika, musiqa fanlariga asos solgan "Fozil odamlar shaqri" muallifi Abu Nasr Farobiyni kim deb ataganlarq
5. Konstitutsiyani qonunlarni, tan olmaydigan, xalqqa doim jabr, zulm qiladigan kishilarni qanday nomlash mumking
6. Konstitutsiyani mukammal egallagan, san, texnika taraqqiyotini rivojlantirishga hissa qo'sha oladigan, yangilik yaratishga qodir insonlarni kim deb ataymizq
7. Doimiy ravishda xushomadgo'ylik qiladigan, bachkana, past insonlarni qanday nom bilan ataydilarq
8. Davlatni, xalqni, Konstitutsiyani, qonunlarni tan olmaydigan ham diniy, ham dunyoviy bilimlarga amal qilmaydiganlar insonlar kimq
9. Kibru - qavoga berilmaydigan, manmanliklarga murosasiz, xushmuomala, xokisor insonlarni qanday insonlar deymizq  
Ushbu savollar talabalarga muammoli boshqotirma tarzida tavsiya etildi. Mazkur boshqotirma savollarga javoblar "Fuharolik" so'zining yasalishini ta'minladi va yangi mavzuning nomlanishiga asos bo'ldi.

F	U	Q	A	R	O	L	I	K
A	L	O	L	A	L	A	Y	A
L	A	N	L	Z	M	G	M	M
O	M	X	O	I	L	A	O	T

K	O	O'	M	L	A	N	N	A
A	L	R	A		R	B	S	R
T	A	L				A	I	I
	R	A				R	Z	N
		R				D		
						O		
						R		

2- bosqich. Yangi mavzuni o'rganishda "Baxtli voqe" o'yining muammoli topshiriqlari talabarga tavsiya qilindi.

1. "Belgilaymiz", "Tavsiya etaman", atamalarining ma'nosи, manbasi, uchrash joyi.

2. Davlatni millatni millat sifatida dunyoga keltiradigan qomus.

3. Sakkiz negiz va printsiplarga asoslanuvchi qujjat uchraydigan joy.

4. O'zbekistonda fuharolikka qabul qilish, unga ega bo'lish, va fuharolikni asoslovchi qujjat.

5. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, o'zga kishilar huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr - qimmatini ifodalovchi qonunlarning ifodalanish manbai.

6. "Barcha inson huquqlarida erkin va teng bo'lib tuqiladilar...so'zlar bilan boshlanib...bu tenglashishlar faqat qonun bilan belgilanadi" bilan tugallangan manba.

7. Ijobiy va salbiy usullarni tavsiylovchi mavzuning nomlanishini izoxlang.

8. Insonni huquq, erkinlik, burchlari mazmuni va mohiyatini tasniflanishining sababi va qokazolar.

Ushbu muammoli savollarga javob topishga quyidagi manbalardan foydalanish tavsiya etildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 1998y.

2. I.A.Karimov "Bizdan ozod va obod Vatan holsin". - T.: "O'zbekiston", 1994 y. 184-2002 betlar.

3. O'zbekiston Respublikasining "Fuharolik to'qrисida" gi qonun O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlar to'plami. - T.: 1992, 30-50 betlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish: bakalavriyatning noyuridik yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma. - T.: "O'zbekiston", 2001, 158-170 betlar.

Muammoni echish, ya'ni fuharolik, uning konstitutsiyaviy asoslari, shuningdek konstitutsiyaviy huquq, erkinlik hamda burchlarning yuridik tasniflanishi "qadamlab" olib borildi.

1- qadam: a) fuharolik tushunchasining mohiyati, mazmuni aniqlandi;

b) fuharolikni asoslovchi mezonlar ishlab chiqildi;

v) fuharolikni qabul qilishning huquqiy asoslari Prezident

I.A.Karimov so'zi bilan sharxlandi;

2 - qadam: a) fuharolik tushunchasining Konstitutsiyaviv shaxqlari;

b) fuharolikni qabul qilish bo'yicha ko'pgina davlatlar tajribasi ayniqsa, "qon

huquqi", "Zamin huquqi" omillariga munosabat bildirildi.

3- qadam: a) fuharolikni qabul qilish usullari to'qrisida baqs-munozara uyuşhtirildi;

b) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'lim, XI - bob, 47-52 moddalari sharqlandi;

v) "Fuharolik to'qrisida" gi, qonun qilish, unga ega bo'lish va fuharolikni yo'qotish tartiblari ustida baqs yuritildi.

4 - qadam: a) konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va burchlarning yuridik tasniflanishi taqlil qilindi;

b) Konstitutsiyaning ikkinchi bo'lim X - bob, 43-46 moddalari muqokamaetildi;

v) tasniflash shart - sharoitlari izoqlanib, huquq, erkinliklar va burchlarni guruhlash amalga oshirildi.

5 - qadam: a) fuharolik va uning konstitutsiyaviy asoslari to'qrisida yagona xulosa qilindi;

b) Konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va burchlarning yuridik tasniflanishi nazariy va amaliy asoslandi.

#### **Uchinchi bosqich yakunlash**

Ushbu bosqichda mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar, egallangan ko'nikma va malakalar natijasi ko'rib chiqiladi. Mazkur mashqulotda quyidagi xulosalarga kelindi:

Fuharolik shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham, muqim ahamiyat kasb etib, u shaxsnинг ma'lum davlat haramoqida bo'lishi uning huquqlari va erkinliklari davlat ichkarisida va tashharisida qonun bilan qimoyalanganligini kafolatlaydi. Fuharolik tushunchasi uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan tushuncha hisoblanib, u qadimiylar Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan, keyinchalik frantsuzcha "situayn", inglizcha "citizen", ruscha "gorojanii - grajdaniin", o'zbekcha "faqir" ma'nolarida ishlataligan. Respublikamiz mustaqillikka erishgach o'tmishtagi "grajdaniinlik" so'zi o'rniga "fuharolik" atamasini ishlatala boshlandi. SHunga asosan hozirgi kunda "fuharolik" muayyan davlat bilan shaxs o'rtaсидagi uzviy siyosiy huquqiy munosabatni ifodalaydi.

Mashqulot yakunida mustaqil o'hish va o'rganish uchun quyidagi topshiriqlar berildi:

1. Fuharolikning jamiyat va shaxs uchun ahamiyati nimadaq  
2. Demokratik huquqiy davlat va fuharolik jamiyat ko'rish sharoitida

fuharolik muammosining o'ziga xos xususiyatlari nimadaq  
3. Fuharolikning konstitutsiyaviy asosi fuharoning ma'suliyat va

majburiyatini asoslay oladimiq  
4. Fuharolikning konstitutsiviy huquqi, erkinligi va burchlarining

yuridik tasniflanishi nimani belgilaydiq  
5. Xalharo shartnomalar asosidayu fuharolikni qabul qilish va

o'zgartirish qanday holada qo'llaniladi va qokazo.

Pedagog	Talaba
<p>Talabalarga savol topshiriq tarzida muammoli vazifa bilan murojaat qiladi.</p> <p>qo'ylgan muammoni qal etish yo'llari ustida fikr yuritishga undaydi.</p> <p>Muammoni qal etishning qulay variantlarini qaqqoniyligini yo'llaydi.</p> <p>qo'ylgan muammolarni echish yo'llari to'qrisidagi farazlarini ayishni taklif qiladi.</p> <p>Farazlar to'qri bo'lsa, uni egallash yangi bilimlar bilan dalillash, xulosalar chiharishni taklif etish.</p> <p>Takliflar noto'qriligi sezilsa, xatoni topish tavsiya etiladi, aniqlashtiruvchi savollarni taklif qiladi.</p> <p>Muammoni talabalar aniqlagan vazifalarini umumlashtiradi, muvvafaqiyatlari raqbatlanadiradi, muammoni fikrplashni takomillashtirishning yangi variantlarini taklif qiladi.</p> <p>Chiharilgan xulosani amaliyotga qo'llashni taklif qiladi va yangi topshiriqlarni taklif etadi.</p>	<p>Muamoni idrok qiladi, o'rganadi, uni echish yo'llarini anglay boshlaydi.</p> <p>Talabalar muamoni bajarishga kirishib, uni qal etish yo'llarini qidirishadi.</p> <p>Muammoni qal etishning qulay variantini dalillaydi, misollar keltiradi.</p> <p>Topshiriqlarni aniq qal etishga haratilgan farazlarni ishlab chiqadi.</p> <p>Eqgallangan yangi bilimlar bo'yicha xulosalar chiharib fikrlarini tizimga soladi, umumlashtiradi.</p> <p>Vazifalarini to'qri qal etish yo'llarini izlab topishga kirishadi.</p> <p>Mavzu bo'yicha xulosalarni o'zlashtiradi, uning ta'limi, tarbiyaviy jihatlarini ochishga harakat qilishadi.</p> <p>Xulosalarini fikrplash orqali dalillaydi, o'z-o'zini nazorat qiladi, baholashda, xulosalarini faktlar bilan mustaqamlaydi. qo'lga kiritgan bilimlarini amaliy ishlar yordamida tadbiq qiladi.</p>

**Эслатма:** Savol va topshiriqlarni talabalarning qizihishi, xohish irodasiga harab ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin.

Pedagogika nazariyasi tadqiqotimiz natijasida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llashda o'qituvchi va talaba faoliyati quyidagicha tashkillashtirishi mumkinligini ko'rsatdi:

SHunday qilib, muammoni o'qitish talabalarning mustaqil ishslashlari, fikrplashlari, xulosalar chiharishlari uchun sharoit yaratadi, ularning mustaqil faoliyatlarini samarali qiladi, mushoqodali fikr yuritish yordamida talaba shaxsini shakllantirish va takomillashtirish uchun imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy - fanlarni texnologiyalaridan biri "Moduli o'qitish texnologiyasidir".

## DIFFERENTIAL TA'LIM.


Ma'lumki ta'limning asosiy maqsadi o'quvchini ta'lim jarayonida maqsadli rivojlantirish uchun har bir o'quvchining fizologik, psixologik xususiyatlaridan xabardor bo'lish lozim. Bu pedagogik-psixologik adabiyotlarda individual xususiyatlar deb yuritiladi. O'quvchining individual farqlari - rivojlanganlik darajasi, ukishga tayyorgarligi (qobiliyat, iqtidori)ni inobatga olib o'quv - taryuiya jarayonini (o'hish vositalari, usullari, tipi) tashkil etish ta'limni individuallashtirish deb yuritiladi.

Didaktika fanida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib tashkil etilgan ta'limni differentsial ta'lim deb atash kabul kiyaingan. Ta'limda o'quvchiga differentsiallashgan holatda yondashish qoyasiga 70-yillarda rus pedagogi E. A. Golant asos soldi. Differential ta'limda (ta'lim mazmuni, surati, usuli, vositasi va x.k.)da o'quvchining kobiliyati, bilim olish darajasi imkoniyatlari xisobga olish lozimligi kayd kilinadi. Differential ta'limda o'quvchilarning individual xususiyatlarini xisobga olinib o'quv topshiriklari tuziladi.

Pedagogika fanlari doktori, profssor O.R.Rozikov ta'kidlashicha differentsial ta'lim uz moxiyatiga kura ichki va tashki differentsiyaga bulinadi, Ichki differentsiyada bir sinf ichida o'quvchilarni (oliy, o'rta, yomon darajadagi) bilimi bo'yicha guruxlarga ajratib o'quv topshiriqlarini tanlash va ishlash tempini (tez, o'rtacha, sekin) tashkil kilish orkali amalga oshirilsa, tashqi differentsiyada o'quvchilarning qizihishlari, psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda karab aloxida sinflar, yoki maktablar tashkil kilish qabul qilingan. Bunda xar bir sinf yoki maktab (tabiiy fanlar, gumanitar fanlar, ishlab chiharish fanlar) buyicha aloxida o'quv rejali, dasguri, darsliklari tuziladi va ish olib boriladi. Tuziladigan o'quv rejasи, dasturi, darsliklarda albatta shu sinf, maktab o'quvchilarining qizihishi, qobiliyati, iste'dodi xisobga olinadi.

Differential ta'lim turining ko'rinishi 3-jadvalda keltirilgan.

## Differentsiyalashgan ta'lim texnologiyasi.



